

QO‘QON UNIVERSITETI

Z. T. RADJAPOVA

ILM-FAN VA TABIAT MARKAZI
TABIAT IN‘OMLARI DIZAYNI

(o‘quv qo‘llanma)

TOSHKENT – 2022

UO‘K:502 (075)

KBK: 74.100.5

S 73

Z. T. RADJAPOVA. Ilm-fan va tabiat markazi. Tabiat in‘omlari dizayni (o‘quv qo‘llanma) – [Matn]. / T.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2022. 152 bet.

ISBN: 978-9943-7965-0-8

Mazkur o‘quv qo‘llanmada oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalarni dizayn san‘atiga o‘rgatish mazmuni, shakl, metod va vositalari hamda tabiat in‘omlari vositasida dizayn ishlari yaratish metodikasi yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanmadan oliy ta‘lim tashkilotlari metodistlari, to‘garak rahbarlari va pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi barcha mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 502 (075)

KBK:74.100.5

M A S ’ U L M U H A R R I R:

Sherzod Mustafakulov – Qo‘qon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

TAQRIZCHILAR:

Saidaxdor Bulatov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san‘at” kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori;

Behzod Xodjayeov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrasida professori.

ISBN: 978-9943-7965-0-8

© “Ilm-fan va innovatsiya”, 2022.

SO‘Z BOSHI

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy turlari boy va rang- barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan san‘at turlari betakrorligi bilan dunyoga mashhur. O‘lkamiz zaminida yodgorliklarning guvohlik berilishicha insonning jismga badiiy ishlov berilishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridanoq boshlangan bo‘lib, asrlar osha uzluksiz davom etmoqda.

O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san‘atlar orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida o‘rin egallaydi. Xalq amaliy bezak san‘ati o‘tmish avlodlarimiz yaratgan takrorlanmas va tarixiy bebaho san‘at asarlarining namunasi bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

To‘garaklar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi”gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli, 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-sonli, O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlar, hamda 2019-yil 19-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida o‘tkazilgan vidoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan: yoshlarimizga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlashga oid 5 ta muhim tashabbus, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur to‘garak darajada xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi

PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-sonli “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Xalq ta‘limi tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, Farmonlari, 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-sonli “Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016-2020 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-sonli “Xalq ta‘limi tizimidagi maktabdan tashqari ta‘lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-sonli “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 9-sonli “Ixtisoslashtirilgan san‘at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorlari asosida amalga oshirilmogda.

Oliy ta‘lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri badiiy ijodiyot bo‘lib, talabalarining badiiy-estetik sifatlarini rivojlantirish, ularda san‘atga qiziqish uyg‘otish, shuningdek, yaratuvchanlik va ijodkorlik fazilatlarini tarkib toptirishga alohida ahamiyat beriladi. Jumladan, xalq amaliy bezak san‘ati ishlari to‘garak a‘zolarining ma‘naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi, barcha san‘at turlari o‘z talabasiga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o‘tkaziladigan badiiy, ruhiy ta‘siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy san‘at turlarining fazilatlarini ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. Har bir hunarning o‘ziga xos mashaqqati va o‘ziga xos sir-asrorlari bo‘lgani kabi tabiat in‘omlari va tabiiy materiallardan ishlangan dizayn mahsulotlari ham shular jumlasidandir. Tabiat mo‘jizakor, tabiat in‘omlaridan yaratilgan asarlar undanda go‘zal va mo‘jizakordir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada ana shunday go‘zalliklarni kashf etishga harakat qilingan. Bizni qurshab turgan predmetlar olamining badiiy-

estetik mohiyatini bilib olishdan iborat murakkab ilmni o'zlashtirish aynan yoshlikdan boshlanadi.

Mamlakatimizda «dizayn» atamasi paydo bo'lganiga ko'p bo'lgani yo'q. Inglizchadan tarjima qilinganda «dizayn» chizma, rasm, loyiha ma'nolarini anglatadi. Bunga qadar narsalarni loyihalashtirish «badiiy konstruksiyalash», narsalarni yaratish nazariyasi esa «texnik estetika» deb atalib kelinardi.

Dizayn ta'limining zarurligini to'laligicha anglash, uning murakkab, integrativ va rivojlantiruvchi ta'lim tizimi ekanligini tushunish, yoshlarni ijtimoiy faoliyatga qo'shishning zamonaviy shakl va metodlarini ishlab chiqish, talabalarni texnologik tayyorgarlikda dizaynerlik munosabatini faollashtirishga asos bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, amaliy san'at to'garaklarida o'quvchilarning dizaynerlik qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kun pedagogikasida muhim muammolardan biridir.

I BOB. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TALABALARNI DIZAYN SAN'ATIGA O'RGATISHNING NAZARIY ASOSLARI

0.1. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni dizayn san'atiga o'rgatishning maqsad va vazifalari

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati avvalo, shakl va mazmun mutanosibligi bilan go'zaldir. Bu mutanosiblikni dizayn va amaliy san'atini boshqa turlarida ko'rishimiz mumkin.

Dizaynning maqsadi–inson bilan uni qurshab turgan, mehnatga, turmushga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli muhit bilan maksimum darajadagi uyg'unlikni vujudga keltirishdan iborat.

Dizayn san'ati kompozitsiyalar tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, kompozitsiya bu badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va hokazo) qo'llaniladigan atama bo'lib, u «tuzish, qurish» ma'nosini anglatadi. Asarda badiiy obrazlar va vositalarning o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va kompozitsiya badiiy obrazning ifodaviylikini oshorishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali ijodkor asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.

Dizayner ish uslubida ramziylik va falsafiy qarash mujassam bo'lmog'i darkor. Ko'z o'ngimizda namoyon bo'lgan manzara va shakl aslida zehnimiz ko'zguisida mavjud ma'lumotlar in'ikosidir. Albatta, ularni idrok etish va uqmoq natijasida muayyan mazmun va maqsadni anglaymiz. Aks holda ular oddiy bir ko'rinish tarzida xotirada qoladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarining tasviriy san'at bo'yicha o'quv dasturida dizayn san'ati to'g'risida quyidagi bilimlarni hosil qilish tasviriy san'at ta'limining vazifalari qatorida qayd etilgan;

- amaliy va dizayn san'ati asarlarini milliy iftixor, qadriyat sifatida e'tirof etish va muhofaza qilishga o'rgatish;
- talabalarni tasviriy, amaliy va dizayn san'ati bilan tanishtira borib, ulardagi tasviriy;
- ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, san'at bilan muntazam shug'ullanish ehtiyojini tarkib toptirish;
- dizayn san'atining turlarida ularga xos tasviriy-ifodaviy vositalar, qonuniyatlar asosida o'zlarining ijodiy faoliyatlarida qo'llay bilish.

1.2. Talabalarni tabiat in'omlaridan kompozitsiyalar yaratishga o'rgatish mazmuni

Go'zal san'at yaratuvchi ijodkor uchun osuda ijodiy muhit nihoyatda zarurdir. Shundagina insonlarga manzur bo'ladigan ijodiy asarni san'at shaydolariga namoyish eta oladi.

Dizaynerdan professional sifatida iste'dodning turli qirralariga ega bo'lishi talab qilinadiki, bu iste'dod birgina rassomning iste'dodi bilan yoxud mutaxassis sifatida faqatgina loyihalash tafakkuri bilan chegaralashni tan olmaydi, uning uchun yuksak darajada rivojlangan keng tafakkurni, jismoniy o'ziga xos xususiyatlarini, materialning tabiiy go'zalligini nozik fahmlovchi, yuqori darajada rivojlangan didni yaxshi biluvchi sifatlar ham xos bo'lmog'i lozim. Dizaynerlik kasbi maqomi yuqori ixtisos, o'z mehnatining ijtimoiy ahamibti uchun mas'uliyatni his etish orqali xalq turmush darajasini oshirish natijasida shakllanadi. Talabada muayyan ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, dizaynerlik asosini o'rganish ta'miniy jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Dasturda nazarda tutilgan o'quv materiallari ikki yo'nalishda: nazariy va amaliy mashg'ulot tarzida o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan.

Nazariy yo'nalishdagi mashg'ulotlarda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi "Tasviriy san'at" va "Texnologiya" o'quv fanlari doirasida olingan bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish va talabalarda dizaynerlik ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Nazariy mazmundagi mashg'ulotlarning yana bir xususiyati

shundaki, dizayn san'ati asarlarini idrok etishda uning funksional badiiy bezatilgan tarkibiy qismi ijodiy-falsafiy, badiiy-grafik elementi sifatida qaralishi lozim.

Dasturdan foydalanish jarayonida nazariy mashg'ulotlarning davomiyligini 1-2 soatdan oshmasligi, ularga monand amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Chunki umumiy oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni, to'garaklarning qatnashchilari uzoq muddatli nazariy mashg'ulotlarga tayyor emas. Ularni ko'proq amaliy ijodiy faoliyat qiziqtiradi. Talabalarning qiziqish doiralarini muayyan metodika, vositalar asosida kengaytirib borish, ularni asta-sekin estetik ehtiyojga aylantirib borish muhim ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik masaladir.

Dizayn to'garagining o'ziga xos jihatlaridan biri to'garak rahbarining talabalar bilan individual ishlashga ko'proq vaqt ajratishi lozimligida.

Mashg'ulotlarning bosh prinsipi soddadan murakkabga, nazariya bilan amaliyotdagi hamohanglikdir. Mashg'ulotlar mazmunining murakkablashib borishi muayyan guruhlarining dastur materiallarini o'zlashtirish darajasi bilan belgilangan. Xuddi shu omil to'garak rahbari uchun dasturning turli variantlarini (soddalashtirilgan, murakkablashtirilgan, mahalliy sharoitga moslashtirilgan va boshqalar) ishlab chiqish lozimligini taqozo etadi.

O'qituvchi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ishiga jiddiy e'tibor qaratishi, bu tadbirda talabalarni ham faol ishtirok etishlarini ta'minlashi kerak. Agar oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarni asosan qalam, qog'oz, akvarel bo'yoqlari bilan ishlasalar, dizayn to'garagi mashg'ulotlarida bunday materiallarga qo'shimcha tarzda tabiat in'omlari, tabiiy materiallar, yong'oq daraxtidan maxsus tayyorlangan idishlar turli bo'yoqlarda bajariladigan faoliyatni kiritish mumkin. To'garak rahbarining ta'lim jarayonlar (tabiat in'omlari, tabiiy materiallar, yong'oq daraxtidan maxsus tayyorlangan idishlar) bilan lozim bo'lgan miqdorda ta'minlashi mashg'ulotlarning samarali kechishini ta'minlaydi.

To'garak mashg'ulotlari uning qatnashchilarini badiiy amaliy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlariga kirishlari

uchun maxsus tayyorlash faoliyatida ham qo'llanilishi mumkin. Bu holda to'garak mashg'ulotlari mazmunida rangtasvir, qalamtasvir, amaliy san'at kompozitsiyalaridan maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqiladi.

Biroq to'garakning bosh maqsadi – talabalarni dizayn san'atiga jalb etish ta'lim mazmunining asosini tashkil etishi lozim.

Respublikamizda joriy etilgan maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq dastur 216 soatga mo'ljallab tuzilgan. Unda o'quv topshiriqlarning ketma- ketligi va mantiqiy davomiyligini saqlashga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Dasturda amaliy va nazariy mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning taqsimoti ham to'garak rahbarining xohishiga ko'ra ma'lum darajada o'zgartirilishi mumkin. Biroq, bunda qatnashchilarning qiziqishlari, badiiy-estetik ehtiyojlari bosh omil bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlarni bevosita ishlab chiqarishga moslashtirilgan tabiiy sharoitlarda, amaliy-mustaqil faoliyatni keng taraqqiy ettirgan holda mehnat usullari, asboblari, jihozlari va mashqlarining xilma-xil holatlarini tanlash kerak. Mashg'ulotlar ko'proq amaliy ishlarni bajarish yo'nalishida bo'lishi, nazariy yo'l-yo'riqlari esa faqat kirish qismida, 10-15 daqiqadan oshmasligi hamda jarayonni ko'rgazmalili tushuntirish, shaxsiy namuna ko'rsatish, namoyish etish va mustaqil ishlash metodlari asosida tashkil etish lozim. Tayyorlanayotgan buyumlarni esa har tomonlama mukammal, yuksak badiiy-estetik saviyada bajarilishiga erishish lozim.

Mashg'ulotlarda ko'rgazmali vositalardan foydalanganda quyidagi uslubiy talablarga rioya qilish kerak:

1.Ko'rgazmali qurol o'quv materialining mazmuniga mos kelishi kerak.

2.Mashg'ulotda foydalaniladigan barcha ko'rgazmali qurollarni birdaniga ochib, ko'rsatib qo'yish yaramaydi. Chunki bu o'quvchilar diqqat-e'tiborining tarqalishiga olib kelishi mumkin.

3.Mashg'ulotni ko'rgazmali qurollar bilan haddan tashqari to'ldirib yubormaslik kerak.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining butun tarmoqlari va turlarining asosiy vazifalari bolalarda mavjud bo'lgan iqtidorni

shakllantirish, rivojlantirish va bolaning har qanday qiziqishini, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda olib boriladi, har bir o‘smirning ijodkorlik imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, iqtidorini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjud. Shu jumladan, ustoz-murabbiy talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratish lozim.

To‘garak mashg‘ulotlari o‘quv rejasi, dars jadvali, ko‘rsatilgan vaqti, dars xonasi belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

1.3. To‘garak mashg‘ulotlarining iqtidorli bolalar bilan ishlash imkoniyatlari

Keyingi yillarda madaniyat va san‘at olamida katta yutuqlarga erishilmoqda. Ushbu sohada davlat idoralari bilan birgalikda bir qator nodavlat tashkilotlar ham faol ish olib bormoqda. Ana shunday hamkorlik natijasida yurtimizda o‘tkazilayotgan “Nihol” va “Zulfiya” mukofoti tanlovlari, “Yangi avlod” va “Kelajak ovozi” ko‘rik-tanlovlari respublikamizning barcha viloyat, tuman va shaharlaridan ming-minglab yosh iste‘dod egalarini kashf etmoqda. To‘garak mashg‘ulotlarining ahamiyatli tomonlaridan biri moddiy-texnikaviy xom ashyo va o‘quv metodik ta‘minotini yo‘lga qo‘yish hisoblanadi. Xalqimizning “yuz marta eshitgandan ko‘ra, bir marta ko‘rgan afzal” yoki “yuz marta ko‘rgandan ko‘ra, bir marta bajargan ma‘qul”, degan dono so‘zlari bevosita amaliy san‘at mashg‘ulotlarini bajarishga taalluqli, deyish mumkin, chunki qo‘lda mashg‘ulotlarni bajarish, avvalo, xom ashyo ta‘minoti, asbob-uskunalar, jihozlarning yetkazilib berilishiga boqliqligini iste‘dodli bolalar bilan ishlash tajribasi ko‘rsatmoqda.

Iste‘dodli bolalar bilan ishlash usullari, ularga yetkaziladigan yordamning ko‘lami va shakli ko‘p jihatdan iste‘dodni tanish, to‘g‘ri tashxis qo‘yishga bog‘liq. Shu sababdan ham keng jamoatchilik orasida, to‘garak rahbarlari va ota-onalar orasida tashviqot va targ‘ibot olib borishning ahamiyati kattadir. Shu munosabat bilan ularning ongida iste‘dodning tabiati, tarkibi, iste‘dodli bolani aniqlash metodikalari,

ularni rivojlantirish usullari haqida ilmiy-amaliy tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda shu narsa tobora ravshan bo'lib bormoqdaki, iste'dod bu irsiy xislatlarning tashqi taassurotlar bilan murakkab qo'shilishi natijasida shakllanadigan psixologik borliqdir. Shaxsning o'z-o'zini rivojlantiruvchi mexanizmlari iste'doddek mukammal, yaxlit va tizimli faoliyat ko'rsata oladigan nodir xususiyatlar majmuasining shakllanishida va inson imkoniyatlari saviyasining o'ziga xos ta'minlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iste'dodni psixikaning tizimli, umr davomida rivojlanadigan nodir xususiyati deb tushunilib, u kishiga tez va samarali natijaga erishish imkoniyatini berganligi sababli, shaxs o'ta yuqori, ba'zan esa nodir yutuqlarga erishadi.

Bolaning iste'dodi ba'zan uning ixtiyoriy, stixiyali ravishda boshlangan, hech kim majbur qilmagan bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishida namoyon bo'lishi mumkin. Bu bilan bola o'z ichki imkoniyatlarini tashqariga chiqargan, namoyon qilgan bo'ladi. Shubhasiz, har bir bola iste'dodining tashqi ko'rinishi juda ham har xil, ba'zan esa, hayratomuz darajada kishini lol qoldirishi mumkin (masalan, ko'p xonali sonlarni bir zumda yodda ko'paytirib berishi, soatlab yangitdan yodlagan she'rlarini aytib berishi va h.) lekin barcha iste'dod turlarining umumiy jihati shundaki, bolada tashqi voqea va hodisalarni bilishga intilish, har xil faoliyatda o'zini sinab ko'rish, o'z imkoniyatlarini rivojlantirish jarayonida biror bir mexanizm yaratish, u yoki bu fikr yoki g'oya ustida uzoq vaqt ishlash, antiqa bir yo'nalishda ixtirolar qilish bilan mashg'ul bo'ladi. Iste'dodli kishi, jumladan, iste'dodli bolaning o'zigi xos, uni boshqalardan farq qilib turadigan jihati shundan iboratki, biror bir faoliyat turiga yoki predmet va hodisalarga yondashuvda o'ziga xoslik, antiqalik, nodirlik bor. Iste'dodli bola voqea-hodisalarning asl, o'zak mohiyatini tezda tushunib olib, uni bir og'iz so'zda, lo'nda, va aniq ifoda eta oladi va shu sababli ikkilanishlarni, «chaynalishlarni» yoqtirmaydi, noaniqliklarga nisbatan toqatsizlik bildiradi. Shu sababli ular oddiy, hammaga tanish voqea-hodisalarga ham boshqacha nom bera oladilar. Haqiqatni aks

ettiradigan, baʼzan andisha qilmay toʻgʻrisini, asl mohiyatini qisqa, lekin, maʼnoli soʻzlarda ayta oladilar. Yoshi va maʼlumotiga qarab, isteʼdodli bola oʻzi oʻrgangan, baʼzan gʻaroyib, sirli yoki hayotiy murakkab voqealarni tushuntirishga, ularning ichki mexanizmlarini anglashga, sabab va oqibat aloqalarini oʻrnatishga intiladilar, baʼzan esa uzoq vaqtlar davomida bir muammo ustida tinim bilmay mashgʻul boʻladilar, haqiqatni izlaydilar.

II BOB. TALABALARNI DIZAYN SAN'ATIGA O'RGATISH METODIKASI

1-mashg'ulot. Dizayn san'ati haqida umumiy ma'lumot

Mavzu: Dizayn san'ati haqida umumiy ma'lumot.

Maqsad: Talabalarga dizayn sa'ati haqida umumiy ma'lumot berish.

Vazifalar: 1. Mavzu bo'yicha talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. 2. Ularni tasavvurlarini shakllantirish va o'z tasavvurlarini bayon etib bera olishga o'rgatish.

3. Talabalarining mavzu yuzasidan faol fikrlashlariga erishish.

O'quv jarayonining mazmuni: 1. "Dizayn" tushunchasi.

2. Dizaynning vazifasi.

3. Dizayn san'ati. "Kompozitsiya" tushunchasi.

4. Amaliy bezak san'ati.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: og'zaki. "B/B/B" chizmasi (1-ilova) va "Mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" (3-ilova) interfaol metodi.

Shakl: dars, kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: doska, marker, tarqatma materiallar.

Usul: tushuntirish, ko'rsatib berish, aytib berish.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi** talabalarga dizayn san'ati haqida ma'lumot beradi (2-ilova) va o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlariga erishadi. Talabalarni ranglarni ajratish va uning ramziy ma'nolarini aytib berishga o'rgatadi.

Talaba: "Dizayn" va "kompozitsiya" tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Dizayn san'atining o'ziga xosliklarini bilib oladilar. Amaliy bezak san'atida ranglarning tutgan o'rnini anglaydilar. Mantiqiy va ijodiy fikrlashga o'rganadilar.

B/B/B chizmasi

B/B/B chizmasi – Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mazkur grafik organayzer mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Talabalarda tizimli fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

2. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar.

3. O‘qituvchining ma‘ruzasini tinglaydilar.

4. Kichik guruhlarda jadvalning 3 bo‘limni to‘ldiradilar.

B/B/B JADVALI		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Dizayn san‘ati haqida ma‘lumot

Mamlakatimizda *dizayn* termini paydo bo‘lganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Inglizchadan tarjima qilinganda *dizayn* chizma, rasm, loyiha ma‘nolarini anglatadi. Bunga qadar narsalarni loyihalashtirish “badiiy konstruksiyalash”, narsalarni yaratish nazariyasi esa “texnik estetika” deb atalib kelinardi. *Dizayner* - rassom konstruktor

Dizaynning maqsadi - inson bilan uni qurshab turgan mehnatga, turmushga, madaniyatga jalb etuvchi predmetli muhit bilan maksimum darajadagi uyg‘unlikni vujudga keltirishdan iborat.

Dizaynerdan professional sifatida iste'dodning turli qirralarga ega bo'lishi talab qilinadiki, bu iste'dod birgina rassomning iste'dodi bilan yoxud mutaxassis sifatida faqatgina loyihalash tafakkuri bilan chegaralashni tan olmaydi, uning uchun yuksak darajada rivojlangan keng tafakkurni, jismoniy o'ziga xos xususiyatlarni, materialning tabiiy go'zalligini nozik fahmlovchi, yuqori darajada rivojlangan didni yaxshi biluvchi sifatlar ham xos bo'lmog'i lozim.

Dizayn san'ati kompozitsiyalar tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, kompozitsiya bu badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va hokazo) qo'llaniladigan atama bo'lib, u "tuzish, qurish" ma'nosini anglatadi. Asarda badiiy obrazlar va vositalarning o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va kompozitsiya badiiy obrazning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya (lotincha»sompjtitio» – so'zidan o'ylab chiqaraman, tuzataman, yarataman ma'nosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

Kompozitsiya orqali ijodkor asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy-joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.

Dizayner ish uslubida ramziylik va falsafiy qarash mujassam bo'lmog'i darkor. Ko'z o'ngimizda namoyon bo'lgan manzara va shakllar aslida zehnimiz ko'zglasida mavjud ma'lumotlar in'ikosidir. Albatta, ularni idrok etish va uqmoq natijasida muayyan mazmun va maqsadni anglaymiz. Aks holda ular oddiy bir ko'rinish tarzida xotirada qoladi.

Yashil rang – Ona tabiat, islom ramzi.

Moviy rang – osmon, koinot, tinchlik, yomon ko'zdan asrash ramzi.

Qizil rang – g'alaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik.

Sariq rang – muqaddaslik, yorug'lik, quyosh, kenglik.

Qora rang – motam, cheksizlik, mavhumlik, qo‘rquv, tushkunlik, noaniqlik.

Zangori rang – oliy e‘tiqod.

Oq rang – poklik ozodlik, yorug‘lik, baxt, omad.

Olti kirrali yulduz – hayotning boshlanishi va oxiri.

Tik turgan holatdagi teng tomonli uchburchak – hayotning boshlanishi.

Teskari turgan holatdagi teng tomonli uchburchak – hayotning oxiri.

Teng yonli uchburchak – yaxlit bo‘lingan bo‘lak, ayriliq, olam.

To‘g‘ri to‘rtburchak – dunyoning to‘rt tomoni.

Romb – ishonch, ayol, ya‘ni ona yer, serfarzandlik.

Aylana – olam, mukammallik, baxt hayot, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish ramzi, abadiylik, ya‘ni olam doimiydir, lekin inson umri o‘tkinchidir.

Besh qirrali yulduz – hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh ustuni.

Yarim aylana – baxt.

Kvadrat – dunyoning, olamning cheksizligi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug‘lik, mustahkamlik, borliq, yer-suv, olov va havodan iborat ekanligi, mukammallik, tenglik, go‘zallik.

Beshburchak – tabiat.

3-ilova

Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi

Quyida qog‘ozning o‘ng tomonida “Ranglar va ramzlar” mavzusidagi muhim atamalar keltirilgan. Qog‘ozning chap tomonida ularning mazmuniga mos keluvchi fikrlar chalkashtirilgan holda keltirilgan. Siz esa ularni tartib raqamlari asosida to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Yashil rang Tabiat
2. Moviy rang Ona tabiat, islom ramzi
3. Qizil rang Oliy e‘tiqod

4. Sariq rang Hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh ustuni
5. Qora rang Dunyoning, olamning cheksizligi
6. Zangori rang Baxt
7. Oq rang Dunyoning to'rt tomoni
8. Olti qirrali yulduz Ishonch, ayol, ya'ni ona yer
9. Tik turgan holatdagi Yaxlit bo'lingan bo'lak, ayriliq teng tomonli uchburchak.
10. Teskari turgan holatdagi Oliy e'tiqod teng tomonli uchburchak
11. Teng yonli uchburchak Muqaddaslik, yorug'lik, quyosh
12. To'g'ri to'rtburchak G'alaba, olov, iliqlik, xursandlik
13. Romb Olam, mukammallik, baxt, hayot
14. Aylana Motam, cheksizlik, mavhumlik
15. Besh qirrali yulduz Poklik ozodlik, yorug'lik
16. Yarim aylana Hayotning boshlanishi va oxiri
17. Kvadrat Hayotning boshlanishi
18. Beshburchak Hayotning oxiri

2-mashg'ulot. Kompozitsiya qonunlari

Mavzu: Kompozitsiya qonunlari

Maqsad: Talabalarga kompozitsiya qonunlari haqida umumiy ma'lumot berish.

Vazifalar: 1. Mavzu bo'yicha talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. 2. Ularni tasavvurlarini shakllantirish va o'z tasavvurlarini bayon etib bera olishga o'rgatish.

3. Talabalarining mavzu yuzasidan faol fikrlashlariga erishish.

O'quv jarayonining mazmuni: 1. Kompozitsiya qoidalari.

2. Kompozitsiya uslublari.

3. Kompozitsiya vositalari.

4. Konstruktivizm.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: og'zaki. "Erkin yozish" interfaol metodi (1-ilova) va "Toifalash" jadvali (3-ilova)

Shakl: nazariy mashg'ulot, kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: doska, marker, tarqatma materiallar.

Usul: tushuntirish, ko'rsatib berish, aytib berish.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi talabalarga kompozitsiya qonunlari haqida ma'lumot beradi (2-ilova) va o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishlariga erishadi. Talabalarni ranglarni ajratish va uning ramziy ma'nolarini aytib berishga o'rgatadi.

Talaba: "Kompozitsiya qoidalari", "kompozitsiya uslublari", "kompozitsiya vositalari" tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Kompozitsiya qonunlarining o'ziga xosliklarini bilib oladilar. Konstruktivizmning mohiyatini anglaydilar. Mantiqiy va ijodiy fikrlashga o'rganadilar.

Erkin yozishga doir topshiriq

O'qituvchi talabalarga besh minut vaqt davomida "Kompozitsiya qoidalari" haqida bilganlarini daftarlariga yozishni so'raydi. Vaqt tugagach, ba'zi o'quvchilardan yozganlarini o'qib berishni so'raydi. Vaqtdan yutish uchun qolgan o'quvchilar avval o'z yozganlarini o'qib bergan o'quvchilarnikiga o'xshamagan fikrlarini aytishlari mumkin.

Kompozitsiya qonunlari

Dizayn san'ati kompozitsiyalar tuzilmasi bilan bog'liq bo'lib, kompozitsiya bu badiiy asarlarda (adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at va hokazo) qo'llaniladigan atama bo'lib, u "tuzish, qurish" ma'nosini anglatadi. Asarda badiiy obrazlar va vositalarning o'z o'rnida shakl, rang, mazmun jihatdan qurilishi uning kompozitsiyasini anglatadi va kompozitsiya badiiy obrazning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompozitsiya orqali ijodkor asardagi mazmunning muayyan tartibdagi chiziq, shakl, rang va boshqa vositalar orqali tomoshabinga ta'sir kuchini oshiradi. Uning elementlarini o'zaro bog'lab joy – joyiga qo'yadi, fazoviy kenglikni yaratadi. Har bir san'at asari ma'lum kompozitsiyaga ega bo'ladi. Zero, kompozitsiya asar yaratilishida birinchi galda hal etiladigan muhim ish hisoblanadi.

Kompozitsiya tuzishning o'ziga xos qonun – qoidalari, vosita va

uslublari mavjud. Kompozitsiyaning vosita va uslublarini batafsil o'rgatuvchi "Kompozitsiya" fani mavjud.

Asarning muvaffaqiyati ko'pincha uning kompozitsiya qonunlariga qanchalik rioya qilinishiga bog'liq bo'ladi. Kompozitsiyaning yaxlitlik, surat detallarini asar g'oyasiga bo'ysunishi, muvozanat, suratda yangilikning mavjudligi, kontrastlar, hayotiylik kabi qonunlari, ya'ni talablari bor.

Kompozitsiya qoidalari deyilganda ijodkorning kompozitsiya ishlash jarayonida rioya qilishi lozim bo'lgan tamoyillari tushuniladi. Uning ritm, kompozitsion markaz, simmetriya, harakat, turg'unlik, planlik, paralellik turlari bor. Kompozitsiya qoidalari asarning ifodaviylik vositalari ma'nosini ham anglatadi.

Kompozitsiya uslublari ijodkorning o'z ijodi jarayonida qo'llaniladigan asar g'oyasini, uning badiiyligini, savodxonligini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbir va yo'l-yo'riqlar majmuasi. Uning fazoviylik, gorizontal, vertikal, diagonal kabi turlari bor.

Kompozitsiya vositalari ijodkor tomonidan asarni yaratishda qo'llaniladigan asosiy tasvirlash texnikasi. Ular qatoriga chiziq, ranglar, oq, qora dog'lar, kolorit kabilar kiradi. Kolorit lotin tilidan olingan bo'lib, "rang" (bo'yoq) ma'nosini anglatadi.

Konstruktivizm lotin tilidan olingan bo'lib, qurish (yasash) ma'nosini anglatadi. Bu oqimdagı rassomlarning ijodi tasviriy va amaliy san'atda idish-tovoqlar, uy jihozlari, kiyim-kechak, gazlama kabilarning yangi nusxalarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Mazkur oqim kitob grafikasi, teatr bezaklari sohasida ham o'z ifodasini topgan. Natijada an'anaviy teatr bezaklarining o'rnini harakatli jihozlar egaladi. Konstruktivizm oxir-oqibat dizayn san'atini keltirib chiqardi.

"Kompozitsiya qonunlari" mavzusiga doir toifalash jadvali

Kompozitsiya qoidalari	Kompozitsiya uslublari	Kompozitsiya vositalari

3-mashg'ulot. Meva va poliz ekinlarining urug'laridan planshet tayyorlash, gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash va loklash

Mavzu: Meva va poliz ekinlarining urug'laridan planshet tayyorlash, gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash va loklash

Maqsad: Talabalarni meva va poliz ekinlarining urug'laridan planshet tayyorlash, gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash va loklashga o'rgatish.

Vazifalar: 1. Talabalarni planshet tayyorlash usullari bilan tanishtirish.

2. Talabalarda meva va poliz ekinlarining urug'laridan planshet tayyorlash, gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash, loklash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

O'quv jarayonining mazmuni: Planshet tayyorlash usullari. Gullar kompozitsiyasi tuzish, bo'yash va loklash

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: amaliy, ijodiy ishga doir topshiriq.

Shakl: amaliy mashg'ulot, individual ish.

Vosita: planshet, vatman qog'ozi, meva va poliz ekinlarining urug'lari, qattiq karton, plastilin, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, qaychi, lok.

Usul: tushuntirish, ko'rsatib berish, bajarib berish.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.


Kutiladigan natijalar: O'qituvchi talabalarga planshet tayyorlash usullari haqida ma'lumot beradi (1-ilova) va talabalarining meva va poliz ekinlaridan planshet tayyorlashga o'rgatadi. Talabalarda gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash, loklash ko'nikma va malakalarini tarkib toptiradi (2-ilova).

Talaba: Planshet tayyorlash usullarini o'zlashtiradi. Meva va poliz ekinlaridan planshet tayyorlashni o'rganadilar. Gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash, loklashga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Planshet tayyorlash usullari

Tabiat – bu ajdodlardan qolgan meros emas, balki avlodlardan qarzga olingan boylikdir. Tabiatni o‘rganish rivojlanib borgani sari uning turli fanlar bilan bog‘liq ekanligi yanada yaqqolroq ko‘zga tashlandi.

Hamma san‘at turlarida mavjud bo‘lgani singari dizayn san‘atida ham kompozitsiya muvozanati mavjuddir. Dizaynda ham kompozitsion muvozanatga alohida e‘tibor berish kerak. Kompozitsiyada meva va poliz ekinlarining urug‘lari, karton, rangli bo‘yoqlar va qovoqdan foydalaniladi. Dastlab urug‘larni issiq suvda yuvib quritiladi. Kompozitsiya uchun qovoqdan ma‘lum bir qismini arralab ajratib, pichog‘ bilan ustki qismi tozalab olinadi. Ajratib olingan urug‘lar bir tekisda bo‘lishi darkor. Kompozitsiya yaratish uchun gullar fotosuratlaridan, ko‘rgazmali materiallardan foydalaniladi. Kompozitsiyaga moslab, quyidagi usulda planshet tayyorlanadi.



1.

2.

3.

4.

1-rasm. Planshet tayyorlash usullari: 1. DVP bo‘lagi. 2. Mato. 3. Rom. 4. Tayyor planshet.

Kompozitsiya o‘lchamiga qarab to‘rtta reykani to‘rtburchak shaklida birlashtiriladi. Xuddi shu o‘lchamda DVP qirqib olinadi va reykalardan tayyorlangan romni DVPga mixlanadi. Tayyor planshet ustiga mato (kanob yoki duxoba) yoki falga tortiladi. Tanlangan gul kompozitsiyasini yaratish uchun yasaladigan gulning kattaligiga qarab plastilinni planshet ustidagi mato yoki falgaga yopishtiriladi. So‘ng urug‘larni tartib bilan plastilinga qadab chiqiladi. Plastilin haykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma bo‘lib, u moy,



2-rasm. Meva urug'laridan tuzilgan gullar kompozitsiyasi.

loy kabi moddalardan tashkil topgan, xamirsimon ko'rinishda bo'ladi. Undan amaliy san'atning barcha turlarida keng foydalaniladi. Hosil qilingan gul shakllari akvarel yoki guashda bo'yaladi, gul barglari qattiq kartondan qirqib olinib pva yelimida yopishtirib chiqiladi va loklanadi.

Amaliy topshiriq.

Meva urug'laridan tuzilgan gullar kompozitsiyasini tuzish.

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) kompozitsiya tuzish uchun dastlab qog'ozga tasvirlamoqchi bo'lgan gul rasmini chizing va uni bo'yang;
- 2) so'ngra tayyor planshetni oling va unga mato yopishtiring hamda yasaliishi ko'zda tutilayotgan gulning hajmiga mos holda plastilin yopishtiring;
- 3) ekskursiya jarayoni hamda kundalik turmushda to'plangan meva va poliz ekinlaridan gullar kompozitsiyasiga moslarini tanlab oling;
- 4) tanlab olingan urug' donalarini tartib bilan terib chiqing.

4-mashg'ulot. Origami usulida "Oqqushlar" kompozitsiyasini yaratish

Mavzu: Origami usulida "Oqqushlar" kompozitsiyasini yaratish uchun qog'ozlardan geometrik (qo'shquloq) shakl yasash va "Oqqush" shaklini terish

Maqsad: Talabalarga qog'ozlardan geometrik shakl yasash haqida ma'lumot berish va undan foydalanishga doir ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

Vazifalar: 1. Mavzu bo'yicha talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. 2. Ularning ijodiy tasavvurlarini shakllantirish va ijodkorlikka o'rgatish.

3. Talabalarda estetik didni tarbiyalash.

O'quv jarayonining mazmuni: "Origami" usuli haqida ma'lumot.

2. Geometrik shakllar yasash usuli.

3. Qog'ozdan yasalgan qush shakli.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, ko'rsatish, amaliy, ijodiy ish.


Shakl: aralash mashg'ulot, individual ish.

Vosita: A4 formatdagi qog'ozlar, konselyariya pichog'i, chizg'ich, qushlarning fotosuratlari.

Nazorat shakli: o'z-o'zini nazorat, amaliy.


Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarga origami usuli haqida ma'lumot beradi va talabalarning mavzuni o'zlashtirishlariga erishadi. O'quvchilarni geometrik shakllar yasash va undan qush tasvirini hosil qilishga o'rgatadi.

Talaba: origami usuli haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Qog'ozdan geometrik shakllar yasash va qush tasvirini hosil qilishni o'rganadi.



Origami usuli haqida ma'lumot

Ijodiyotning sharti – bu hayotiy tajriba, zaruriy ko'nikma, malakalar yig'indisining mavjudligidir. Ijodiy faoliyat iqtidorning ajralmas qismi hisoblanib, bunda ruhlanish deb nomlangan psixologik holat alohida ahamiyat kasb etadi. Ruhlanish esa faoliyat mahsuldorligi ortishiga qaratilgan ijodiy lahzalardan iboratdir. Yapon xalq amaliy san'atida ruhiy tushkunlikka tushgan bolani ruhlantish maqsadida origami (qog'oz buklash) usulidan foydalanib, o'quvchiga ijodiy muhit yaratishidan iborat bo'lgan. Mazkur san'at turi hozirda keng tarqalgan bo'lib, bolalardagi turli xavotirlanish, stress va tushkunlik kayfiyatini yo'qotish imkonini beradi.



3-rasm. Geometrik shakl yasash usullari.

Qadim zamonlardan buyon har bir millatning, san'atkorning o'z ijod usuli bo'lgan. Bu usullarning o'ziga xosligi ularning ishlarida yorqin aks etadi. Usul – bu yuqori estetik darajadagi san'at asarlarining ajralmas qismi bo'lib, u o'zining ko'rinishi va ishlanish yo'llarining yagonaligi, takrorlanmasligi bilan e'tiborga loyiq. San'at asarini yaratish jarayonida paydo bo'lgan usullardan hozirgi kunda ham keng foydalaniladi. Origami usulida parranda shaklini yasashda ham ana shunday betakror usullardan foydalangan ma'qul. Ana shunday amaliy san'at usullaridan biri Yaponiyada mavjud bo'lgan origami usulidir.

Origami – bu qatlanadigan qog‘oz san‘atidir. Origami so‘zining kelib chiqishi. Agar katlanadigan qog‘oz san‘ati faqat yapon deb atashga imkon bermasa ham, “Orlanmi” so‘zi bizga ko‘tarilgan mamlakatdan kelgan. Bir so‘zli u ikki qismdan iborat, bu “ori”, bu “qoplash” va “Kami” – qog‘oz. Tadqiqotchilar ushbu so‘z paydo bo‘lganida aniq bahslasha olmaydi, ammo ehtimol, Yaponiyadagi Xitoydan taxminan 600 AQSHning 600 ga yaqin davri yetkazib berildi.

Origami turlari va texnologiyalari Oddiy Origami – bu faqat tog‘ va vodiyning burmalari qo‘llaniladi (biriktirilgan). Jon Smit tomonidan ishlab chiqilgan. Modulli origami – oddiy raqamlarning haddan tashqari ko‘pligi oddiy origami (modullari) qoidalariga muvofiq tartiblangan, bir-birlariga oddiy kiritish orqali ulanadi. Nam qatlanayotgan – esidzava tomonidan ishlab chiqilgan qatlanadigan usul texnikasi.

Origami turli kasb, yoshi va sog‘liq odamlarini yaxshi ko‘radi. Ular hatto ko‘r ham qila oladilar! Buning uchun bu qog‘oz, sabr va qat‘iyatlilik zarur.

Amaliy topshiriq

Qo‘shquloq shaklida buklangan qog‘oz bo‘laklardan parranda shaklini yasash.

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma:

1) sakson dona A4 formatidagi qog‘ozni konselyariya pichog‘ida teng 16 bo‘lakka bo‘lamiz va uchburshak shaklda buklaymiz;

2) uch burchak (qo‘shquloq) geometrik shaklida buklanib ip, yelimdan foydalanmagan holda bir biriga ulab boriladi;



4-rasm. Origami usulida yasalgan oqqush tasviri

3) avvaliga 20 dona geometrik shakllarni bir-biriga biriktiramiz, buni birinchi qator deb hisoblaymiz;

4) birinchi qatorga ikkinchi qator ulab boriladi. Ana shu tariqa keyingi qatorlarni ham hosil qilib, yasaladigan qush shakliga qarab qog'ozlarni teramiz;

5) parranda shakliga kelishi uchun 1200 dona qo'shquloq shaklidagi geometrik shakllarni 50 qator balandligiga terish lozim bo'ladi.

5-mashg'ulot. Chig'anoqdan gullar kompozitsiyasini tuzish

Maqsad: Talabalarni chig'anoqlardan gullar kompozitsiyasini tuzishga o'rgatish.

Vazifalar: Chig'anoqlarni ishchi holatiga keltirish va planshet tayyorlash. Chig'anoqdan gullar kompozitsiyasini tuzish. Kompozitsiyalarni planshetga joylashtirish, ishlov berish.

O'quv jarayonining mazmuni: Chig'anoqlardan gullar kompozitsiyasini tuzish qoidalari. Chig'anoqlardan gullar kompozitsiyasini yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, izohlash, ko'rsatish, namoyish etish, amaliy ish.





5-rasm. Chig'anoqlardan yasalgan gullar kompozitsiyasi hajmdagisi tanlanib gullar kompozitsiyasi.

Shakl: aralash mashg'ulot, ommaviy va individual ish.

Vosita: Planshet, qalin mato, vatman qog'ozi, qaychi, qumqog'oz, somon, chig'anoq, plastilin, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, konslyariya pichog'i, gullarning fotosuratlari, lok.

Nazorat shakli: o'z-o'zini nazorat, kuzatish, tuzatish.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi:** talabalarga tabiat in'omlaridan gul yasash haqida ma'lumot beradi. Chig'anoqlar va bug'doy, sholi somonlaridan gullar kompozitsiyasini tuzish yo'llarini ko'rsatib beradi. Kompozitsiyaga ishlov berish qoidalarini o'rgatadi.

Talaba: Chig'anoqlarni ishchi holatiga keltirish va planshet tayyorlashni o'zlashtiradilar. Chig'anoqdan gullar kompozitsiyasini tuzishni o'rganadilar. Kompozitsiyalarni planshetga joylashtirish va unga ishlov berish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar.

Chig'anoqlardan gullar kompozitsiyani tuzishga doir amaliy ish mazmuni



Insonda namoyon bo'layotgan dizaynerlik qobiliyati uning dizayner sifatida shakllanishiga kafolat bera olmaydi. Bo'lajak dizayner maqsadiga erishish, ijod qilishi uchun albatta bilim, ko'nikma va malaka zarur bo'ladi. Bu borada Abu Nasr Forobiyning kasb-hunar egallashga bag'ishlangan quyidagi fikrini eslab o'tish o'rinlidir: "Kimki eng go'zal va foydali narsani kashf etish fazilatiga ega bo'lsa kashf etgan narsasi chindan ham o'zining istagi va boshqa birovning istagiga muvofiq bo'lsa yoki uni boshqalarning xohishiga muvofiq

deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatan xayrli va foydalidir". Tabiiy materiallardan va tabiat in'omlaridan eng go'zal va foydali narsani kashf etish murakkab emas, buning uchun tabiiy materiallardan chig'anoq va tabiat in'omidan qovoq va somonning o'zi kifoya.

Gullar yasash uchun mayda shakldagi chig'anoqlarni qumli joylardan terib, yaxshilab qumidan tozalab bir qaynatib, quritib

gul yasaymiz. Yaproqlarini yasash uchun bug‘doy yoki sholi somondan foydalanamiz. Somonni ishchi holatiga keltirish, chig‘anoqqa nisbatan biroz murakkab bo‘lib, texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda bajarish lozim. Somonlar bir nechta bo‘g‘indan iborat bo‘lib, bo‘g‘inlar alohida ajratib, qaynoq suvga solib, biroz yumshagandan so‘ng tekislash maqsadida dazmollanadi. Dazmolda tekislangan somon bo‘laklarini qog‘ozga pva yelim yordamida biriktirib, og‘irroq biror jism bilan qotgunga qadar bostirib qo‘yemiz.



Tuzilgan kompozitsiyaga qarab planshet tanlanib, uning ustiga kanob yoki duxoba tortamiz. Planshetga kompozitsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri terilmaydi. Chig‘anoqdan gullar kompozitsiyasini alohida qog‘ozda bajarib, loklangandan so‘ng planshetga joylashtirib yopishtiriladi. Somondan yasaladigan barglarni ham shu tariqa hosil qilinadi. Kompozitsiya uchun chig‘anoqlardan gul, bug‘doy yoki sholi somondan gulning barglari yasaladi.

Mayda chig‘anoqlar bir xil tuziladi va metrik takror hosil qilinadi. Kompozitsiyadagi metrik takrorlanish, ritm – kompozitsiyadagi bir unurni bir necha marta davriy takrorlanishidir. Metrik takrorlanishning turli tumanligi har xil sharoitda chig‘anoqlarning shakli va orasidagi masofaning kattaligiga bog‘liq. Metrik takrorlanishni somon kompozitsiyasida ham ko‘rish mumkin. Metrik takrorlanish estetik ko‘rinishga shunday holatda keladiki, bizning ko‘zimiz chig‘anoqlarni alohida-alohida ko‘ra olmaydi. Bu holat unsurlarning soni kamida oltitadan oshgandagina hosil bo‘ladi.

Davriy takrorlanishning uch ko‘rinishi mavjud:

1. Oddiy metrik takrorlanish.
2. Murakkab metrik takrorlanish.
3. Juda murakkablashgan metrik takrorlanish.

Odiy metrik takrorlanish bitta unsur takrorlanishidan hosil bo‘ladi.

Murakkab metrik takrorlanish ikkita bir xil unsurlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Juda murakkab metrik takrorlanish bir necha unurni takrorlanishidan hosil bo‘ladi.

Har uchchala turda hamma unsurlarning takrorlanishini kompozitsiya tuzishda shunday ishlatish kerakki, unsurlar o‘zaro bog‘langan bo‘lsin va ular orasida qonuniyat borligi sezilib tursin. Aks holda tuzilgan kompozitsiyada tasodifiylik, tartibsizlik hosil bo‘ladi.

Kompozitsiyada metrik takrorlanish bo‘lsa, u juda qiziqarli ko‘rinadi.

Ularni biriktirishda pva yelimidan foydalaniladi. Chig‘anoq gullarning yaproqlariga o‘xshagani bois ulardan turli gullarni yasash mumkin. Yana bir xususiyati ularni turli bo‘yoqlardan foydalanib bo‘yash imkoniyati mavjud. Tuzgan gullar kompozitsiyasini akvarel yoki guashda bo‘yab laklagandan so‘ng somondan yaproqlar kesilib, unga qaychida shakl berib va laklab, planshetga pva yoki super yelimda yopishtiriladi.

6-mashg‘ulot. Talabani ijodiy ishi

Mavzu: Tabiat in‘omlaridan kompozitsiyalar yaratish.

Maqsad: Talabalarning mustaqil ravishda tabiat in‘omlaridan kompozitsiya yaratishlariga erishish.

Vazifalar: Talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo‘naltirish. Ularda ijodiy qiziqishni hosil qilish. Ijodiy ishni bajarish tartib-qoidalarini tushuntirish. O‘quvchilarning ijodiy ishini boshqarish.

O‘quv jarayonining mazmuni: Amaliy faoliyatda rang, shakl va mazmun mutanosibli. Ijodiy motivatsiyani hosil qilish. O‘quvchilarning ijodiy ishlari ko‘rgazmasi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: refleksiya, izlanishli, reproduktiv, tadqiqot-chilik.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi suvqovoqlar, vatman qog'ozi, arra, shrup, qumqog'oz, meva urug'lari, somon, chig'anoq, plastilin, A4 formatidagi qog'ozlar, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, gullar, ko'za va qushlar suratlari, lok.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo'naltiradi. Talabalarda ijodiy ishga qiziqish va motivatsiyani hosil qiladi. Talabalarining ijodiy ishini boshqaradi.

Talaba: ijodiy ishni bajarishga doir zaruriy ko'rsatmalarni egallaydi. Ijodiy ishni bajarish bosqichlarini o'zlashtiradi. Rang, shakl va mazmun mutanosibligiga erishish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Talabalarining ijodiy ishini tashkil etish metodikasi

So'nggi paytlarda ta'limning eng mashhur shiorlaridan biri aynan "talaba- bu to'ldirilishi kerak bo'lgan idish emas" qabilida ekani bejiz emas. Biz idishlarni to'ldirmaymiz, talabalar esa passiv bilim oluvchilar emas, balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchilaridir. Agar talaba o'rgangan bilimi haqida ongli tasavvurga ega bo'lmasa, ta'lim jarayoni amalga oshmaydi. Shuning uchun ham ko'zdan kechirish yoki refleksiya siklining eng muhim bosqichi sanaladi. Bu bosqichda talaba mashq jarayoni va uning natijalarini anglash, o'z tuyg'u va taassurotlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ijod insonning mehnatida paydo bo'lgan qobiliyati tufayli u voqelik materialidan yangi reallik yaratadi. Ijodda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, so'ng ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi. Ijodiy qobiliyatning dastlabki ko'rinishi zehndir. Zehn insonning qiziquvchanligida, intilishida namoyon bo'ladi. Qiziquvchanlik ijodiy faoliyatning rivojlantiruvchi omilidir. Har bir

ijodkor xayol surish, tasavvur qilish qobiliyatini o'zida rivojlantirishi lozim. Tasavvur narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarni eslash, shuningdek, ijodiy xayol surish jarayonidir. Tasavvur xotira shaklida ham namoyon bo'ladi. Tasavvurni yangi obrazlar bilan boyitish, fikrlash topshiriklarni yechishda muhim o'rin egallaydi. Bu o'rinda favquloddagi vaziyatlar, shart-sharoitlar voqelikka yangicha nigoh tashlash yoki tahlil etishni talab qilsa, ular yanada yorqinroq gavdalanadi. Tasavvur bilan tafakkurning hamkorlikdagi munosabatlari yangilik unsurlari paydo bo'lishini ijodiy xayol timsollari vujudga kelishini ta'minlab turadi. Tafakkur miyaning oliy mahsulidir. Tafakkur narsa va hodisalarning ichki va tashqi xususiyatlari, ularning bir-biri bilan bog'liq tomonlarini o'rganadi. Mantiqiy tafakkur shakllari tushuncha, mushohada, xulosadir.

Ijodiy qobiliyatlar faqat faoliyatda ro'yobga chiqadi, lekin shunda ham aynan shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi amri mahol faoliyat ko'rinishlaridagina aks etadi, xolos. Agar talaba tasavvur qilishga hali o'rganmagan bo'lsa, mabodo u amaliy faoliyatning malakalarini uddalay olmasa, uning dizayn san'atiga nisbatan qobiliyatlari yuzasidan mulohaza yuritish no'o'rin. Bularning barchasi bo'lg'usi dizaynning ish uslubi, usullari, rang, shakl va mazmun munosabatlarini qanchalik tez va oson o'zlashtirishida hamda borliqdagi go'zallikni idrok qilish, tasavvur etishida yuzaga keladi. Iste'dod (talant) – nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat; nihoyatda zo'r qobiliyat, biror sohada yuksak darajadagi layoqat. U idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, kuzatuvchanlik benihoya o'sganligida, voqea-hodisalarning yangi qirralarini, ularning zamiridagi murakkab aloqadorlikni kashf etishda ko'rinadi. Kishining bilimlarni o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni hal etishi, ijodi, o'z bilimi va malakalarini turmushga tatbiq qila bilishidan uning iste'dodini bilish mumkin. Iste'dod haqida turli nazariyalar mavjud. Ularga ko'ra, iste'dod xudo tomonidan beriladi; irsiyat orqali o'tadi; tarbiya orqali paydo qilinadi; insondagi tabiiy, tug'ma anatomik-fiziologik layoqat muayyan faoliyatda shakllanadi va rivojlanadi. Iste'dod insonning ma'lum faoliyati turida o'zini namoyon etadi. Bilim, ko'nikma, malaka, tajribalar iste'dod rivojida katta rol o'ynaydi. Qobiliyat

yoki layoqat o'sishiga ijtimoiy sharoit yaratilganda, uni tarbiyalab kamolga yetkazilgandagina iste'dod yuzaga chiqadi, uga shaxsning mehnatsevarligi ham qo'shilgan taqdirda yangilik va kashfiyot paydo bo'ladi. Tushunchaga berilgan ta'rifdan anglanadiki, iste'dod ijodiy xarakterga ega bo'lib, qobiliyatning negizida shakllanadi. Shaxsiy kuzatish va o'rganishlarning tasdiqlashicha, shaxs iste'dodi bevosita badiiy-ijodiy xususiyatlarni namoyon qiladigan faoliyat sohalari, yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Shaxs iste'dodi ham xuddi qobiliyat kabi faoliyatda ko'zga tashlanadi va faoliyat jarayonida yanada rivojlanib boradi. Faoliyatsizlik qobiliyat kabi iste'dodning rivojlanishi yo'lidagi to'siq sanaladi.

Iqtidorli shaxs, yana shuningdek, nodir qobiliyatlarga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday qobiliyatlar sirasida quyidagilar aks etadi: bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (masalan, eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va boshqalar); atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (jumladan, o'qituvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi har bir o'quvchi faoliyatini kuzata olish); o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarning berilishi); miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt «dam oladi», shuningdek, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik iqtidorli bolalarga xos xususiyat emas); nutqi va fantaziyasining boyligi (iqtidorli bolalarning aksariyati juda erta gapirishni o'rgangan, ularning nutqi kutilgandan ko'ra yuqori, shuningdek, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati nihoyatda kuchli); kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, jumladan, dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligiga yodlab olib, uni so'zma-so'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik kabilar alohida o'rin tutadi.

Ijodkorlik – ijod mahsulotini yaratishga qaratilgan harakat bo'lsa, kreativlik – ko'plab yangi, o'ziga xos, bir-biriga o'xshamagan, biror-bir muqobili bo'lmagan g'oyalarni ilgari surish sanaladi. Bir-birini taqozo etuvchi ushbu tushunchalar shaxs yangi, o'ziga xos g'oyalariga tayangan holda ijod mahsulotini yaratishga xizmat qiladi.

Daholik favqulotda kuchli aql, xotira va ijodiy iste'dod, bilim saviyasi, dunyoqarashiga ko'ra o'z davri darajasidan ilgari ketgan kishiga xos individual-psixologik xususiyat, "iste'dodning yuksak namunasi hisoblanadi". Ushbu individual-psixologik xususiyat maxsus ijtimoiy mezonlar va qadriyatlarining madaniy tizimi nuqtayi nazardan aniqlanadi. Kishilik tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, daho egasi batamom yangilik ijod etib, o'z sohasida original yo'nalish yaratadi.

Pedagogika, psixologiya va boshqa gumanitar fanlar (musiqa, tasviriy san'at, badiiy ijodiyot, adabiyot) sohalarida, shuningdek, "ijodkorlik" va "ijodiy qobiliyat" tushunchalari ham keng o'rganilgan.

Ijodkorlik iqtidorli shaxs tomonidan tashkil etilib, moddiy va ma'naviy qadriyatli mahsulotlarni yaratishga qaratilgan faoliyat hamda shaxsga xos individual-psixologik xususiyat sanaladi. Ijodiy xarakterga ega faoliyatning natijasi iqtidorli shaxs tomonidan "intuitiv (ichki sezgiga asoslangan) imkoniyatlar, tasavvur hamda shaxsning o'z-o'zini ijodiy faollashtirishga bo'lgan intilish"ga qaratilgan tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etish asosida ijodiy xarakterga ega mahsulotni yaratish sanaladi.

Shaxsning ijodkorligi, shuningdek, ijodiy qobiliyatga egaligi ijodiy jarayonda yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodiy jarayon o'z mohiyatiga ko'ra moddiy va ma'naviy sohalarida qadriyatlarini yaratish va bunyod etishni ifodalovchi jarayondir. Davomli fikrlash va uning natijalanganligi ijodiy jarayonning tayanch asosi hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat shaxsning hissiy kechinmalarni to'laqonli ifodalashni taqozo etuvchi ijodiy xarakterdagi u yoki bu faoliyatni bajarish ko'nikma, malakalarini hech bir qiyinchiliksiz o'zlashtirishi, ular yordamida faoliyatni tez, oson, sifatli va samarali bajarishini anglatuvchi o'ziga xos individual-psixologik xususiyati bo'lib, u musiqa, raqs, sirk, texnik ijodkorlik, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik, sport va boshqa sohalar bo'yicha namoyon bo'ladi.

Shaxsning ijodiy qobiliyatining turli faoliyat sohaları (masalan, musiqa, tasviriy san'at, sport, sirk, teatr va boshqa sohalar)da namoyon bo'lishi sababli turlicha tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, barcha faoliyat turlari bo'yicha namoyon bo'ladigan

ijodiy qobiliyat o'zaro o'xshash jihatlariga, o'zaro o'xshash tarkibiy elementlarga ega. Qaysi faoliyat sohasi va yo'nalishi bo'lishidan qat'i nazar shaxs ijodiy qobiliyati quyidagi tarkibiy elementlarga ega: ijodiy tasavvur, badiiy (ijodiy) ko'nikma-malaka, ijodiy tafakkur.

Ijodiy qobiliyatning muhim tarkibiy elementlaridan biri ijodiy tasavvurga ega bo'lishdir. "Ijodiy tasavvur – murakkablashib boruvchi amaliy, sezgi, intellektual va hissiy xarakterdagi fikriy tajribaga tayangan holda yangi yaxlit obrazlarni qurishga bo'lgan qobiliyat bo'lib, dizaynerning ijodiy tasavvuri mahsuli sifatida yangilik va o'ziga xoslikni tavsiflovchi ob'ektlarning loyihalangan obrazi, dizaynerlik g'oyalari, konsepsiyalar e'tirof etiladi". Obrazli qilib aytgan, ijodiy tasavvur fikrlash (o'ylash) jarayonida yaratiladigan ijod mahsulotining loyihasini yaratishga imkon beradi. Zero, yaxlit jarayonning tarkibiy asoslari va kechish tartibi, assotsiatsiyalarning navbat bilan joylashuvi, obrazning yaxlitlashuvi bevosita fikrlash vaqtida oydinlashadi.

Ijodiy qobiliyatga ega shaxsning xatti-harakatlarida badiiy ko'nikma va malaka ham o'zga tashlanadi. Ushbu sifat shaxsning tegishli faoliyat turi bo'yicha faoliyatni amaliy jihatdan tashkil etishga tayyorligini belgilaydi. Chunki uning negizida faoliyat jarayonida shaxs tomonidan amaliy tashkil etiladigan harakatlar (tarkibiy elementlar), ularning o'zaro muvofiqligi ko'zga tashlanadi. Xususan, dizaynerlik faoliyati misolida olinadigan bo'lsa, badiiy ko'nikma va malaka negizida quyidagi tarkibiy qismlar aks etadi: "ifodaviylikda grafik vosita (nuqta, chiziq, shtrix, dog'lardan foydalanish; rangshunoslik qonuniyatlari, usullari va qoidalarini qo'llash; badiiy shakllar (kontrast, nozik farqlar, ritm (sur'at), statika (statik holat), dinamika (jo'shqinlik) va boshqalar)dagi vositalarning o'zaro uyg'unligi asosida kompozitsiyani yaratish; badiiy-hissiy jihatdan baholash".

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – evolyutsion tarzda shaxs ijodiy qobiliyatini metodik jihatdan boshlang'ich (produktiv) darajadan yuqori (kreativ) darajaga o'sib o'tishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat jarayoni va natijasi.

Shaxsning ijodiy qobiliyatga ega bo'lishi uning borliqqa, tabiatga, ijtimoiy subyektlarga, ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy

qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirishga yordam beradi. Shu sababli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish asosiy ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Dizayn to'garaklari ularda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat mazmuni, ish tartibi va tamoyillariga ko'ra o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Iste'dodning belgilari – Iste'dodlikning o'ziga xos tafakkur tarzi, ba'zan atrofdagilar uchun tushunarli bo'lmagan, hayratomuz aqliy xususiyatlari, shaxs xislatlarining boshqachaligi atrofdagilarning diqqatini o'ziga tortadi, g'ayrioddiy xatti-harakatlaridan har xil nomga ega bo'ladi, ba'zan atrofdagilarga noqulayliklar uyg'otadilar, hattoki e'tirozlar paydo qiladilar, ulardan qochib yuradiganlar, nafratlanadiganlar ham bo'lishi mumkin. Shu sababli iste'dodli insonlarni ilmiy jihatdan mukammal o'rgangan mutaxassislar uning xilma-xil belgilarini ko'rsata olishgan. Quyida, misol tariqasida bir chet el muallifining iste'dodli kishilarga xos bir guruh belgilarni ajratib ko'rsatgan:

- . yuqori darajada shakllangan aqliy qobiliyatlar;
- . yuqori saviyada shakllangan ijodiy xususiyatlari (original, o'ziga xos tafakkur, nozik moslashuvchanlik, aniqlikka intilish va h.);
- . juda yaxshi xotira, o'tkir zehnilik (tez o'zlashtira olish qobiliyati);
- . yangiliklarga chanqoqlik, bilishga intilish, juda rivojlangan qiziquvchanlik;
- . yuqori darajada o'zini boshqara olish, o'z-o'zini anglash, barcha faoliyat turlarida shaxsiy javobgarlik his etish;
- . o'ziga ishonch, mustaqil mulohaza yurita olish va mustaqil qaror qabul qila olish;
- . o'ziga munosib (ba'zan yuqoriroq) ijobiy baho berish va h.

Talant ham qobiliyatlarga o'xshash ijodiyotda yuksak mahoratga, muvaffakiyatga erishish imkoniyati hisoblanib, ijodiy kutilmasi (yutuk) insonlarning ijtimoiy tarixiy turmush shart-sharoitlariga bog'liqdir. Jamiyatda talantli shaxslarga nisbatan muhtojlik sezilsa, bunday insonlarning kamol topishi uchun zarur obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar yaratilsa, bunday vaziyatda barkamol odamlarning shakllanishiga imkoniyat tug'iladi.

Layoqat esa qobiliyatning tabiiy zamini sifatida faoliyatda muhim rol o'ynaydi. Layoqat deb qobiliyatlar taraqqiy etishining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari aytiladi. Tug'ma layoqat jumlasiga nozik hid sezish, binobarin, bilish analizatorlarining alohida yuksak sezgirligi muvofiqdir. Alohida yakka shaxs ma'lum tabiiy layoqatga ega bo'lsa, u holda o'ziga taalluqli qobiliyatlarni rivojlantirish nisbatan yengil kechadi. Insonlarning kasbiy qobiliyati ular layoqatlarining rivojlanishi mahsulolidir. Layoqat ko'pqirrali psixik hodisa bo'lganligi tufayli faoliyat talablarining xususiyatiga bog'liq ravishda bir xil layoqatlar negizida har xil qobiliyatlar rivojlanishi kuzatiladi. Talabalarning ijodiy ishini tashkil etishda quyidagi jihatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: 1) mo'ljal olish: e'tiborni jalb etish va o'quvchilardan dastlabki g'oyalarni yig'ish; 2) aniqlik kiritish: o'quvchilarni ko'proq sharhlashga va g'oyalar berishga chorlash; 3) da'vat, rag'batlantirish: guruhda yoki individual ravishda aytilgan g'oyalarni inkor eta oladigan qandaydir ma'lumotlar, tasdiqlar, nuqtai nazarlar; 4) mulohaza yuritish: qo'shimcha ma'lumotlarni izlash; 5) yangi ma'lumotlarni mavjud g'oyalar bilan taqqoslash: qabul qilish kerakmi? Qabul qilmaslik kerakmi? Qo'shimcha ma'lumot kerakmi? 6) modifikatsiya, o'zgartirish: g'oyalar o'zgardimi? Fikrimiz o'zgardimi? Biror narsa o'rgandikmi, yangi bilim oldikmi? 7) yangi rag'batlar: hamma narsa yangi darajada takrorlanadi.

Ijodiy ish topshirig'i:

1. Quyidagi mavzulardan birini tanlab oling va mustaqil ravishda uni yarating: 1) meva urug'laridan tuzilgan gullar kompozitsiyasi; 2) qog'ozdan yasalgan qush shaklidagi kompozitsiya; 3) somon va chig'anoqdan tashkil topgan gullar kompozitsiyasi.
2. Ijodiy ishini bajarishda mashg'ulotlar jarayonida berilgan ko'rsatmalarga asoslaning.

7-mashg'ulot. Kvilling texnikasi yordamida gullar yasash

Mavzu: O'rganilganlarni takrorlash va mutahkamlash. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.

Maqsad: Talabalarni kompozitsiya yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rgatish hamda ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash.


Vazifalar: Talabalarni amaliy ishlarni baholash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltirish. O'quvchilarning dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini tekshirish va baholash.

O'quv jarayonining mazmuni: Amaliy ishlarni baholashga doir "Kichik guruh – qayta aloqa testi". Talabalarning bilimlarini nazorat qilishga doir yozma ish.

1 Biz gullar uchun kvilling tafsilotlarini aylantira boshlaymiz.



1 Rulo diametri 19 mm bo'lishi kerak, chiziqning uchini elim bilan mahkamlashni unutmang.



O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: suhbat, mu-nozara, namoyish etish, izohlash, da-lillar keltirish.

Shakl: talabalarning BKMLarini tekshirish va baholash darsi, individ-u-al va kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: amaliy ish ko'rgazmasi, yozma ish variantlari

Nazorat: og'zaki va yozma.

Kutiladigan natijalar: O'qitu-vchi: talabalarni amaliy ishlarni ba-holash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltiradi. Talabalar-n-ing dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini tekshi-radi va baholaydi.

Talaba: kompozitsiya yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rganishadi.

Dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

Kvilling san'ati haqida ma'lumot

Kvilling texnikasi yordamida qanday qilib gullar yasash mumkin. Atirgullar.

Sizga har doimgidek kvilling qog'oz, o'lchagich, yelim, shuningdek, mum qog'oz va himoya pinlari kerak bo'ladi.

1. Oldindan tayyorlangan elementdan «tomchi» shaklini yarating. Bu sizning kurtakingiz bo'ladi.

2. Gul yaratish uchun 5 ta bargni yopishtiring.

Endi qog'oz gulining ikkinchi qatlami uchun yana bir xil gul yasang, lekin barglarini kichraytiring. Bunga erishish uchun ishlov beriladigan qismni juda ko'p ochmang.

4. Sariq yoki yashil qog'ozdan lenta tayyorlang va rasmda ko'rsatilgandek akkordeonni qatlang.

5. Qog'ozga dastani yopishtiring.

6. Kichkina qog'ozni yarmiga qatang va kvilling vositasi yordamida o'ng uchini o'ngga va chapni chapga burang.

7. Faqat hamma narsani qog'ozga qatlang va bitta guldastaga yopishtirish qoladi.

Kvilling rasmlari go'zalligi bilan g'ayrioddiy. Master-klass yangi boshlanuvchilar uchun maxsus tanlangan. Siz nafaqat tekis, balki uch o'lchovli panellarni qanday qilishni o'rganasiz. Oxirgi versiyada kvilling gullari dekorativ guldasta sifatida ishlatilishi mumkin.

Kvilling – bu qog'ozli chiziqlarni ma'lum elementlarga burish, ulardan rasmlar «yig'ilgan». Ushbu qo'l san'ati uchun tor chiziqlar bilan kesilgan maxsus qog'oz sotiladi. U zichlikning boshqa turlaridan farq qiladi, bu elementlarning shakl barqarorligiga ta'sir qiladi. Maxsus o'rnini tish pichog'i va turli doiralari bo'lgan o'lchagich bilan almashtirish mumkin.

Yangi boshlanuvchilar uchun kvilling rasmlarini yaratish uchun qanday elementlardan foydalaniladi?

«Qattiq rulon». Ipnning chetini dumaloq qiling, uni tish pichog'iga soling, to'p bilan shamollang. Boshqa uchini PVA ga yopishtiring va

uni tish pichog'idan olib tashlang. Gullarning tomirlari ana shunday rulondan yasalgan. Va agar siz «konus» hosil qilib, uning o'rtasini itarsangiz, siz berry olishingiz mumkin.

«Bepul rulon». Shuningdek, qog'ozni tish pichoq bilan siljiting. Olingan rulonni olib tashlang va uni o'lchagich doirasiga qo'ying. Shunday qilib, element aylana hajmini oladi. Rolikning boshqa uchini yopishtiring. Undan siz turli xil shakllarni shakllantirasiz.

«Curl». Ipni yarmiga qatlang. Har bir chetidan aylantiring. Oxirini yopishtiring.

Bepul rulondan olingan elementlar

Biz kvilling ishlab chiqariladigan asosiy elementlarni ko'rib chiqishni davom ettirmoqdamiz.

Kvilling sirlari

Har bir usta elementlar, naqshlar va shakllar yasashning o'ziga xos sirlariga ega. Ba'zi tikuvchilar igna bilan chiziqlarni to'qishda ko'p qavatli gul hosil qilish uchun taroqdan foydalanadilar yoki naqshga ko'ra ignalarni ko'pikka yopishtiradilar va chiziqlar bilan to'qadilar, qiziqarli egilishlar va naqshlar yaratadilar. Shu tarzda siz atirgul, uzum, chinor kabi «zigzag» barglarini yaratishingiz mumkin.

Turli xil rangdagi oddiy barglardan g'ayrioddiy kvilling rasmlarini yasashingiz mumkin. Qalam bilan o't, magistral, toj chegaralarini chizib oling va varaqni «barglar», «buruqlar», «ko'zlar», «barglar» bilan to'ldiring.

Agar siz bir nechta ranglarni bitta elementga birlashtirsangiz, unda siz yorqinroq chizilgan rasmni chizishingiz mumkin. Soyalarni aralashtirish rasmni yanada aniqroq qiladi. Elementlarni shaklda ushlab turish uchun siz ularni chekka atrofida chiziq bilan yopishtirishingiz mumkin. Ushbu texnika sizga kerakli burilishni tuzatishga imkon beradi. Ko'plab ustalar shu tarzda kapalaklar yasaydilar.

Yam-yashil gullarni qog'oz plastmassadan tayyorlangan buyumlardan olish mumkin. Masalan, keng chiziq «mahkam rulon» ga o'ralgan bo'lib, uning bir chekkasi ingichka barglarga bo'linadi. Oxiri yopishtiriladi, ishlov beriladigan qism olib tashlanadi va barglari to'g'rilanadi.

kvilling rasmlari: lilac master-klass

Uch o'lchovli tasvir birinchi qarashda e'tiborni tortadi.

Volumetrik ish bir necha qatlamlardan foydalangan holda hurda materiallaridan yaratilishi mumkin. Lilac yasash bo'yicha mahorat darsi bilan tanishib chiqamiz.

Barglarni ko'z elementi bilan yasash uchun lilac qog'ozidan foydalaning. Uch va to'rt qismdan gullardagi qismni yopishtiring. Ikkinchi yarmi uchastkani tuzatish uchun yaxshi. Lilakning bir nechta soyasidan foydalaning va o'rtasini sariq boncuklarla bezang. Bu gulni yanada rang-barang qiladi.

Kartonga lilacning kichik va katta choyshablarini chizish. Yarim oylar yasang (ikkala tomonning «ko'zini» yarim doira shaklida egib oling). Elementlarni shablona joylashtiring, ularni bir-biriga ulang. Choyshabning chetlarini magistralga tushadigan chiziq bilan yopishtiring.

Lilac novdalari joylashgan joyni belgilang. Shish yoki simga yopishtiruvchi. Avval pastki qavat ustida ishlang, so'ngra oldingi qismni to'ldiring. Agar siz kompozitsiya yaratmoqchi bo'lsangiz, u holda fon rasmini torting yoki vazani yopishtiring. Gullarni kichkina qilishga harakat qiling, shunda lilac haqiqiyga o'xshaydi.

«Tabiiy» kvillingli rasmlar rangli bosim yordamida yaratilgan. Siz tugagan master-klass fotosuratini quyida ko'rishingiz mumkin.

Ranglarni o'ynash

Bosma sizga nafaqat panelni, balki haqiqiy rasmni yaratishga imkon beradi. Agar chizishingiz mumkin bo'lsa, fonni o'zingiz

1 Bunday 5 tafsilotlarni tayyorlaymiz.



1 Endi tafsilotlarni ko'zning shakliga berishingiz kerak.



qilishingiz mumkin. Surat bo'yicha qog'ozni tanlang, keyin fitna tabiiy ranglarni to'liq aks ettiradi. Masalan, siz kuzgi tog' kulini tasvirlamoqchisiz deylik. Yashil, botqoq, jigarrang, sariq, qizil, to'q sariq ranglarda qog'oz sotib oling.

Qorong'i shakllarni fonda yoki soyada joylashtiring. Oldingizda yengil soyalarni joylashtiring, agar tafsilotlarda oq nuqta bo'lsa, biz quyidagi texnikalardan biriga murojaat qilishni maslahat beramiz (shuncha kvilling rasmlari yaratilgan). Master-klass muammoni hal qilishning uchta variantini nazarda tutadi.

Shaklni bir nechta elementlardan ulang. Masalan, rovon bargini turli xil rangdagi yettita «ko'z» tasma-siga (shoxiga) yopishtiring.

Turli ranglardan element yarating. Masalan, xuddi shu narsa butunlay yashil qog'ozdan yasalgan va faqat ba'zi elementlarning o'rtasida engil soyalar mavjud.

Butun rasm oq qog'ozdan yasalgan, so'ngra bo'yoqlar bilan bo'yalgan.

Rhinestones va microbeads ba'zi elementlarga yopishtirilgan. Volumetrik qismlarni (gullar, barglar, hayvonlar) shaklda ushlab turish uchun siz shaffof yopishqoqni noto'g'ri tomonga surishingiz yoki yuqori qatlamni maxsus yopishtiruvchi bo'yoq bilan bo'yashingiz mumkin.

Kvilling rasmlari: yangi boshlanuvchilar uchun master-klass

Vaza va gullarning o'rnini belgilash uchun qalamdan foydalaning.

Ko'pikdan vaza shaklini kesib oling, mato bilan yoping, ortiqcha oro bermay bezang.

Shoxchalar uchun sizga «ko'zlar» va «barg» elementlaridan barglar, shuningdek, «qattiq rulon» yordamida tayyorlangan «konuslardan» gullar kerak.

Gullarni lupin singari qavariq tomoni bilan poyaga yopishtiring.

Barglarni joylashtiring.

Ko'pikka kiritadigan bir nechta uzun novdalar yarating. Bu gullar nafaqat kvilling rasmlarini (ko'k lupinli fotosurat) emas, balki yam-yashil guldasta qiladi.

Qisqa novdalarni yopishtiring va tepasida barglari bo'lgan gullarni «barpo eting».

Keyin tugagan gullarni ko'pikli taglikka soling. Ishni ramkaga qo'ying.

Kvilling rasmlari shunchalik sodda tarzda tayyorlanadi. Ushbu reja asosida deyarli har qanday gullar yasash mumkin. Masalan, konus shaklidagi sepalni dastani ustiga yopishtiring. Unga barglarni doira shaklida joylashtiring va o'rtasini «mahkam rulon» bilan bezang.

Konuslardan panellar yoki postkartalar uchun g'oyalar

Uzumni «qavariq rulonlardan» tayyorlang (mahkam to'pni bir oz suring, piyola shaklini hosil qiling). Mevalarni bir necha qatlamlarga yopishtiring. Spiraldan filial va antennalar hosil qiling. Barglar oddiygina qog'ozdan kesiladi, tomirlar joylarida eziladi.

Acorns ikki konusdan qilingan. Ulardan biri mevani hosil qiladi, perikarp esa «kalika» dan tayyorlanadi. Tel novdalar ichkariga yopishtirilgan. Barglar eman bargi naqshidan foydalanib yig'ib olinadi. Ya'ni, siz «ko'zlar» ni bir-biriga bog'lab qo'yasiz va choyshab shaklini o'rnatib, qirralarni qog'ozli chiziq bilan yopishtirasiz.

Atirgul, shuningdek, ikkita uzun konusdan qilingan. Bir uchidan ingichka simli yoki chiziqlar soling, ikkinchisidan dastani biriktiring. Barglarni qog'ozdan kesib oling yoki ularni «ko'zlar» dan hosil qiling.

Sharsimon gullar uzun konuslardan yig'iladi. Birinchi qatorni doira ichida yopishtiring, ustiga yangi qatlam qo'ying. To'p hosil bo'lganda, o'rtasi konveksga aylanadi. Shaklning yarmini tashkil etadigan so'nggi qatorga konuslarni joylashtiring. Yarimferalardan siz gul kvillingli rasmlarni yaratasisiz. Butun to'pni shakllantirish bo'yicha master-klass takrorlanishi kerak. Ya'ni yarim sharni aylantirib, konusning qatorlariga yopishtiring.

Kvilling bir xil tasvirni har xil usulda taqdim etilishi bilan qulaydir. Masalan, tol oq «ko'zlar» dan va botgan botqoq barglaridan yig'iladi. Filial qog'ozli chiziq bilan ifodalanadi. Yoki konuslar bilan tajriba o'tkazishingiz va hajmli «quyonchalar» qurishingiz mumkin.

Bugungi kunda ko'pchilik nafaqat sevimli mashg'ulotlarini qidirmoqdalar, balki o'z sohalarida haqiqiy mutaxassis bo'lishga intilishadi. Ushbu usul qog'oz bilan kivrma bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ko'p rangli chiziqlarning kombinatsiyasi sizga turli mavzulardagi to'liq rasmlarni yaratishga imkon beradi: landshaftlar, portretlar, gullar va hayvonlarning tasvirlari. Kvilling tasavvur bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Bo'shliqlarni maxsus tarzda burish orqali

siz eng jasur g'oyalarni o'zida mujassam etishingiz mumkin. Va siz tayyor sxemalardan foydalanishingiz mumkin. Kvilling: rasmlar, gullar, guldastalar - har qanday xonani g'ayrioddiy tarzda bezash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan san'at asarlarini yaratish.

Kvilling tarixi juda chalkash. Ba'zi manbalarda kvillingning tug'ilgan joyi Xitoy bo'lib, u erda qog'oz ixtiro qilingan. Ba'zi manbalarda katolik cherkovlarining rohibalari 14-15 asrlarda qog'oz chiziqlardan rasm va postcartalarni yasay boshlaganlar.

Bunday sevimli mashg'ulot bilan shug'ullanish huquqi dunyoviy vakillar bilan bo'lgan, chunki qog'oz qimmatga tushgan va oddiy odamlar uchun mavjud emas edi.

Turli mamlakatlardagi mahsulotlar va ularning turlari o'ziga xos xususiyat va xususiyatlarga ega. Bunga fuqarolarning madaniyati va mentaliteti ta'sir qiladi. Masalan, yevropaliklar oddiy shakllar va syujetlardan foydalanadilar, xitoylik ustalar esa ulkan buyumning har bir detalida zahmat bilan ishlaydi. Turli mavzular va texnikalar har bir ustaga noyob durdonalarni yaratishga imkon beradi.

G'oyalarni hayotga tatbiq etish vositalari:

Qog'oz chiziqlarining turli xil kengligi. Uch, to'rt, olti va o'n minimetr. Qog'oz sifati yuqori bo'lishi kerak. Birinchidan, u bilan ishlash qulay bo'ladi, ikkinchidan, bu ishning ko'rinishiga ta'sir qiladi.

Lentalarni burish uchun moslama. Buning uchun siz qulay o'lchamdagi yog'och tayoqchaga yopishtirilgan tishpik, igna yoki ko'zsiz ignadan foydalanishingiz mumkin.

Forseps. U bilan ishlash qulay - barmoqlar qog'ozga yopishmaydi. Cimbizin tekis uchlari bo'lsa yaxshi bo'ladi.

Qaychi. Ularning o'tkir va ingichka bo'lishi muhimdir.

Yelim. Cho'tkasi bilan yelimdan foydalanish qulay.

Karton. Bu rasm uchun asos sifatida ishlatiladi.

Muvaffaqiyatli bajarilishining butun siri aniqlikda. Ushbu turdagi igna ishchanligi va mehnatsevarligini talab qiladi. Yaratilish jarayonida asabiylashmaslik yoki tashvishlanmaslik juda muhimdir. Harakatlar muvozanatli, ishonchli va xotirjam bo'lishi kerak.

Gulli kvilling: yangi boshlanuvchilar uchun rasmlar, gullar va guldastalar

Bugungi kunda ko'plab tikuvchi ayollar kvilling bilan shug'ullanmoqdalar. Ushbu turdagi igna ishi post-kartalarni, kitoblarni, albomlarni, devorlarni bezash va rasmlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Ijrochi asar chiroyli va professional ko'rinishga ega bo'lishi uchun ko'p harakat qilishi kerak.

Kvilling texnikasi yordamida tayyorlangan gullarning rasmlari na faqat go'zal, balki juda aniq ko'rinishga ega.

Rang paneli juda boshqacha bo'lishi mumkin. U papatyalar, romashka yoki meni unutib qo'ygan narsalarning tasvirlari bilan to'ldirilishi mumkin. Va ular gerberalar, lilacs, astra, peoni kabi go'zal gullarni tasvirlashlari mumkin. Siz tayyor guldastalarni shariklar, uchqunlar va boshqa dekorativ elementlar bilan bezashingiz mumkin.

Gullar rasmini yaratish bo'yicha master-klass:

Ular uchun siz o'rtani qilishingiz kerak. Buning uchun qog'ozni santimetr kengligida oling, chekka bilan kesing. Yadro uchun siz pushti va och yashil rangni tanlashingiz mumkin.

Gullarni tashkil etadigan segmentlar erkin spiral texnikasi yordamida o'ralgan. Bu sizga kerakli gullarni yaratadi.

Qog'ozning to'q sariq rangli elementlari siqib, ularni «barg» shaklida shakllantiradi. Uchala qism ham taglikda bir-biriga yopishtiriladi.

Pushti spirallarga tomchilar shakli beriladi va ikkitasi to'q sariq rangli «barglar» orasiga yopishtiriladi. Va yana ikkita tomchi apelsin «barglari» ustiga yopishtirilgan.

Barglari bir-biriga yopishtiriladi. Har bir yaproq barglari to'q sariq chiziqlar bilan yopishtirilganidan keyin kurtak konus

1 Gulni yopishtiring.



1 Ushbu gullardan 5tasini yig'amiz.



paydo bo'lguncha cho'zilgan rulonni hosil qilish orqali hosil bo'ladi. Kurtakning o'rtasi yelim bilan yopilgan va barglari u yerga yopishtirilgan.

Barglar ko'zning shaklini berib, yashil chiziqlardan yaratilgan.

Silikon yelim butun tarkibni yig'ish uchun ishlatiladi. Agar so'ralsa, rasm dekorativ elementlar bilan to'ldiriladi. Buning uchun Somon va boncuklar ishlatiladi.

Loop texnikasi: gullar kvillingi rasmlar

Ushbu uslub igna ayollari orasida juda mashhur. Rasmlar chiziqlar yordamidayaratilgan bo'lib, ular halqalarga shakllantiriladi. Ichaklarni yaratish uchun pinalar yoki taroq ishlatiladi - xohlagan narsangiz. Ushbu texnik qiyin emas, lekin hatto yangi boshlanuvchilarga ham haqiqiy san'at asarlarini yaratishga imkon beradi.

Loop texnikasi yordamida siz gullar, kapalaklar, hayvonlar va portretlar tasvirlangan panellarni yaratishingiz mumkin.

Gullar bilan rasm qilish uchun siz ikki tomonlama rangli qog'oz tayyorlashingiz kerak, undan qog'oz kesiklari kesiladi. Bundan tashqari, siz tayyor to'plamni sotib olishingiz mumkin. Elementlarni yopishtirish uchun oddiy PVA yelim ishlatiladi. Tish pichog'i yoki avl, taroq ishlaydigan vosita vazifasini bajaradi.

Men unutkanlar rasmini yaratish bo'yicha master-klass:

Yashil, moviy va sariq chiziqlardan foydalanish yaxshidir.

Moviy qog'oz taroq bilan o'ralgan. Buning uchun qog'ozni taroq tishlari orasidan o'tkazish kerak. Bu ilmoqlarni yaratadi.

Siz ulanishingiz kerak, keyin qog'ozning ikki tomonini yopishtiring. Looplar shakllanishi kerak. Qolgan lenta gulbargga o'ralgan va elim bilan mahkamlangan. Barcha elementlar shu tarzda yaratiladi.

Sariq chiziqlar tish spiraliga qattiq spiral hosil bo'lguncha o'raladi. Uni yelim bilan mahkamlash kerak. Bu gulning yuragi bo'ladi.

Barglar barglarni yaratish printsiptiga muvofiq yaratiladi.

Gul barglari elim bilan bog'langan. Keyin yadro yopishtiriladi.

Barcha kompozitsion yelim bilan karton asosga yopishtirilgan. Buning uchun barcha barglarni yopishtiring va barcha tugagan qismlarni ulang. Rasm yaratish uchun ko'p vaqt talab qilinmaydi.

Oddiy kvilling: gullarni bo'yash

Gullarni bo'yash uchun kompozitsiya tekis bo'lishi mumkin yoki u hajmga ega bo'lishi mumkin. Yangi boshchilar uchun oddiy sxemalardan (tabiat, gullar, qishki daraxtlar) foydalanish yaxshiroqdir. Materiallar va materiallarni ixtisoslashgan do'konlardan sotib olish mumkin.

Kvilling – bu qog'ozli chiziqlarni ma'lum elementlarga burish, ulardan rasmlar «yig'ish». Ushbu qo'l san'ati uchun tor chiziqlar bilan kesilgan maxsus qog'oz sotiladi. U zichlikning boshqa turlaridan farq qiladi, bu elementlarning shakl barqarorligiga ta'sir qiladi. Maxsus o'rnini tish pichog'i va turli doiralari bo'lgan o'lchagich bilan almashtirish mumkin.

Yangi boshlanuvchilar uchun kvilling rasmlarini yaratish uchun qanday elementlardan foydalaniladi?

«Qattiq rulon». Ipning chetini dumaloq qiling, uni tish pichog'iga soling, to'p bilan shamollang. Boshqa uchini PVA ga yopishtiring va uni tish pichog'idan olib tashlang. Gullarning tomirlari ana shunday rulondan yasalgan. Va agar siz «konus» hosil qilib, uning o'rtasini itarsangiz, siz berry olishingiz mumkin.

«Bepul rulon». Shuningdek, qog'ozni tish pichoq bilan siljiting. Olingan rulonni olib tashlang va uni o'lchagich doirasiga qo'ying. Shunday qilib, element aylana hajmini oladi. Rolikning boshqa uchini yopishtiring. Undan siz turli xil shakllarni hosil qilasisiz.

«Curl». Ipni yarmiga qatlang. Har bir chetidan aylantiring. Oxirini yopishtiring.

Har bir usta elementlar, naqshlar va shakllar yasashning o'ziga xos sirlariga ega. Ba'zi bir tikuvchi ayollar chiziqlarni to'qishda ko'p qavatli gul hosil qilish uchun taroqdan foydalanadilar yoki naqshga ko'ra ignalarni ko'pikka yopishtiradilar va chiziqlar bilan to'qadilar, qiziqarli egilishlar va naqshlar yaratadilar. Shu tarzda siz atirgul, uzum, chinor kabi «zigzag» barglarini yaratishingiz mumkin.

Turli xil rangdagi oddiy barglardan g'ayrioddiy kvilling rasmlarini yasashingiz mumkin. Qalam bilan o't, magistral, toj chegaralarini chizib oling va varaqni «barglar», «buruqlar», «ko'zlar», «barglar» bilan to'ldiring.

Agar siz bir nechta ranglarni bitta elementga birlashtirsangiz, unda siz yorqinroq chizilgan rasmni chizishingiz mumkin.

Soyalarni aralashtirish rasmni yanada aniqroq qiladi. Elementlarni shaklda ushlab turish uchun siz ularni chekka atrofida chiziq bilan yopishtirishingiz mumkin. Ushbu texnika sizga kerakli burilishni tuzatishga imkon beradi. Ko'plab ustalar shu tarzda kapalaklar yasaydilar,

Yam-yashil gullarni qog'oz plastmassadan tayyorlangan buyumlardan olish mumkin. Masalan, keng chiziq «mahkam rulon» ga o'ralgan bo'lib, uning bir chekkasi ingichka barglarga bo'linadi.



Oxiri yopishtiriladi, ishlov beriladigan qism olib tashlanadi va barglari to'g'rilanadi.

Barglarni ko'z elementi bilan yasash uchun lilac qog'ozidan foydalaning. Uch va to'rt qismdan gullardagi qismni yopishtiring. Lilakning bir nechta soyasidan foydalaning va o'rtasini sariq shariklar bilan bezang. Bu gulni yanada rang-barang qiladi.

Kartonga lilakning kichik va katta choyshablarini chizish. Yarim oylar yasang (ikkala tomonning «ko'zini» yarim doira shaklida egib oling). Elementlarni shablona joylashtiring, ularni bir-biriga ulang. Choyshabning chetlarini magistralga tushadigan chiziq bilan yopishtiring.

Lilak novdalari joylashgan joyni belgilang. Shish yoki simga yopishtiruvchi. Avval pastki qavat ustida ishlang, so'ngra oldingi qismni to'ldiring. Agar siz kompozitsiya yaratmoqchi bo'lsangiz, u holda fon rasmini torting yoki vazani yopishtiring. Gullarni kichkina qilishga harakat qiling, shunda lilac haqiqiyga o'xshaydi.

«Tabiiy» kvillingli rasmlar rangli bosim yordamida yaratilgan. Siz tugagan master-klass fotosuratini quyida ko'rishingiz mumkin.

Vaza va gullarning o'rnini belgilash uchun qalamdan foydalaning.

Ko'pkidan vaza shaklini kesib oling, mato bilan yoping, ortiqcha oro bermay bezang.

Shoxchalar uchun sizga «ko'zlar» va «barg» elementlaridan barglar, shuningdek, «qattiq rulon» yordamida tayyorlangan «konuslardan» gullar kerak.

Gullarni lupin singari qavariq tomoni bilan poyaga yopishtiring. Barglarni joylashtiring.

Ko'pikka kiritadigan bir nechta uzun novdalar yarating. Bu gullar nafaqat kvilling rasmlarini (ko'k lupinli fotosurat) emas, balki yam-yashil guldasta qiladi.

Qisqa novdalarni yopishtiring va tepasida barglari bo'lgan gullarni «barpo eting».

Keyin tugagan gullarni ko'pikli taglikka soling. Ishni ramkaga qo'ying.

Kvilling rasmlari shunchalik sodda tarzda tayyorlanadi. Ushbu reja asosida deyarli har qanday gullar yasash mumkin. Masalan, konus shaklidagi sepalni dastani ustiga yopishtiring. Unga barglarni doira shaklida joylashtiring va o'rtasini «mahkam rulon» bilan bezang.

8-mashg'ulot. Miniatyura haqida umumiy ma'lumot. Miniatyura elementlari. Tabiat in'omlariga miniatyura ishlash, bo'yash va loklash

Mavzu: Miniatyura haqida umumiy ma'lumot. Miniatyura elementlari. Tabiat in'omlariga miniatyura ishlash bo'yash va loklash.

Maqsad: Talabalarga miniatyura haqida ma'lumot berish va ularni tabiat in'omlariga miniatyura ishlashga o'rgatish.

Vazifalar: 1. Tabiiy materiallar va tabiat in'omlari bilan ishlash ko'nikmasini hosil qilish.

2. Dekorativ qovoqlarni badiiy bezash, kompozitsiya yaratish, miniatyura ishlash malakalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonining mazmuni: Miniatyura san'atining paydo bo'lishi. Miniatyura san'atining o'ziga xosliklari. Tabiat in'omlariga miniatyura ishlash shakllari.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:



Metod va usullar: tushuntirish, bajarib ko'rsatish, suhbat, erkin yozish, amaliy, mustaqil ish.

Shakl: amaliy mashg'ulot, individual ish.

Vosita: planshet, vatman qog'ozi, mato, jilatin, shakl beruvchi temir asboblari, paxta, ip, pva va super yelimi, rangli bo'yoqlar, gullar va barglarning foto- suratlarini, lak.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar:

O'qituvchi: miniatyura unsurlarini tabiatdan qayta ishlab olinishi,

miniatyura kompozitsiyalarini hosil qilish, kompozitsiyada g'oya, mazmuni uyg'unlashtirish, simmetriya va assimetriya, marom, stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, nisbat, harakat va kompozitsiya qonuniyatlari yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Talaba: tabiiy materiallar va tabiat in'omlari bilan ishlash ko'nikmasini egallaydi. Dekorativ qovoqlarni badiiy bezash, kompozitsiya yaratish, miniatyura ishlash malakalari rivojlantiriladi.

“Miniatyura san’ati haqida nimalarni bilaman?” mavzusida erkin yozish topshirig’i

Topshiriq: “Miniatyura san’ati haqida nimalarni bilaman?” mavzusida besh daqiqa mobaynida o'z fikrlaringizni daftarga yozing. O'ylagan fikrlaringizni hech qanday to'xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko'rsatma:

1. O'quvchilardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.

2. Besh daqiqa tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq bir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar

inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.

3. O'quvchilardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt o'quvchi o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan o'quvchilardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lsa bildirishlarini so'raydi.

Miniatyura san'ati tarixidan

Ma'lumki, o'rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san'at sohasida uyg'onish ro'y berdi. Ayniqsa, tasviriy san'atning mo'jaz rangtasvir, ya'ni miniatyura deb nomlanuvchi turi, kitob grafikasi bilan bog'liq holda keng rivoj topdi. Natijada Arab (Bog'dod), Eron (Tabriz), Isfahon, Sheroz, Turk, Movarounnahr, Hindiston, Ozarbayjon, Hirot, Buxoro, Samarqand mo'jaz rangtasvir maktablari paydo bo'ldi. Bu maktablarning boshida Mirak Naqqosh, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Ustod

Gung, Abdulloh ibn Fazil, Ota Mirok, Kesu, Ustod Shamsiddin, Abdul Boqi Tabriziy kabi bir qator rassomlar turar edilar. Hirotlik musavvirlar asarlarida umumiylikdan ko'ra o'ziga xoslik ko'p bo'lib, ularda odam tasviri zaminida bog'lar, tiniq suvlar, ko'l, hovuz va koshinli binolar tasvirlanadi. Bog'dodlik musavvirlar kitobga rasm ishlaganlar. Tabriz maktabi vakllaridan biri Qosim Ali "Alisher Navoiy va Sul-ton Muhammad Mirzo" nomli asari bilan mashhurdir. Yuqorida ta'kidlagan miniatyura maktablari yo'nalishi va rang berish usullari bilan farq qiladi.



6-rasm. Tabiat in'omlariga ishlangan miniatyuralar.

Tabiat in'omlariga miniatyura ishlashga doir amaliy topshiriq

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatmalar:

1) tabiat in'omlariga miniatyura kompozitsiyalarini ishlashda tabiat in'omining aniq o'lchamini olib, qog'oz tanlab mavzu asosida kompozitsiyaning xomaki chizmasini bajaring;

2) kompozitsiya xomaki chizmalarini bajararish jarayonida tabiatdan, hayvonot bog'idan, turli adabiyot va jurnallardan ijodiy foydalanishingiz mumkin;

3) kompozitsiya mavzusida barcha tavsiflar aniq ifodasini topishi lozim;

miniatyura ishlashda birlik yoki ikkilik raqamidagi mo'yqalamlar, tempera, suvbo'yoqdan foydalanib, tabiat in'omlariga ishlangan miniatyurada rang va tus qonunlari, shuningdek hajmli shakl ishlash vazifalari narsalarning shakli va mutanosibliigi, bo'yoq bilan shaklni bo'yashda uzviylikka e'tibor qarating;

4) mo'yqalamni to'g'ri ushlab, bo'yoqlarni tanlang va tayyorlang, insonni, jismni, gul va barglardagi targ'il yo'nalishini to'g'ri aniqlang;

5) kompozitsiya chiroyli tusga kirgandan so'ng yaxshilab quriting va loklang hamda loklangan buyumni soyada, shamol tegmaydigan joyda quriting.

9-mashg'ulot. Suvqovoqdan ko'za va qushlar kompozitsiyasini tuzish

Mavzu: Suvqovoqdan ko'za va qushlar kompozitsiyasini tuzish.

Maqsad: Talabalarni suvqovoqdan ko'za va qushlar kompozitsiyasini tuzishga o'rgatish.

Vazifalar: 1. Talabalarni suvqovoqqa ishlov berish va ularga badiiy bezak berishga o'rgatish.

2. Dekorativ qovoqlarga badiiy bezak berishda kompozitsiyadan foydalanishga doir ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

O'quv jarayonining mazmuni: Qovoqlar haqida umumiy ma'lumot. Qovoqlarni ishchi holatiga keltirish. Qovoqlarni ko'za va

qush shakliga keltirish. Kompozitsiyaga ishlov berish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: tushuntirish, suhbat, namoyish etish, izohlash, amaliy, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi suvqovoqlar, vatman qog'ozi, arra, shrup, qumqog'oz, plastilin, mato, pva va super yelimi, rangli bo'yoqlar, ko'za va qushlar suratlari, lak.


Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.


Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni suvqovoqqa ishlov berish va ularga badiiy bezak berishga o'rgatadi. Dekorativ qovoqlarga badiiy bezak berishda kompozitsiyadan foydalanishga doir ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

Talaba: talabalarni suvqovoqqa ishlov berish va ularga badiiy bezak berishni o'rganadilar. Dekorativ qovoqlarga badiiy bezak berishda kompozitsiyadan foydalanishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Dekorativ qovoqlar haqida ma'lumot

Tabiat in'omlaridan yaratilayotgan san'at asarlari hammani lol qoldirib kelmoqda. Afsonalarga qaraganda





qovoqlarning ichida farishtalar yashar ekan. Qovoqlar tabiatan ko'za shakliga monandligi, yengil, po'sti qattiqligi chizish, bo'yash qulayligi uchun ko'plab dizaynerlik kompozitsiyalarini yaratish mumkin. Qovoqda saqlangan tuz, tuxum, qatiq, qimiz, sut va hokazolar o'z xususiyatini yo'qotmaydi

Qovoqlar palaksimon o'simlik turiga kirib, dunyoda ularning 1200 dan ortiq turi mavjud. Qovoqdoshlar oilasiga mansub bu o'simlik bir yil mobaynida pishib yetiladi. Urug'i bizning iqlim sharoitimizda may oyida ekilsa, hosili oktabr, noyabr oylarida uzib olinadi. Dekorativ qovoqlar obdon pishib, qurib yetilishi hamda yomg'ir, qor ko'rgan holda uning yuza qismida turli shakl va tasvirlar paydo bo'lishi uchun ham kuz oylarida uzib olinadi. Dekorativ qovoqlarga ishlov berish metodikasi Dekorativ qovoqlarni badiiy bezashda tabiat, hayvonot olami va inson qomati aks etgan kompozitsiyalar ishlash uchun turli hajmdagi qovoqlardan andozalar olinadi va andozaning aniq o'lchamiga asosan, kompozitsiya qonun-qoidalariga rioya qilgan holda eskizlar ishlanadi. Dekorativ qovoqlarni badiiy bezashda turli kompozitsiyalardan foydalaniladi. Uning uchun kompozitsiyasini

qalamda va ranglarda ishlash, qopqoqlarni lobzikda arralab yoki drelda teshib ularning ichidan urug'larini tushirib tozalanadi. Ustidagi po'stloq qismini suvda ivitilib o'tkir pichoq yordamida qirib tashlanadi. Tig'li asboblardan ishlaganda texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda ishlash lozim. Qovoqlarni biriktirganda turli yelimlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Kompozitsiyalarni hosil qilishda kompozitsiyadagi g'oya, mazmun, joylashtirish, simmetriya va assimetriya, marom, stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'linishi, nisbat, harakat va kompozitsiya qonuniyatlarining boshqa jihatlari hamohang bo'lishi lozim. Ko'za shaklini yasashda tuzilgan kompozitsiya uchun bir necha qovoqlarning ma'lum qismlari arralab ajratib olinadi, so'ng yelimda biriktiriladi. Yaratilgan asarni ranglash, qovoqning o'z urug'i bilan bezatish yoki kanop ipi bilan o'rab laklash mumkin. Shu usulda suvqovoqdan turli ko'za va parandalar shaklini ishlash mumkin



10-mashg'ulot. Karving kompozitsiyasini yaratish metodikasi

Mavzu: O'rganilganlarni takrorlash va mutahkamlash. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish

Maqsad: Talabalarni kompozitsiya yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rgatish hamda ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash.



Vazifalar: Talabalarni amaliy ishlarni baholash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltirish. O'quvchilarning dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini tekshirish va baholash.

O'quv jarayonining mazmuni: Amaliy ishlarni baholashga doir "Kichik guruh – qayta aloqa testi". Talabalarning bilimlarini nazorat qilishga doir yozma ish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: suhbat, munozara, namoyish etish, izohlash, dalillar keltirish



Shakl: talabalarning BKMLarini tekshirish va baholash darsi, individual va kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: amaliy ish ko'rgazmasi, yozma ish variantlari.

Nazorat: og'zaki va yozma.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni amaliy ishlarni baholash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltiradi.

Talabalarning dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini tekshiradi va baholaydi.

Talaba: kompozitsiya yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rganishadi. Dizayn san'ati va kompozitsiya qonunlariga doir bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

Hozirda ko'p diyordlarda, xususan bizning o'lkalarda ham, to'yutantana, bazmu-marosimlarda dasturxon va taomlarni har xil meva va sabzavotlar ila bezatish an'ana bo'lib borayotgani bois, sahifamizda shu sohadan ham imkon qadar ma'lumot berib borishga harakat qilamiz. Dasturxon va taomlarni turli xil meva va sabzavotlar bilan bezatishni kulinariya sohasida karving deb atashadi.

Karving – inglizcha “carving” yoki “curving” “kesmoq, to'g'ramoq” bo'lib, “kesiladigan ish”, “kesiladigan naqsh, bezak” ma'nosini anglatadi. Daraxtlar, muzni, tosh va sabzavotlarni kesish karving deyiladi. Shuningdek, tog' chang'isida uchishning bir usuli va hatto sochning uzoq buzilmaydigan kimyoviy turmak turi ham shunday ataladi.

Karving oshxonada – bu hozirda turli restoran oshpazlari keng foydalanayotgan sabzavot va mevalarni shaklli kesishdir.

- ijodiy qobiliyatlarni, xayolotni rivojlantirish;
- estetik didni shakllantirish;
- ishlarni bajarishda aniqlikka, ehtiyotkorlikka o'rgatish;
- sabzavotlardan “o'ymakorlik” usuli yordamida kesishni o'rganing.



Ushbu master-klass o'rta maktab o'quvchilari, o'qituvchilar, otanalar va ijodiy odamlar uchun mo'ljallangan. Idishlarning ushbu dizayni har qanday bayram, ziyofat uchun va oddiygina ovqatlanish va yaxshi kayfiyatni yaxshilash uchun javob beradi.

O'z mohiyati, mazmuniga ko'ra ta'rif beradigan bo'lsak, karving bu – haykaltaroshlik san'atining eng oddiy shakli yoki oshpazlarning meva va sabzavotlardan tayyorlangan stol ustini vaqtincha bezab turuvchi mahsulotlarni o'ymakorlik bilan naqsh solishdir.

O'ymakorlik – Bu turli materiallarda o'ymakorlikning haqiqiy san'ati. Tayyor o'ymakorlik hikoyasi Tailandda 700 yil oldin, suzuvchi chiroqlar festivaliga tayyorgarlik ko'rilganida boshlangan. 5-7 sm uzunlikdagi bir tilim odringni kesib oling. Oval tig'li pichoqni ishlatib, bodring uzunligi bo'ylab kesishni boshlang, lekin oxirigacha emas.

Barcha tilimlarni doira shaklida qiling. Keyingi qator avvalgisiga nisbatan qoqilib ketishi kerak. Qatorlarning soni bodringning qalinligiga bog'liq. Bodringning yadrosini to'kib tashlang, shunda unga bir bo'lak sabzi soling. Barglari go'zal ochilishi uchun bodringni muzli suvga to'kib tashlang. Bodring barglarining uchlari uchburchak shaklida tayyorlanishi mumkin.

Tayyor nilufarni shishaga solib qo'yish mumkin. Bodringdan siz har qanday taomni asl shaklda to'ldiradigan butun guldastani olishingiz mumkin.



Bodringni ingichka tilim bilan kesish kerak. Shundan so'ng, bir naychani naychaga bog'lang, so'ngra gul barglari olinishi uchun qolganlarini unga yopishtiring.

Tarvuz yoki qovundan meva uchun asl savatni olishingiz mumkin. Tarvuzni o'lchagich bilan o'lchab, $\frac{1}{2}$ balandlikda belgi qo'ying. Savat tagligining balandligini aniqlash uchun tasmani atrofga o'rang. Texnikadagi tarvuz savati, fotosurat. Qog'ozdan qalam uchun naqshni kesib oling. Tarvuzning har ikki tomonida qirralarni kesib oling va dastani kesishga o'ting. Tarvuz halqasini kesib oling va go'shtni qoshiq bilan olib tashlang.



Tarvuzning yarmini yuqori qobiqdan tozalang. Tarvuzning qizil qismi ko'rinmasligi kerak. O'ymakorlik qilish uchun tor pichoq bilan o'tkir pichoqni ishlatning.

Markazda doira shaklida kesma qiling va birinchi gulbargni kesishni boshlang. Shundan so'ng, qolgan barglarni bir doira ichida kesib tashlang.

Shakllari ochiqroq bo'lgan barglarning ikkinchi qatoriga o'ting. Tarvuzning kattaligi imkon bersa, barglarning uchinchi qatorini kesib oling. Yaqin atrofda, individual mayda gullarni kesish uchun dumaloq blanklar yarating.

Barg shaklidagi blankalar barglar yoki ochilmagan kurtaklarni shakllantirishga yordam beradi. Tarvuzning pastki qobig'ida dekorativ kesmalar qiling.

Meva va sabzavotlardan o'ymakorlik texnikasini o'zlashtirib, siz stol uchun juda ko'p dekorativ bezaklar, shuningdek, yaqinlaringiz uchun eksklyuziv sovg'alar qilishingiz mumkin. Bugungi kunda o'ymakorlikning mashhurligi shunchalik kattaki, ular hatto san'atning ushbu turida chempionatlar o'tkazadilar.

11-mashg'ulot. Landshaft dizayni-go'zallik yaratish san'ati sifatida

Mavzu: 1. Landshaft dizayni-go'zallik yaratish

Maqsad: Talabalarni manzara kompozitsiyasini yaratishga o'rgatish.

Vazifalar: 1. Manzara san'ati haqida ma'lumot.

2. Yer maydonini ekinlar ekishga tayyorlash. Tuproqni landshaft o'simliklarini ekishga moslashtirish, o'g'itlash, boyitish.

3. Landshaft o'simliklariga shakl berish (butalar, darxtnlar, chim, gullar).

4. Landshaft dizaynida dizaynerlik uslublari va sir asrorlari.

O'quv jarayonining mazmuni: Landshaft dizaynida dizaynerlik uslublari va sir asrorlari haqida ma'lumot. Landshaft o'simliklariga shakl berish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, ko'rsatib berish, izohlash, namuna ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: Qattiq karton, manzaralarning foto suratlari, pva va super yelim.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi:** talabalarga manzarani Landshaft o'simliklariga shakl berish haqida ma'lumot beradi. Manzara kompozitsiyasini yaratish ko'nikma va malakalarini hosil qiladi.

Talaba: Landshaft dizaynida dizaynerlik uslublari va sir-asrorlari haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Manzara kompozitsiyasini yaratish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi.

So'nggi 22 yilda, O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatda o'ziga munosib o'rin va mavqeiga ega bo'lib, dunyo davlatlari bilan samarali va to'laqonli hamkorlik va madaniy aloqalarni yo'lga qo'ymoqda. Buni shahar va qishloqlarning yangicha, ko'rkam qiyofaga ega bo'lib borayotganligida ko'rish mumkin. Qisqa muddat ichida yangi ko'rinishdagi landshaft arxitekturasini yuzaga keladi, qator

yangi inshootlar bunyod etildi.Landshaft dizayni go'zallik yaratish san'atidir. Tabiiy landshaft tabiatdagi mavjud o'simliklar, g'or, qoya, sharsharalar hisoblanadi. Sun'iy landshaft insonlar tomonidan yaratiladi.



Landshaft ishlarida foydalaniladigan asbob-anjomlar.

Landshaft o'simliklarini ekishdan oldin tuproqni tayyorlash ekishga tayyorlash lozim, buning uchun tuproqqa kerakli ishlovlar beriladi.O'simliklarni yaxshi o'sishi uchun turli mineral o'g'itlardan foydalanish mumkin. Mineral o'g'itlar asosan azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarga ajratiladi. Bulardan ayniqsa azotli o'g'itlar o'simliklarni o'sishini tezlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tuproqni tayyorlash (landshaft uchun tuproqni erta bahorda tayyorlash lozim, ya'ni havoning sutkalik harorati 5°C yetganda yer maydoni «yetiladi»), unga ishlov berish, foydalaniladigan mineral o'g'itlardan foydalanish. Kuzda yerni ishlov berilgan daraxt «opilka»si yoki torf bilan parvarishlash maqsadga muvofiq bo'lsa kuzda go'ng yoki chirindilar (kompost).

Landshaft o'simliklarini ekishdan oldin o'simliklarning xususiyatlariga qarab tuproq moslashtiriladi, tuproqqa mineral o'g'itlardan tashqari mahalliy o'g'itlar bilan ishlov berish ekologik jihatdan ham samarali hisoblanadi. Mahalliy o'g'itlardan eng muhimi go'ng va o'simlik qoldiqlaridan iborat bo'lgan chirindilar hisoblanadi.



Yerni mineral o'g'itlar bilan parvarish qilish unumsiz yer maydonida foydali ozuqa elementlari manbasi sifatida lozim bo'lsa, unumli yer maydonida esa o'simliklarning tomir sistemasini mustahkamlash, kasalliklarga bardoshli bo'lishni ta'minlash uchun zarur. Landshaft o'simliklarini ekishdan oldin o'simliklarning xususiyatlariga qarab tuproqni moslashtirish. Tuproqni boyitish va o'g'itlash.

Bir yillik landschaft o'simliklari bir yil davomida o'sib o'z hayotini tugatadi. Bu kabi o'simliklarni har yili urug'idan ekish lozim. Ikki yillik o'simliklar hayoti ikki yil davom etadi, ular odatda birinchi yili tupbarg, ikkinchi yili esa poya va gul hosil qiladi. Ko'p yillik o'simliklarda odatda piyoz, tugunak yoki ildizpoyalar mavjud bo'lib, ularning yer ustki qismlari sovuqda qurib qolgan taqdirda ham keyingi yili yer ostki qismlaridan o'simlik unib chiqadi.

Landshaft o'simliklari, ularning boshqa o'simliklardan farqi (landshaft o'simliklarining boshqa o'simliklardan farqi shuki, ularning ma'lum bir darajadan o'smasligidadir). Parvarish qilish tartibi (zararli o'simliklardan tozalash, sug'orish). Landshaft o'simliklarining bir yillik, ikki yillik, ko'p yillik, piyozli va atirguldoshlar (atirgul, spireya, ryabina va boshqalar) oilasiga kiruvchi turlari. Landshaft

o'simliklarining O'zbekiston iqlimiy sharoitiga moslashgan va moslasha oladigan turlarini ekish.



O'simliklarda boradigan fotosintez jarayoni natijasida atmosfera havosi kislorodga boyib boradi. Ayrim daraxtlar o'zidan ishlab chiqargan fitonsidlar orqali tabiatdagi zararli mikroorganizmlarni nobud bo'lishiga xizmat qiladi.

Landshaft dizaynida chim va chirmashib o'sadigan o'simliklarning ahamiyati ayniqsa katta. O'zbekiston sharoitida chirmashib o'suvchi o'simliklardan tokdoshlar oilasining vakillari ayniqsa ko'p ekiladi. Tajriba yer maydoniga chim va chirmashib o'sadigan o'simliklarning O'zbekiston iqlim sharoitiga moslashgan turlarini ekish.

Xiyobonlarga sayohat. Shahar ko'chalarini obodonlashtirish maqsadida qurilgan turli landshaft namunalari. Makon, iqlim, urf-odat jihatidan o'ziga xosligi.

Avtomobil yo'llarida zaharli gazlarni filtrlovchi o'simliklar, kasalxonalarda zararli mikroorganizmlarni nobud qiluvchi moddalar ishlab chiqaruvchi daraxtlar (archa, terak va boshqalar), dam olish maskanlari, xonadonlarda va mahallalarda shuningdek, turli joylarda (kirish joyi, orqa bog' tomoni, oldi bog' tomoni) quyidagi o'simliklar ekiladi:

1. Shefflera (Schyfflerayoki soyabonli daraxt) – tamaki chekilayotgan xona uchun foydali hisoblanadi. Nikotin va zararli gazlarni oson zararsizlantirish xususiyatiga ega.

2. Tilla Ssindapsus (Epipremnum aureum yoki Potos) havoni benzoldan tozalash xususiyatiga ega.

3. Drasena (Dracaena) qurilish mollaridan va uy jihozlari (DSP, kley, mebel) chiqadigan formaldegidning zaharli gazlarini zararsizlantiradi.

4. Xlorofitum (Chlorophytum) avtomobildan chiquvchi gazlarni zararsizlantiradi.

5. Xamedoreya (Chamaedorea elegans yoki xona palmasi) xonadagi havo namligi darajasini ushlab turadi va plastmassadan chiqayotgan zararli elementlarni tozalaydi.



6. Plyush (Hedera helix) va 7. Bendjamin (Ficus benjamina) – havoni tozalashda o‘simliklarga yetadigani yo‘q. Havoni zaharli gazlardan va changdan tozalaydi.

“Bioxilmaxillik” o‘quv modeli asosida olib boriladi. Unga ko‘ra tajriba maydonidagi o‘simlik va hayvonot (hasharot) olami o‘rganilib, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqlik yasaladi. Mashg‘ulotning asosiy g‘oyasi sayyorada bioxilmaxillikni saqlab qolish, kelajak avlodga o‘simlik va hayvonot dunyosini bus-butunligicha yetkazib berishdir.



Landshaft dizaynida qo‘llaniladigan asosiy texnik qurilmalar dekorativ yoritish qurilmalar va sug‘orish qurilmalari hisoblanadi. Qurilmalarning energiya samaradorligi, ularni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish masalasiga e‘tibor qaratish lozim.



Tajriba maydonida yoritish moslamalari va sug‘orish qurilmalarini o‘rganish, ta‘mirtalablarini ta‘mirlash va yoritish asboblarini energiya tejoychi lampalar bilan almashtirish.



Mamlakatimiz hududida joylashgan tabiiy landshaftlarni ko‘zdan kechirish maqsadida sayohat uyushtirish.



Sayohatda olgan taassurotlari asosida tabiiy landshaftni landshaft dizaynerligi faoliyatida namuna sifatida ishlatish ko‘zda tutiladi.

Landshaft ko‘rinishlarini tabiiy landshaftga o‘xshatish maqsadida landshaft andozalari chizish.

Landshaft dizaynida maydonni kengaytirgan holda, ixchamlashtirgan holda ko‘rsatish yo‘llari. Ayrim joylarni berkitish, bezatish yo‘llari.



Tajriba maydoni ko'zdan kechiriladi va guruhlarga bo'lingan holda o'zlariga berilgan hududni turli maketlar bilan o'rgangan dizaynerlik uslublarini qo'llash.

Landshaft ko'rinishi yo'nalishlari doimiy va peyzajli guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga mansub turli landshaft ko'rinishlarini ko'rib chiqish lozim.

Landshaft ko'rinishlari andozalarini chizish. Chizilgan andozalar asosida turli maketlardan ushbu andozalarni yasash.

Landshaft dizaynini barqaror tadbirkorlik faoliyati sifatida ko'rib chiqish lozim, bu faoliyatni shahrimiz va vatanimiz obodonchiligida tutgan o'rni katta.

Klassik uslub to'g'risida.

Odamzod atrof-muhitni tabiat bilan yanada mujassamlashtirish va o'ziga qulay qilib yaratishni hamisha uslub qilib olgan bo'lib, uning asos-chin geometrik shakl, aniq rang, tabiatga xosligi (gullarning bir-biriga o'xshash va xosligi) hamda arxitektura dizaynerlaridir. Tiklanish zamon-

larida qadimiy sivilizatsiya (Rim, Gresiya) o'ziga xos uslublarni namoyon etishning gullab yashnagan davri bo'lgan. O'sha paytdagi ba'zi bog'lar hozirga qadar saqlanib kelgan – bu esa o'z navbatida “klassik” degan nomni oldi. Undagi geometrik dekompozitsiyalar hamda regular elementlar, ayniqsa, boqqa rasmiylik va sertakalluflik holatini namoyon etib, zamonaviy davrda shahardagi istirohat bog'lari, xiyobonlar, maydonlar aynan ushbu klassik talablarga asosan qurilmo-

qda va dekorativ turdagi ko'chatlar, gullar hamda fontan va boshqa xildagi haykallar bilan bezatilmoqda. O'zi qadimdan daraxtlar shakliga ishlov berish san'at turi hisoblangan, hatto haykaltaroshlik san'ati darajasi-gacha ko'tarilgan bo'lib, unga "yashil haykaltaroshlik", "o'simliklar arxitekturasini" degan maqomlar berilgan. Hozirga qadar asosan Yevropa mamlakatlaridadaraxtlar shakliga ishlov berish san'atidan foydalaniladi, vaholanki, tomorqalarda landshaft dizaynini yaratishda daraxtlarga ishlov berish asosiy chiroy baxsh etuvchi omillardandir. Bu uchun tomorqadagi yerlarni geometrik tekislash to'liq amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimiz chiroyini yanada barq urishi uchunlandshaft dizaynining turli uslublaridan foydalanish urf bo'lib bormoqda.



Manzarali uslub. Landshaft uslubi asosan shaharning ko'rki va uning rivojlanishiga, tabiat in'omlariga shakl berish, bog' va xiyobonlar yaratilishiga asos bo'lgan. Asosan, tabiat manzaralaridan tashkil topgan uslub-manzarali uslub (пейзажный) deb ataladi. Uning vatani Angliya hisoblanadi. Bunday uslubdagi bog'larni ishlab chiqishda asosan mavjud bo'lgan daraxtlar ishlatilgan. Bundan asosiy maqsad bog'ni o'simlik va daraxtlar bilan o'rab olib, bog'dagi tashqi kamchiliklarni bartaraf etish, yo'laklarni so'qmoqlarga o'xshatib tartibga solish hisoblangan. Bunday uslubda kam xarajat sarf etilib, og'ir mehnat talab etilmaydi.

Ayni davrda zamonaviy bog'dorchilik texnologiyalari orqali bog'larning manzarali uslublarini tabiat muhitiga qarab turli xil variantlari ixtiro etilmoqda. Manzarali uslubda daraxt va o'simliklar

bo‘yi va rivojlanishi bilan cheklanmasdan, balki, tezlashtirish uslubida ishlanadi. O‘simliklar tashqi ko‘rinishi shunchaki bir oz tekislanadi. Manzarali (peyzaj) uslubning asosiy qonuni – bu tabiat rangiga mosligi va tekis joylashuvi bo‘lib, bir nafar shaxsning ideal ishloviga xos bo‘lishi kerak. Manzara landshaftini ishlab chiqishda asosan dekorativ xususiyatga ega konstruksiyalar bir-biroviga xos bo‘lib, tabiiy rangga ega bo‘lishi va tabiiy materialdan ishlangan bo‘lishi lozim. Zamonaviy manzarali landshaft uslublari har xil kombinatsiyali o‘simliklar, arxitekturali va dekorativ elementlar bilan ham to‘ldirilishi mumkin. Bunday uslublarda doimiy uslublar turiga mansub bo‘lib, asosan binoning oldingi qismida mavjud bo‘lgan bog‘larda, manzarali uslublar esa binoning orqa tomonidagi bog‘larda qo‘llaniladi.

Landshaft dizaynining yaponcha usuli o‘ziga xosligi bilan Yevropada ko‘rinarli darajaga ega. Yapon uslubining yaratilishi uzoq davom etgan bo‘lib, unda yaponlarning ma‘naviyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ushbu uslubning asosiy belgilaridan biri ichki his-tuyg‘ularni hayotda namoyon etish bo‘lib, bu esa Yevropa ratsionalizmiga qarama-qarshidir. Xitoy Fen Shuyi va Hindiston Yogasi hayotimizga intiqlik bilan kirgan bir paytda, Yaponiya o‘zining yapon uslubdagi landshaft dizaynini ato etgan. Qadimdan yaponlar tabiatni ilohiy deb bilib, uning chiroyiga bo‘ysunganlar. Bo‘ysunish ob‘ektlariga asosan tog‘lar, g‘orlar, havza, sharshara, tosh va daraxtlar kirgan.

Yapon bog‘i nafaqat dam olish maskani, balki o‘ziga xos “toshli bog‘” va “yo‘sin bog‘i” falsafasi hisoblanadi. Maydoni unchalik katta bo‘lmasa ham, undagi yapon dekorativ elementlar koinotning kichraytirilgan formasini namoyon etadi. Bundan tashqari, yapon bog‘i tabiatning alohida bir elementiga bag‘ishlangan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, yosh qarag‘ay bog‘i, shuningdek, gullayotgan sakura bog‘i yoki yil fasli bog‘i. Yapon bog‘ining ajralmas o‘simligi bu qarag‘aydir. U uzoq umr ko‘rish, mardlik va jasorat ramzi hisoblanadi. Shuningdek, unda tuya, mojevelnik, oqqarag‘ay, archalar ishlatiladi. Sakura – bog‘dagi eng asosiy daraxtlardan biri hisoblanib, u tinchlik, ozodalik, turg‘unlikni anglatadi. Sakura – bu gilos va olcha daraxtlarining bir turidir. Suv – yapon bog‘ida hamisha bo‘lishi lozim,

hech bo'lmaganda ramz sifatida joylashtirilishi kerak. Bo'lmagan taqdirda suvni shag'al toshlari bilan almashtirish mumkin. Ammo, bog'ning qolgan qismida o'simlik va daraxtlar tabiiy bo'lishi shart. Bu yapon bog'ining asosiy qoidasidir.

Bunday uslub Amerikada paydo bo'lib, bu kovboylar uslubi hisoblanadi. Texas rancholari bog' va tomorqalar bilan o'ralgan bo'lib, ularni tabiatning o'zi yaratgan va bu uslub plantatsiya egalari tomonidan qonun-qoida sifatida qabul qilingan.

Shu sababli, landshaftning har bir burchagida tabiatning o'z in'omlari bilan nafas olib, o'zi ulg'ayadi. Vaqt mobaynida ushbu uslub dunyoning barcha burchaklarida namoyon bo'lib, natijada natsional rang uyg'unligi tusini yo'qotgan. Hozirgi vaqtda qishloq joylari, qishloq bog'i va tomorqasi bu kantri uslubi hisoblanib, unda mevali daraxtlar o'tqazilishi va sabzavot ko'chatlari ekilishi shart. Umuman olganda, kantri uslubida ko'p katta bo'lmagan, yog'och devorlar bilan o'ralgan tomorqa yerida ko'kat, qovoq va bir qator pomidor tuplari o'tqazish mumkin. Shuningdek, oltin rangli kunga boqarlar devor orqasidan chiroyli ko'rinishni beradi. Bog'da suv quduq va yog'ochdan yasalgan bochka bo'lishi ayni muddoa. Bochka yerni suv bilan sug'orish uchun har doim suvga to'la bo'lishi lozim. Bundan tashqari, bog'da atrofi oq nilufar gullar bilan o'ralgan kichkina hovuz tashkil qilib, oldida dekorativ o'rdakchalarni ko'paytirish mumkin. Suv havzasi oldida dam olish uchun chiroyli o'rindiqlar va arg'imchoq joylashtirilib, qurilishlarning barchasi tabiiy materialdan bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki Kantri uslubi – bu ekologik toza uslubdir. Yozda barcha o'simliklar gullaydi, kuz faslida daraxtlar oltin rang tusga kiradi. Kantri uslubidagi bog'larda inson xohlagan fantaziyasini amalga oshirishi mumkin, bunda bog'ning biror bir jihati o'zgormaydi va xalaqit bermaydi. Kantri uslubi yuqorida aytib o'tilganidek, qishloq hayotiga moslashganligi tufayli bu toifadagi kerak bo'lgan barcha anjomlarni, masalan arava yoki katta bochkalarni moslashtirib joylashtirish mumkin. Biz sizga ayrim uslublarni tavsiya etishdan asosiy maqsadimiz mana shu uslublardan foydalangan holda landshaft dizaynining yangicha uslublarini yaratish, umumlashtirgan holda esa yangilik ijod etishingizda imkoniyat yaratishdan iboratdir.

Meksikaning landshaft dizayni boshqa iqlimga mos kelmasligiga qaramasdan, dunyo bo'yicha juda ko'pgina mamlakatlarga kirib bormoqda. Ushbu uslubning asosiy xususiyatlaridan biri o'zida jozibalilik va maftuniylikni mujassamlashganligidir. Bog'ning asosiy mehmonlaridan biri yegulik, ya'ni sabzavot o'simliklari hisoblanadi. Tomorqa bog'ni Meksika landshaft jannatiga aylantirish uchun oldin yo'lak maydonini keramik toshtaxtalar (plitka) bilan bezash maqsadga muvofiq bo'ladi. Oldin meksikaliklar keramik toshtaxtalar o'rniga qum, loydan yasalgan toshtaxtalar bilan bezashgan. Bunda yasalgan toshtaxtalar tekis bo'lmagan, qo'pol ravishda ko'rinsada, o'ziga xos jozibalilikligi bor edi.

Shu sababli meksika landshaft atmosferasini yaratish uchun jigar, qizil yoki yashil rangli toshtaxtalar bilan bezash lozim bo'ladi. Shuningdek, bog'da alohida dam olish joyi yaratilib, ushbu dam olish joyida mangal va gulxan yoqish uchun gulxan o'rni o'rnatish kerak.

Meksika bog'ida bazm tashkil qilish uchun mangal, gulxan o'rni va barbekyulardan foydalanib, odamlar o'tirishi uchun daraxtdan yasalgan skameyka va oddiy stullar qo'yiladi. Yodda tutish lozimki, meksika dizaynida oddiylik uslubi hukmronlik qiladi. Yoki bog' ichida mayda baliqlari bilan aylana shakldagi hovuzcha, loydan yasalgan gultuvaklar gullar ekilgan, atrofi shu gullar bilan o'ralgan fontanni tashkil qilish mumkin. Bunday bog'larni yoritgich bilan ta'minlash ham oddiylik talablariga xos bo'lib, oddiy shamchiroqlar bilan yoritish mumkin. Dam olish stollari yoki patio ustida bog'langan temir bilan bezatilgan qandil chiroyli ko'rinish baxsh etadi. Shuningdek, bog'ni yoritish uchun meksika fonarlarini ham ishlatish mumkin. Bunday usul faqatgina quruq iqlimga to'g'ri keladi yoki bunday fonarlarni bazm o'tkazish paytlarida ishlatiladi. Bog'ning bo'sh joylarini har xil hajmdagi loydan yasalgan gullari mavjud tuvaklar bilan bezash mumkin. Hovuz atrofini ham dekorativ bezaklar bilan to'ldirish mumkin. Meksika bog'ining asosiy bezatgichlari bu kulolchilik buyumlari hisoblanadi. Mabodo, loydan yasalgan tabiiy tuvaklar mavjud bo'lmagan taqdirda, uni plastika tuvaklarga almashtirish tavsiya etilmaydi, chunki bunday o'rin almashinuv tabiiy ko'rinishni buzadi.

Shuningdek, meksika bog'ining yana bir asosiy elementlaridan bu mevali daraxtlardir.

Tabiat iqlimiga qarab, banan daraxtlari, limon, turli xil yong'oq daraxtlari o'tqazish mumkin. Xushbo'y shifobaxsh o't o'lanlar va melissa o'simligi meksika bog'iga ideal tarzda mos keladi. Yoz payti kaktusli tubaklarni joylashtirish mumkin. Boqqa kirish qismini yog'ochli arka bilan yoki dekorativ arka bilan, bog' chegarasining atroflari qirolli begoniya, paparotnik, orxideya, aloe va georgina o'simliklari bilan bezatiladi

Demak, uy-hovlingizni qurib bitkazdingiz va sizda tomorqa yeringiz bilan shug'ullanish istagi paydo bo'ldi. Sizni xafa qilmoqchi emasmiz, ammo siz kechikdingiz. Uy-hovlini qurishdan oldin bog' qanday bo'lishi to'g'risida tasavvur hosil qilish kerak, ammo bu bilan hammasi tugagan emas, shunchaki bog'ning qurish ketma-ketligini almashtiramiz. Bog'cha bir marta qurilib, shu bilan abadiy qurilmasligi haqidagi fikrda bo'lsangiz adashasiz. Chunki bog' – bu tirik mavjud, yillab o'z o'zidan almashib turmaydi, u bilan doimiy ravishda shug'ullanib turilishini esdan chiqarmaslik zarur.

Umuman olganda ikki xil asosiy uslublar mavjud, bu – muntazam va manzarali, ammo bundan tashqari ularning bir necha yo'nalishlari ham mavjud. Muntazam uslub – o'ziga xos to'g'ri chiziqlarga moslangan va geometrik shakllardan iborat bo'ladi. Bunday usulda o'ta tartibsizlik begona bo'lib, bu bog' – tartibli bog' hisoblanadi. Birinchi bo'lib bunday uslubdagi bog' Italiyada amalga oshirilgan, keyinchalik Fransiyada qo'llanilib, rivojlanib borgan. Muntazam uslubning ikkinchi nomlanishi – “fransuz bog'i”dir. Bog'ingiz muntazam uslubda yaratilgan bo'lsa, bunda barcha bog' elementlari qo'lbola usulda bo'lishi lozim, tabiiylik yoki tabiiy tasodiflar bu yerda o'rinsiz. Manzarali yoki norasmiy uslub – o'z ichiga yovvoyi tabiatga xos ravon chiziqlar va qayrilishlar qo'shmalarini qamrab oladi. Bunda odam tabiatga emas, balki tabiat odamga ta'sirini ko'rsatishi kerak. Manzarali uslubda inson qo'llarini judayam kam hollarda uradi.

Insonlar ma'lum bir landshaftda yashaydilar va uni o'z ehtiyojlariga moslab o'zgartiradilar. Insonning ta'siri landshaftning imkoniyatlaridan oshib ketsa, undagi muvozanat buziladi. Natijada

landshaft butunlay o'zgarishi, hatto, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Landshaftdagi o'zgarishlar o'z navbatida insonlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilishning asl mohiyati va maqsadiga ko'ra landshaftni muhofaza qilish lozim. Hozirgi vaqtda inson ta'siriga uchramagan tabiiy landshaftlar kam qoldi. Inson ta'sirida o'zgartiriladigan landshaftlar antropogen landshaftlar deyiladi.

Antropogen landshaftlar bajaradigan funksiyalari (qishloq xo'jaligi landshaftlari, sanoat landshaftlari, shahar landshaftlari va boshqalar) va o'zgarish xarakteriga (kam o'zgartirilgan, kuchli o'zgartirilgan) ko'ra farqlanadi. Yer yuzidagi landshaftlarning 60% i dan ortiqrog'i antropogen landshaftlarga kiradi. Inson tomonidan ilmiy asosda o'zgartirilgan, tartibga solib turiladigan, eng yaxshi yashash sharoitlari va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan madaniy landshaftlar ham mavjud.

Landshaftlarni muhofaza qilish deganda ulardagi o'ziga xos muvozanat holatini saqlash tushuntiriladi. Landshaftlarni muhofaza qilishning turli shakllari mavjuddir:

a) landshaftlarni to'la muhofaza qilish:

b) landshaftlarning tabiiy qiyofasini saqlagan holda ayrim tabiat obyektlarining muhofazasi:

d) qulay antropogen landshaftlarni yaratish va boshqalar.

Landshaftlarni va tabiiy obyektlarini qo'riqlash alohida muhofaza qilinadigan hududlarni tashkil qilish orqali amalga oshiriladi. Bular qo'riqxonalar, zakazniklar, milliy parklar, tabiat yodgorliklari va boshqalardir.

Alohida muhofaza qilinadigan hududlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tashkil qilina boshlagan. Hozirgi kunga kelib bunday hududlarning soni yer yuzida 3000 dan ortib ketgan va quruqlikning 3% idan ortiqroq maydonini egallaydi

Milliy parklarda landshaftlar muhofaza qilinadi va aholi ham dam olishi mumkin. Bu landshaftlarni muhofaza qilishning ilg'or zamonaviy formasi hisoblanadi

O'zbekistonda "Kitob" geologik qo'riqxonasi mavjud. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda 9 ta qo'riqxonasi, 2 ta milliy park,

8 ta davlat zakaznigi faoliyat ko'rsatmoqda. Muhofaza qilinadigan hududlar 2 mln hektardan ortiq maydonni egallaganligi bu Respublika hududining 4% dan ortig'ini tashkil qiladi. Ajoyib tabiat go'shalari tog' va to'qay o'rmonlari muhofazaga olingan. Qo'riqxonalarda 350 dan ortiq hayvon turlari, 700 dan ortiq o'simliklar turlari himoyaga olingan. Alohida muhofaza qilinadigan hududlar tartibini buzganligi uchun moddiy va jinoiy javobgarliklar belgilangan. O'zbekistonda 50 dan ortiq asosiy landshaft turlari mavjud bo'lib, o'z navbatida qo'riqxonalar soni ham shunga muvofiq bo'lishi kerak. Chunki qo'riqxonalar oldiga barcha tabiiy landshaftlarni etalon sifatida saqlab qolish vazifasini qo'yiladi.

Kompozitsiya eskizini amaliy holatda tuzib, planshetga terib, bo'yab so'ngra loklanadi.

Kompozitsiyada shakllar ko'pligi asarni ko'rkamlashtiradi. Ana shu sababli mahsulot soni va shakllarini ko'paytirib, planshetni 30x30, 30x40, 40x50 o'lchamlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Gullar kompozitsiyasi sodda, chiroyli, ko'rkam chiqishi uchun gullar sitilizatsiya qilinadi. Gullarni qayta ishlash, ularni soddalashtirish jarayonini sitilizatsiya deyiladi. Sitilizatsiya qilingan gullar tasviri o'zining soddaligi bilan uzoq muddatda esda qolishi, ularni chizish juda osonligi bilan ajralib turadi.

Gullarni uch holatdagi ko'rinishini sitilizatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi: a) g'uncha; b) ochilayotgan g'uncha; d) ochilgan gul.

Gullarni sitilizatsiya qilayotgan vaqtda uning mayda detallari tashlab yuboriladi (umumlashtiriladi). Gullarning sitilizatsiyasi chiroyli chiqishi uchun turar holatdagi joylashuvi ham aniq mo'ljalga olinishi kerak. Ana shu tariqa tabiiy va tabiat in'omlaridan gullarni sitilizatsiyalash asosida kompozitsiyalar tuzib, ba'zilariga rang berib, ayrimlari esa o'zining tabiiy rangida loklanadi va planshetga joylashtiriladi.

Quyida keltirilgan kompozitsiya soddalashtirilgan 25x35 hajmdagi planshetda o'ndan ortiq mahsulotlarni kombinatsiyalash asosida tuzilgan.

12-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan gullar kompozitsiyasini ishlash



Mavzu: Tabiat in'omlaridan gullar kompozitsiyasini ishlash.

Maqsad: Talabalarni tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilishga o'rgatish.

Vazifalar: 1. Mavzu bo'yicha talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. 2. Tasavvurlarini shakllantirish va o'z tasavvurlarini bayon etib bera olishga o'rgatish.

3. O'quvchilarning mavzu yuzasidan faol fikrlashlariga erishish.

O'quv jarayonining mazmuni: Gullarni sitalizatsiya qilish. Tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilish. Kompozitsiyani planshetga joylashtirish, bo'yash va loklash.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi suvqovoqlar, vatman qog'ozi, arra, shrup, qumqog'oz, har xildagi meva va poliz ekinlarining urug'lari, chanoq, novda, darat shoxlari va tomirlari, tkon, isriq, alyumin yoki mis simlar, qalampir, karton, tuxum, somon, chig'anoq, plastilin, A4 formatidagi qog'ozlar, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, gullar, ko'za va qushlar suratlari, tosh, yong'oq va pista bodom po'choqlari, qamish, qaychi, kansilyariya pichog'i, lok va hokazolar.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat qilish, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi talabalarni gullarni sitalizatsiya qilish hamda tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilishga o'rgatadi. Kombinatsiyani planshetga joylashtirish, bo'yash va loklash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talaba: tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi.

Tabiat in'omlaridan gullar kompozitsiyasini ishlash metodikasi

Kompozitsiyaning asosiy masalalaridan biri kombinatsiyadir. Kombinatsiya asosida bir va bir necha elementlarning joyini o'zgartirish orqali kompozitsiyaning yangidan-yangi ifodali variantlari tayyorlanadi. Ulardan eng asosiylari sifatida shaklning uzviyligi va yaxlitligi, nisbatlarning mutanosibligi, ritm, masshtablilik, plastiklik, rang va ranglar uyg'unligi kabilarni e'tirof etish joiz. Yigirmadan ortiq tabiiy va tabiat in'omlaridan foydalanib kompozitsiyalar ham tuzish mumkin.

13-mashg'ulot. Talabaning ijodiy ishi

Mavzu: Tabiiy materiallar va tabiat in'omlaridan kompozitsiya tuzish.

Maqsad: Talabalarning mustaqil ravishda tabiiy materiallar va tabiat in'omlaridan kompozitsiya yaratishlariga erishish.

Vazifalar: Talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo'naltirish. Ularda ijodiy qiziqishni hosil qilish. Ijodiy ishni bajarish tartib-qoidalarini tushuntirish. Talabalarning ijodiy ishini boshqarish.

O'quv jarayonining mazmuni: Amaliy faoliyatda rang, shakl va mazmun mutanosibligi. Ijodiy motivatsiyani hosil qilish. Talabalarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: refleksiya, izlanishli, reproduktiv, tadqiqotchilik.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi nosqovoq va suvqovoqlar, vatman qog'ozi, arra, shrup, qumqog'oz, har xildagi meva va poliz ekinlarining urug'lari, chanoq, novda, daraxt shoxlari va tomirlari, tikon, issiriq, alumin yoki mis simlar, qalampir, karton, tuxum,

somon, chig'anoq, plastilin, A4 formatidagi qog'ozlar, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, gullar, ko'za va qushlar suratlari, tosh, yong'oq va pista bodom po'choqlari, qamish, qaychi, konsilyariya pichog'i, lok va boshqalar.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi:** talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo'naltiradi. talabalarda ijodiy ishga qiziqish va motivatsiyani hosil qiladi. O'quvchilarning ijodiy ishini boshqaradi.

Talaba: ijodiy ishini bajarishga doir zaruriy ko'rsatmalarni egallaydi. Ijodiy ishini bajarish bosqichlarini o'zlashtiradi. Tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Ijodiy ish topshirig'i

Quyida namuna tarzida keltirilgan amaliy ishlar asosida kompozitsiyalar tuzish.



10-rasm. Tabiiy materiallardan ishlangan kompozitsiyalardan namunalar.

Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish uchun yozma ish variantlari

1-variant

1. Miniatyura san'ati haqida ma'lumot bering.
2. Manzara va uch ko'rinishli manzara yaratish usullarini bayon eting.
3. Gullarni sitilizatsiya qilish yo'lini tushuntirib bering.

2-variant

1. Miniatyura maktablari haqida ma'lumot bering.
2. Tabiat in'omlaridan gullar yasash kompozitsiyasini bayon eting.
3. Suvqovoq va undan kompozitsiya ishlash yo'lini tushuntirib bering.

3-variant

1. Miniatyura elementlari haqida ma'lumot bering.
2. Manzaralar tuziladigan kompozitsiyalarning o'ziga xosliklarini bayon eting.
3. Dekorativ qovoqlarga ishlov berish usullarini tushuntirib bering.

4-variant

1. Miniatyurada ishlatiladigan xomashyolar haqida ma'lumot bering.
2. Miniatyurada ishlatiladigan bo'yoqlar va ulardan foydalanish texnologiyasini bayon eting.
3. Tabiiy materiallardan gullar kompozitsiyasini tuzish usullarini tushuntirib bering.

14-mashg'ulot. Instolatsiyalar haqida ma'lumot. Instolatsiyalar yaratish texnologiyasi

Mavzu: Instolatsiyalar haqida ma'lumot. Instolatsiyalar yaratish texnologiyasi.

Instolatsiya ishlanmalar



Maqsad: Talabalarga instolatsiyalar va ularni yaratish texnologiyasi haqida ma'lumot berish.

Vazifalar: Talabalarda instolyatsiyalar va ularning o'ziga xosliklari haqidaga tasavvurlarni shakllantirish. Ular tomonidan instolatsiyalar yaratish texnologiyasini o'zlashtirilishiga erishish.

O'quv jarayonining mazmuni: "Instolatsiya" tushunchasi. Instolatsiyalarning falsafiy mohiyati. Instolatsiyalarni yaratish texnologiyasi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, namuna, "O'ylang va juftliklarda fikr almashing" strategiyasi.

Shakl: amaliy, kichik guruhlarda ishlash va individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi suvqovoqlar, vatman qog'ozi, arra, shrup, qumqog'oz, meva urug'lari, somon, chig'anoq, plastilin, A4 formatidagi qog'ozlar, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, gullar, ko'za va qushlar suratlari, qattiq karton, manzaralarning fotosuratlari, ildizlar, barglar, tikon, isiriq, gips, qaychi, kanselyariya pichog'i, lok va boshqalar.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi** talabalarga instolatsiyalar va ularni yaratish texnologiyasi haqida ma'lumot beradi. Amaliy san'at asarini falsafiy mushohada etish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Talaba: "instolatsiya" tushunchasi mohiyatini bilib oladilar. Instolatsiyalar yaratish texnologiyasini o'zlashtiradilar. Amaliy san'at asarini falsafiy mushohada etish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar.

Instolatsiyalar yaratish texnologiyasi

Tabiatdagi aniq narsa yoki jarayonlarni bilmasdan turib, dunyoning umumiy ko'rinishi to'g'risida tasavvur, ijod qilish mumkin emas. Tabiatdagi narsalarni mukammal o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib berishga intilish tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Bizni o'rab turgan har bir narsa



11-rasm. Instolatsiya ishlanmalar.

voqelikdagi boshqa narsalar bilan o'zaro chambarchas bog'langan va uzluksiz harakatda, o'zgarishda rivojlanishdadir. Mohir ustalarning fikricha, qadimdan san'at shunchalik rivojlangan ekanki, ustalar chizgan va bo'yagan naqshlar orqali bir-birlari bilan bevosita muloqot qilganlar.

Bezaklar tilini bilish uchun elementlarning ramziy belgilarni o'qish tilining alifbosini yaxshi bilish talab etilgan. Kompozitsiya

tuzishda ana shu ramziy belgilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Belgilarda falsafiy tomonlari yoritilgan bo'lib, barcha tabiat in'omlaridan mavzuiy kompozitsiya tuzish mumkin. Masalan, quyida keltirilgan loviya poyasi ifodalangan syujetli voqelik tafsilotlardan kompozitsiya tuzilgan. Tut daraxtining tomiridan tuzilgan kompozitsiyaga nazar tashlasak, yuksaklikka yetkazadigan barcha elementlar mavjudligini anglaymiz. Har bir yaratilayotgan mavzuiy kompozitsiya inson xayoloti va o'y-fikrlarining mahsulidir. Xayolot bu psixik obraz, inson o'y-fikrlarining mevasi, tasavvurlar va obrazlarning alohida kuchli, yaqqolli va g'ayri- oddiyligi bilan tavsiflanuvchi hayol, hayotda inson tomonidan idrok etilmagan tasavvur va xayoliy holatlarning vujudga kelishidan iborat psixik holat hisoblanadi. Ko'z bilan ko'rib, xayol orqali tasavvur etilgan hamma narsa ham ijod bo'lavermaydi. Ijod mahsulida mantiq, yashirin ma'no, nafis ko'rinish, chiroyli ijro aks etishi lozim. Ijodiy ishning mahsuli shakl va hajm orqali belgilanmaydi. Ana shu sababli ramziy belgilarga asoslangan holda instolatsiyalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

15-mashg'ulot. Yashil atirgul kompozitsiyasi. Yashil atirgul kompozitsiyasi yaratish texnologiyasi

Mavzu: Yashil atirgul kompozitsiyasi. Yashil atirgul kompozitsiyasi yaratish texnologiyasi.

Maqsad: Talabalarni barglardan gullar kompozitsiyasini yasashga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalarni borliqni estetik idrok etishga o'rgatish. Tabiatda uchraydigan ajoyib tabiiy mo'jizalar to'g'risida ma'lumot berish. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlay olishga o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Daraxt barglaridan foydalanib kompozitsiya yaratish qoidalari. Yashil atirgul kompozitsiyasini yaratish usullari.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: turli kattalikdagi daraxt barglari, ip, qaychi.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarga daraxt barglaridan foydalanib kompozitsiya yaratish qoidalarini tushuntiradi. Yashil atirgul kompozitsiyasini yaratishga doir ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

Talaba: tabiatda uchraydigan ajoyib tabiiy mo'jizalar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishadi. Yashil atirgul kompozitsiyasini yaratishga doir ko'nikma va malakalarni egallaydilar.



12-rasm. Yashil atirgul kompozitsiyasi

Yashil atirgul kompozitsiyasini yaratish texnologiyasi

Inson shunday yaralganki, u tabiat va jamiyatda paydo bo'ladigan ko'pdan-ko'p muammolarga yoshligidanoq javob izlaydi. Hayotdagi turli voqea-hodisalarning mohiyatini tushunishga intiladi. Dunyoning sir-asrorlarini sodda va aniq qilib izohlab beradigan bilimlar, tasavvur va tushunchalarga qiziqadi. Shu tariqa u doimo haqiqatni bilishga intilib, nimanidir kashf qilib, yangiliklarni izlab yashaydi. Tabiat inson kashfiyotlarining manbaidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ijodiy faoliyat mahsuli atrof-muhitga zarar yetkazish hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Yashil atirgul kompozitsiyasini yaratishda ham mazkur tamoyilga rioya qilgan holda, xazon bo'lgan va bo'layotgan barglardangina foydalanib kompozitsiya tuzish lozim.

Atirgul kompozitsiyasi uchun turli kattalikdagi daraxt barglarini tanlab olinadi, bargni ikkiga buklab o'ram hosil qilinadi va shu o'ramga keyingi ikkiga buklangan barglarni qo'shib, ip yordamida ularni gul shakliga keltiriladi. Xuddi shu usul bir necha bor takrorlangandan so'nggina yashil gullar hosil bo'ladi. Barglardan gullarning shakli hosil qilinayotganda ipdan foydalanish usuli turlicha bo'ladi: masalan, g'uncha yasamoqchi bo'lsak, o'ramni ham, ipni ham mahkamroq bog'laymiz. Agarda katta yaproqli gullarni yasamoqchi bo'lsak, o'ramning pastki qismidagi ipni qattiqroq holatda, bargni esa biroz bo'shroq holatda bog'laymiz. Ana shundagina ko'zlangan maqsadga erishiladi. Bitta gulni yasash uchun olti dona yoki undan ortiq barglardan foydalanish mumkin.

16-mashg'ulot: Simlardan kompozitsiya tuzish

Mavzu: Simlardan kompozitsiya tuzish.

Maqsad: Talabalarni simlardan kompozitsiyasini yasashga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalarga metallar haqida ma'lumot berish. Simlardan kompozitsiyalar yaratish texnologiyasini o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Simlar haqida ma'lumot.

Simlardan kompozitsiya yaratish usullari.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.


Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: mis yoki alumin sim, duradgorlik asboblari.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni metallarda foydalanib, turli ashyolar yasashga o'rgatadi. Simlarga ishlov berishda ularning turli o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra olishga yo'naltiradi. Amaliy faoliyat orqali ularning tasavvurlarini boyitadi.

Talaba: metallarga badiiy ishlov berish yo'llarini o'zlashtiradilar. Simlardan kompozitsiya yaratishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.



13-rasm. Metalldan ishlangan kompozitsiya

Metallardan kompozitsiya yaratish texnologiyasi

Metallardan kompozitsiya tuzish o'quvchilarning ko'pgina amaliy malakaga ega bo'lishlarini talab etadi. Mis yoki alumin simlardan kompozitsiya yaratishda katta kuch va xushyorlik talab etiladi. Tanlangan jism avval yaxshilab kerosin bilan tozalanadi, undan so'ng poroshokli suvda yuviladi. Agarda sim zanglagan bo'lsa, uni egov yoki qum qog'oz bilan yaxshilab tozalanadi. Tozalangan metallning ikki yuziga zaytun moyida ishlov beriladi.

Kompozitsiyani rangli bajarish uchun simni yaxshilab quritib, keyin unga xomaki rang bo'yog'i suriladi. Quriganidan so'ng asosiy fon rangini berish mumkin.

Kompozitsiyani yaratish, unga shakl berish uchun qaychi va omburdan foydalaniladi. Uzunligi ikki yoki uch metrni tashkil etadigan sim olib, diametri o'n olti santimetrni tashkil etadigan uchta aylana, ikki tomoni ilgakli qirq sakkizta radiusi bir yarim santimetrli yarim aylana tayyorlab, birinchi aylananing har ikki tomoniga sakkiztadan yarim aylana biriktiriladi. Ularning bemalol harakatlanishlari va chalkashib ketmasliklari uchun yarim aylana orasiga mayda sim qo'yiladi.

Ana shu tariqa ikkinchi va uchinchi sim aylanalariga sakkiztadan yarim aylanani biriktiriladi. Katta aylananing har bir tarafiga biriktirilgan yarim aylanalarni mayda sim bilan bir-biriga biriktirish orqali yaxlit kompozitsiya hosil qilinadi.

Yarim aylanalarning harakatlantirish orqali turli shakldagi gullarni aks ettirish mumkin.

17-mashg'ulot. Tabiiy iplardan kompozitsiyalar tuzish

Mavzu: Tabiiy iplardan kompozitsiyalar tuzish.

Maqsad: Talabalarni tabiiy iplardan kompozitsiyalar tuzishga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalarga amaliy san'atning kashtachilik turi haqida ma'lumot berish. Eskiz chizish usullari bilan tanishtirish. Kashtado'zlik usulida kompozitsiyasi yaratish texnologiyasini o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Amaliy san'atning kashtachilik turi. Eskiz chizish. Kashtado'zlik usulida kompozitsiya yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, iplar, igna, to'qish asboblari, mato, qaychi, pva yelimi.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi:** talabalarning amaliy san'atning kashtachilik turiga doir bilimlarini boyitadi. Eskiz chizish

usullarini o'rgatadi. Kashtado'zlik usulida kompozitsiya yaratish texnologiyasini amalda ko'rsatib beradi.

Talaba: eskiz chizish usullarini o'zlashtiradilar. Kashtado'zlik usulida kompozitsiya yaratishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Kashtado'zlik usulida kompozitsiyasi yaratish texnologiyasi

Kashta (fors. – chizilgan tortilgan) – amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. Kashta qo'lda (igna, ilmoqli ignabilan) yoki mashinada, asosan, mato (bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va boshqalar) va charm (etik, mahsi, pichoq qini, kamar, ot jabduqlari kabilar)ga tikiladi. Kashta mujassamotida o'simliksimon naqshlar, xandasiy shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlar, keyinroq kishilarning qiyofalari, me'moriy obidalar ham o'z ifodasini topadi.

Kashta tikish turlari choklarda matoga avvaldan axta (andoza) yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asoslari, ba'zan matodan iplar sug'irilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda jun, ip, ipak (rangli), zig'ir tolali tabiiy va sun'iy (sintetik) tolalardan, metall (tilla, kumush) dan tayyorlangan iplardan foydalaniladi, shuningdek, dur, nozik, piston, ba'zan qimmatbaho tosh va tangalar keng ishlatiladi. Mato,



14-rasm. Kashtado'zlik usulida yaratilgan kompozitsiyalar



mo'yna, charmlardan applikasiya (quroq) tikishda kashtadan foydalaniladi. Kashta buyumlar (palak, so'zana, choyshab, gulko'rpa, kirpech, dorpech, zardevor va boshqalar), kiyimlar (ko'ylak, do'ppi, nimcha, peshonaband, kamar va b), mustaqil bezak ko'rinishida keng ishlatiladi.

Kashtachilik tikish san'ati, amaliy san'atning qadim sohalari-dan biri. Uning tarixiga nazar tashlasak, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'sirida rivoj topganini ko'rsatadi. Kashtado'zlik usulida kompozitsiya yaratish uchun dastlab kompozitsiya matoga chizilib rangli ipda tikiladi. Kompozitsiya tuzilmasiga qarab rom, qalin mato, bir xil kattalikdagi rangli ipak iplar va igna tanlanadi. Tabiiy iplardan kompozitsiya yaratishni rom tayyorlash va mato tortishdan boshlanadi. Romni turli shakllarda yasash mumkin. Tayyorlangan romga tortish uchun qalin mato iliq suvga solinadi.

Iliq suvga solingan mato biroz bo'shaydi va uni romga tarang holatda tortiladi.

Mato qurigach tarang tortilib boradi. Mato tortilgan planshetga kompozitsiya chiziladi. Matoga juda ehtiyotkorlik bilan moyli yumshoq qalamlarda chizish lozim. Qalamlarning ikki xili uchraydi: yumshoq va qattiq. Qattiq qalam quyidagicha ataladi:

T, 2T, 3T, 4T va boshqalar yoki N, 2N, 3N, 4N va boshqalar (raqamlar qalamning qanchalik qattiqligi darajasini belgilaydi). Yumshoq qalamlar: M; 2M, 3M, 4M va boshqalar. V; 2V, 3V, 4V va boshqalar (raqamlar qalamning yumshoqlik darajasini belgilaydi). Ular orasida TV yoki NV o'rtacha yog'lik darajadagi qalamlar hisoblanadi. Kompozitsiyalarning barchasida faqat M; 2M, 3M, 4M qalamlaridan foydalangan ma'qul.

Matodagi manzarani ranglashda rangli ipda igna bilan zanjir to'qish usulidan foydalaniladi. Kompozitsiyani texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda bajarish lozim.

Quyidagi birinchi kompozitsiyada doira ichiga gul chizilib, yaproqlari sholk matosidan tikilgan.

Gulning kontur chiziq-lari rangli iplarda tikilgan. Ikkinchi kompozitsiyada atlas matosiga o'sma surayotgan qizning qiyofasi rangli iplarda bajarilgan.

18-mashg'ulot. Somon vositasida kompozitsiya tuzish

Mavzu: Somon vositasida kompozitsiya tuzish.

Maqsad: Talabalarni somon vositasida kompozitsiya tuzishga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalar-ni somon bilan ishlash malakalarini o'stirish. Ularning somon kompozitsiyasini tuzishda turli-tuman shakllardan foydalanish imkoniyatlari haqida tasavvurlarini kengaytirish.

O'quv jarayonining mazmuni: Somon bilan ishlash qoidalari. Somon kompozitsiyani tuzishda foydalaniladigan shakllar. Somon vositasida kompozitsiya yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, qumqog'oz, somon, plastilin, mato, pva va super kley, qaychi, kanselyariya pichog'i, lak.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalar-ni somon bilan ishlash malakalarini o'stiradi. Ularning somon kompozitsiyasini tuzishda turli tuman shakllardan foydalanish imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

Talaba: somon bilan ishlash qoidalarini o'zlashtiradilar. Somon kompozitsiyani tuzishda foydalaniladigan shakllar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Somon vositasida kompozitsiya tuzishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Somon vositasida kompozitsiya tuzish texnologiyasi



15-rasm. Somon vositasida tuzilgan kompozitsiyalar.



Dazmolda tekislangan somon bo'laklarini qog'ozga pva yelim yordamida birlashtirib, og'irroq biror jism bilan qotgunga qadar bostirib qo'yiladi. Kompozitsiyaning umumiy shakli qirqib planshetga yopishtiriladi. Kompozitsiyaning qismlarini shtrixlanadi.

Shtrixlashda kuydirib ishlanadigan asbobdan foydalaniladi va so'ngra loklanadi.

19-mashg'ulot. Pape-mashe usulida buyum yasash texnologiyasi

Mavzu: Pape-mashe usulida buyum yasash texnologiyasi.

Maqsad: Talabalarni pape-mashe usulida buyum yasashga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalarni amaliy san'atning pape-mashe usuli bilan tanishtirish. Ularga pape-mashe bilan ishlash jarayoni haqida ma'lumot berish. Pape-mashe usulida ishlashga o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Pape-mashe usuli. Pape-mashe bilan ishlash jarayoni. Pape-mashe usulida buyum ishlash texnologiyasi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, qog'ozlar, un, rangli bo'yoqlar, suv, alumin sim, qaychi, kanselyariya pichog'i, qumqog'oz, lak.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni amaliy san'atning pape-mashe usuli bilan tanishtiradi. Ularga pape-mashe bilan ishlash jarayoni haqida ma'lumot beradi. Talabalarni pape-mashe usulida buyum ishlashga o'rgatadi.

Talaba: pape-mashe usuli haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Pape-mashe bilan ishlash jarayonini o'zlashtiradi. Pape-mashe usulida buyum ishlashga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Pape-mashe usulida buyum ishlash texnologiyasi

“Pape-mashe” so'zi “ivigan, g'ijimlangan qog'oz” ma'nosini bildiradi. Bunday qog'ozdan kleyster bilan loy va plastilindan yasalgan tayyor model bo'yicha shakl yelimlanadi. Pape-mashe so'zi fransuz rassomining ism va familiyasidir. Rassom birinchi bo'lib xamir va qog'ozni aralastirib plastilinga o'xshash massa hosil qilgan, bu massani qo'lda g'ijimlash orqali buyum tayyorlagan. Pape-mashedan

tayyorlangan o'yinchoqlar, har xil boshqa mayda buyumlar ularni yasashning osonligi bilan ajralib turadi. Pape-mashe bilan ishlash jarayoni o'quvchilarda mehnat malakalarining shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Pape-mashe bilan ishlaganda steklar, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo'yash uchun bo'yoq, mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Ish qog'ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o'ram qog'ozlar zarur. Qog'oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o'ram qog'oz turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlab olinadi. Piyola paner ustiga to'ntarib qo'yiladi. Unga yupqa qatlam yog' (vazelin, o'simlik yog'i) suriladi. Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog'ozni yopishtirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog'ozlarga kleyster surtib, birin-ketin piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir biriga ko'ndalang tarzda bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo'yib chiqiladi. Poloskalarining eni 1-2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo'lishi kerak. Bunday qog'ozlar ikki qatlam qilinib ochiq joy qoldirmasdan yelimlanadi. Shundan keyin yana ikki-uch qatlam yopishtiriladi, biroq endi poloskalar emas, balki qog'oz parchalari yopishtiriladi. Qog'oz, albatta qo'lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa bir me'yorda yelimlangan tekis qatlam hosil bo'ladi. Shunday qilib, piyola ustiga bir necha qatlam (5-6-8) qavat qog'oz parchalari buyumning kattaligiga ko'ra yopishtiriladi. Qog'oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista to'g'rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki sutka davomida quritiladi. Yaxshilab quritilgan pape-mashe shaklning sathi silliq qilib, jilvir qog'oz bilan tozalanadi. Shundan so'ng yasalgan buyumga emulsiya bo'yog'iga PVA yelimi qo'shib mo'yqalam yordamida silliq jilo beriladi. Emulsiyalangan shakl quritiladi va jilvir qog'oz bilan tozalanadi. Shundan so'ng u bo'yaladi va bezak beriladi.

Pape-mashening qog'oz massasidan bajariladigan boshqa usuli ham bor. Pape-mashe uchun massa eski qog'ozga yopishtiruvchi va to'ldirgich moddalar qo'shib tayyorlanadi. Tayyorlash usuli oddiy.

Qog'ozni mayda qilib burdalab, bir sutka ivitib qo'yiladi. So'ngra uni kiselsimon bir xil massa hosil bo'lgunga qadar qaynatiladi. Sovigan massa kichik-kichik bo'laklarga bo'linib qo'lda siqiladi va quritiladi. Tamoman qurigan massa mayda qirg'ichdan o'tkaziladi. Shundan so'ng qog'oz massaga yelimli suv quyib, narsalar yasashga yaroqli xamir holatiga kelguncha aralashtiriladi. Bunday massadan karnavallar niqoblari, o'quv qo'llanmalari tayyorlanadi. Pape-mashedan massa tayyorlash retseptlari serob, qog'oz massasi va suyuq duradgorlik yelimini turli to'ldirgichlar: bo'r, loy, yog'och qipiqlari, zig'ir moy bilan qo'shib tayyorlash mumkin. Tayyorlangan xamirdan turli xil narsalar yasaladi. Xamir 1-1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so'ngra quritib gruntlanadi. Grunt tayyor mahsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning sathi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo'yoq bilan bo'yab, mahsulotni chiroyli ko'rinishga kelishi uchun harakat qilish kerak. Pape-mashe juda qo'l keladigan ashyo sifatida ko'pgina mamlakatlarda keng foydalanadi.



16-rasm. Pape-mashe usulida yasalgan buyumlar.

Pape-mashedan o'yinchoq tayyorlash usuli quyidagicha: bir qavat o'ram qog'oz yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamir surib chiqiladi va xamir surilgan qog'ozni qo'lda g'ijimlab, maydalab bir xil massa bo'lguncha ezg'ilaymiz. Tayyor bo'lgan massani bo'laklarga bo'lib istalgan o'yinchoq yasaladi. O'yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanish mumkin. Bunda yasalayotgan o'yinchoq ichiga sim joylashtiriladi. O'yinchoqlarni tulum usulida

bajaramiz. Tulum inson gavdasi, hayvon, qush, baliq kabilarning maxsus materiallar yordamida o'ziga o'xshatib tayyorlangan nusxasi hisoblanadi. Yasalgan o'yinchoq qurigandan so'ng qum qog'oz bilan ishqalanib, silliqalanadi. So'ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo'yab olinadi. Qurigandan so'ng akvarel bo'yoq bilan bo'yaladi va ustidan lak beriladi. Bunday usul orqali sabzavotlar, mevalar, hayvon, parrandalar, qushlar, gullar yasash mumkin.

20-mashg'ulot. Talabaning ijodiy ishi

Mavzu: Instolatsiya, tabiiy iplar, somon va pape-mashedan kompozitsiyalar ishlash.

Maqsad: Talabalarning mustaqil ravishda tabiiy iplar, somon va pape-mashedan kompozitsiya yaratishlariga erishish.

Vazifalar: Talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo'naltirish. Ularda ijodiy qiziqishni hosil qilish. Ijodiy ishni bajarish tartib-qoidalarini tushuntirish. Talabalarning ijodiy ishini boshqarish.

O'quv jarayonining mazmuni: Sodda va murakkab ko'rinishdagi kompozitsiyalar tuzish. Ijodiy motivatsiyani hosil qilish. O'quvchilarning ijodiy ishlari ko'rgazmasi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: refleksiya, izlanishli, reproduktiv, tadqiqotchilik.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, turli shakldagi suvqovoqlar, vatman qog'oz, arra, shrup, qumqog'oz, meva urug'lari, somon, chig'anoq, plastilin, A4 formatidagi qog'ozlar, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, gullar, ko'za va qushlar suratlari, qattiq karton, manzarlarning foto suratlari, ildizlar, barglar, un, suv, alumin sim, tikon, issriq, gips, qaychi, konselariya pichog'i, iplar, igna, to'qish asboblar, lok va boshqalar.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, kuzatish.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni mustaqil ijodiy ishga yo'naltiradi. O'quvchilarda ijodiy ishga qiziqish va motivatsiyani hosil qiladi. Talabalarning ijodiy ishini boshqaradi.

Talaba: ijodiy ishni bajarishga doir zaruriy ko'rsatmalarni egallaydi. Ijodiy ishni bajarish bosqichlarini o'zlashtiradi. Tabiiy materiallardan kombinatsiya hosil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Talabalarni ijodiy ishga yo'naltirish

Har bir haqiqiy san'at asarida albatta biror-bir falsafiy muammo ko'tariladi. Biroq falsafiy muammolar asarda muayyan badiiy qiyofalar, badiiy ideallar, badiiy ramzlar orqali ifodalanadi. Shu bois estetik idrok etish jarayonida ko'tarilgan muammoning mohiyatini hamma ham darhol tushunib olish qiyin. Qadimgi dunyo Sharq xalqlarida san'atning qator turlari taraqqiy etdi. Mazkur san'at turlarida ikki holatni kuzatish mumkin: manfaatli go'zallikka asoslangan san'at turlari, manfaatsiz go'zallik tarzida idrok etuvchi san'at turlari. Yaratilayotgan asar albatta ijobiy va manfaatdor bo'lib go'zallikning namunasi sifatida kishi diqqatini tortadigan bo'lishi darkordir. Tabiiy iplar, somon va pape-mashedan ishlangan kompozitsiyalar ham moddiy, ham ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, ularni yaratish har tomonlama ahamiyatga egadir.

Ijodiy ish topshirig'i

Ko'rgazmaga qo'yilgan amaliy ishlar asosida kompozitsiyalar tuzish.

Ijodiy ishni bajarishga doir ko'rsatmalar:

- 1) ko'rgazmaga qo'yilgan kompozitsiyalardan birini tanlab oling;
- 2) mashg'ulotlar davomida berilgan ma'lumotlarni va kompozitsiyani bajarish usullarini yodga tushiring;
- 3) dastlab kompozitsiyani tayyorlashga doir jihozlarni tayyorlang.
- 4) kompozitsiyatsini tuzishda qadamlar ketma-ketligiga amal qiling;
- 5) kompozitsiyatsiyani yaratishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qiling.

Ijodiy ishni baholash mezonlari

1. Ishning o'ziga xos mazmunga egaligi. Kompozitsiyada aniq mohiyatning aks etganligi.
2. Amaliy ish uchun tasvirning to'g'ri tanlanganligi.
3. Ishda shakl va mazmun mutanosibligiga e'tibor qaratilganligi.
4. Kompozitsiya detallarining o'zaro uyg'unligi va to'g'ri joylashuvi.
5. Kompozitsiyaga ishlov berilishi: rang va bo'yoqlardan o'rinli foydalanish.
6. Ishning originalligi.
7. Ishning badiiy mahsul sifatidagi natijasi.

Talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish uchun yozma ish variantlari

1-variant

1. Instolyatsiyalar haqida ma'lumot bering.
2. Pape-mashe usulida kompozitsiyalar yaratish yo'llarini bayon eting.
3. Metaldan kompozitsiya tuzish texnologiyasini tushuntirib bering.

2-variant

1. Barglardan kompozitsiya yaratish haqida ma'lumot bering.
2. Tabiiy iplardan kompozitsiya yaratish usullarini bayon eting.
3. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar yasash yo'lini tushuntirib bering.

3-variant

1. Kashtado'zlik haqida ma'lumot bering.
2. Somondan kompozitsiyalar tuzish usullarini bayon eting.
3. Pape-mashe usulining o'ziga xosliklarini tushuntirib bering.

4-variant

1. Metallarga badiiy ishlov berish haqida ma'lumot bering.
2. Yashil atirgul kompozitsiyaini tuzish usullarini bayon eting.

3. Somon vositasida kompozitsiya tuzishda foydalaniladigan shakllarni tushuntirib bering.

21-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan gerbariy ishlash

Mavzu: Tabiat in'omlaridan gerbariy ishlash texnologiyasi.

Maqsad: Talabalarni tabiat in'omlaridan gerbariy ishlashga o'rgatish.

Vazifalar: O'quvchilarga gerbariy haqida ma'lumot berish. Ularni tabiat in'omlaridan gerbariy tayyorlash jarayoni bilan tanishtirish. Gerbariydan kompozitsiyalar yaratishga o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Gerbariy haqida ma'lumot. Tabiat in'omlaridan gerbariy tayyorlash jarayoni. Gerbariydan kompozitsiyalar yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: meva urug'lari, somon, chig'anoq, chanoq, makkajo'xori poyasi va barglari, yong'oq va bodom po'chog'lari, qaychi, kanselyariya pichog'i, lok.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: **O'qituvchi:** talabalarga gerbariy haqida ma'lumot beradi. Ularni tabiat in'omlaridan gerbariy tayyorlash jarayoni bilan tanishtiradi. Gerbariydan kompozitsiyalar yaratishga o'rgatadi.



17-rasm. Gerbariydan ishlangan kompozitsiya.

Talaba: gerbariy haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Tabiat in'omlaridan gerbariy tayyorlash jarayonini o'zlashtiradi. Gerbariydan kompozitsiyalar yaratishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

Gerbariydan kompozitsiyalar yaratish texnologiyasi

Tabiatdagi aniq narsa yoki jarayonlarni bilmasdan turib, dunyoning umumiy ko'rinishi to'g'risida tasavvur, ijod qilish mumkin emas. Tabiatdagi narsalarni mukammal o'rganish, ularning mohiyatini chuqurroq ochib berishga intilish tafakkur uslubining ijobiy tomonini tashkil etadi. Bizni o'rab turgan har bir narsa voqelikdagi boshqa narsalar bilan o'zaro chambarchas bog'langan va uzluksiz harakatda, o'zgarishda rivojlanishdadir. Tabiatdagi har bir giyohu, xasu-cho'pigacha go'zaldir. Tabiat in'omlaridan gerbariy ishlash uchun barcha gularning yaprog'iga monand bo'lgan meva va poliz ekinlarining urug'lari, chig'anoq, makkajo'xori poyasi va barglari, yong'oq va bodom po'chog'larini tozalab yuvib, quritiladi. Kompozitsiya asosida xom-ashyolarni bir-biriga ip bilan biriktiriladi yoki yelimlanadi.

Kompozitsiyadagi xom-ashyolarning tabiiy rangini saqlab qolishga harakat qilish lozim. Tugallangan ijodiy ishlarni albatta loklash lozim.

Quyida keltirilgan kompozitsiyada suvqovoqning yuzasiga mozaika bajarilgan bo'lib, unda nastarin guli chig'anoqdan ishlangan. Bir xil tekislikdagi mayda chig'anoqlar uchtadan bir-biriga yelim yordamida biriktirilgan. Shu usulda yana o'ttiz-qirq donasi tayyorlanib so'ng nastarin gulining umumiy shakli olinib, och siyoh rangga bo'yalgan. Suvqovoq urug'i o'z rangini saqlab qolgan holda kattaroq gullar shakli kompozitsion holatda terib yopishtirilgan va loklangan. Boshqa gul shakllari ham shu tariqa bajarilib, umumlashtirilib loklangan.

22-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish

Mavzu: Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish texnologiyasi;

Maqsad: O'quvchilarni tabiat in'omlaridan mozaika yaratishga o'rgatish.

Vazifalar: O'quvchilarga mozaika haqida ma'lumot berish. Ularni tabiat in'omlaridan mozaika yaratish jarayoni bilan tanishtirish. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratishga o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: Mozaika haqida ma'lumot. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish jarayoni. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.


Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, qog'oz, oyna, sopol plita, gul tojibarglari, urug', tuxum po'sti, arra, qumqog'oz, meva va poliz ekinlarining urug'lari, somon, chig'anoq, plastilin, mato, pva va super yelim, rangli bo'yoqlar, qaychi, kanselariya pichog'i, lok.

Nazorat: o'z-o'zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: o'quvchilarga mozaika haqida ma'lumot beradi. Ularni tabiat in'omlaridan mozaika yaratish jarayoni bilan tanishtiradi. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratishga o'rgatadi.

O'quvchi: mozaika haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish jarayonini o'zlashtiradi. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratishga doir ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.



Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish texnologiyasi



18-rasm. Tabiat in'omlaridan yaratilgan mozaikalar.

Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va ko'pgina mamlakatlarda mozaika ham qo'llaniladigan materiallariga ko'ra, ham naqshi va rasmlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda madrasalar, machitlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Laosda rangli ko'zgu parchalaridan ajoyib mozaika asarlari yaratiladi, ular quyoshda bir-biriga qo'shilib va porlab, shodlik kayfiyatini uyg'otadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim-ayrim parchalar (qog'oz, oyna, sopol plita, gul tojibarglari, urug', tuxum po'sti va shu kabilar)ni qo'yib chiqishdir. Tuxum po'stidan mozaika

ishlarini bajarish uchun tuxum po'sti kerakli ranglarga bo'yaladi. Yuvib quritilgan tuxum po'sti mo'yqalam yordamida akvarel bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Bo'yoq qurigandan keyin po'sti tanlanadi, u rasmga qarab mayda va yirik bo'laklarga bo'linadi.

Tuxum po'stidan applikasiya qilishda shunday tasvirlarni tanlash kerakki, ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda egri-bugrilari bo'lmasligi kerak. Kontur qora qog'oz orqali o'tkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. O'sha yerga tuxum po'sti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham ish shu tartibda davom ettiriladi. Ortiqcha yelim toza latta bilan artib tashlanadi, po'st yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qo'yiladi. Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug'lari, danak, baliq tangalari, chig'anoq, mayda toshlar bilan xilma-xil

applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil materialdan foydalanish mumkin. Mozaika usulidagi kompozitsiya, albatta planshet ustiga ishlanadi.

23-mashg'ulot. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish

Mavzu: Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish texnologiyasi.

Maqsad: Talabalarni daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratishga o'rgatish.

Vazifalar: Talabalarga daraxt shoxlari va tomirlaridan foydalanish haqida ma'lumot berish. Ularni daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish jarayoni bilan tanishtirish. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratishga o'rgatish.


O'quv jarayonining mazmuni: Daraxt shoxlari va tomirlaridan foydalanish. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish jarayoni. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: tushuntirish, suhbat, izohlash, bajarib ko'rsatish, mustaqil ish.

Shakl: amaliy, individual ish.

Vosita: planshet, arra, shrup, qumqog'oz, pva yelim, rangli bo'yoqlar, daraxtning shoxlari va ildizlar, un, barglar, tikon, issriq, gips, qaychi, kanselyariya pichog'i, lok.



19-rasm. Daraxt shoxlari va tomirlaridan ishlangan "Ko'zmunchoq daraxti" kompozitsiyasi.

Nazorat: o‘z-o‘zini nazorat, refleksiya.

Kutiladigan natijalar: **O‘qituvchi:** daraxt shoxlari va tomirlaridan foydalanish haqida ma’lumot beradi. Ularni daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish jarayoni bilan tanishtiradi. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratishga o‘rgatadi.

Talaba: daraxt shoxlari va tomirlaridan foydalanish haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish jarayonini o‘zlashtiradi. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratishga doir ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi.

Talabalarni kompozitsiya yaratish ishiga jalb etish



San‘at mazmun va shakli masalasi estetik nazariyada muhim o‘rin tutadi. San‘atda mazmun va shakl bir-birini izohlaydi, shakl muayyan bir mazmunni ifodalasa, mazmun ham muayyan shaklda namoyon bo‘ladi. Har bir narsaning o‘zgariishi, avvalo, mazmun o‘zgarishidan boshlanadi. Mazmunga bo‘ysunadigan shakl ham nisbiy mustaqillikka egadir. San‘atning barcha turlari badiiy shaklga ega bo‘lib, u ko‘proq asar tuzilishi(kompozitsiya) bilan bog‘liq. Kompozitsiya tuzilishi tomoshabin yoki o‘quvchi diqqat-e’tiborini g‘oyaviy muddaoga qaratish imkonini beradi.

Bugun ta’limda yangi bilimlar, ijodiy ishlar “kashf etilishi” o‘quvchilar ishtirokida to‘garak rahbari tomonidan emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan to‘garak rahbari rahbarligida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Kashfiyot – izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat

hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma'lum bo'ladi. Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o'zgartiradi. Kashfiyot bilan ixtironi bir biridan farqlay bilish kerak.

Kashfiyot natijasida muayyan qonuniyatlar yaratiladi, ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratilishi mumkin.

Masalan, Arximedning suv chiqarish vinti o'ta yangilik bo'lsa ham, u ixtiro hisoblanadi, I.Nyutonning butun olam tortishish qonuni esa olamshumul kashfiyotdir.

24-mashg'ulot. Talabanning ijodiy ishi

Mavzu: O'rganilganlarni takrorlash va mutahkamlash. Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish.

Maqsad: Talabalarni gerbariydan hamda daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiyalar va mozaika yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rgatish hamda ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash.

Vazifalar: Talabalarni amaliy ishlarni baholash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltirish. O'quvchilarning gerbariydan hamda daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiyalar va mozaika yaratishga doir bilimlarini tekshirish va baholash.

O'quv jarayonining mazmuni: Amaliy ishlarni baholashga doir "Kichik guruh – qayta aloqa testi". O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilishga doir yozma ish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Metod va usullar: suhbat, munozara, namoyish etish, izohlash, dalillar keltirish

Shakl: o'quvchilarning BKMLarini tekshirish va baholash darsi, individual va kichik guruhlarda ishlash.

Vosita: amaliy ish ko'rgazmasi, yozma ish variantlari

Nazorat: og'zaki va yozma

Kutiladigan natijalar: O'qituvchi: talabalarni amaliy ishlarni baholash va ulardagi kamchiliklarni ko'ra olishga yo'naltiradi.

Talabalarning gerbariydan hamda daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiyalar va mozaika yaratishga doir bilimlarini tekshiradi va baholaydi.

Talaba: kompozitsiya yaratishga doir amaliy topshiriqlarni tahlil etish va baholashga o'rganishadi. Gerbariydan hamda daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiyalar va mozaika yaratishga doir bilimlarini sinovdan o'tkazishadi.

“G'uruh – qayta aloqa” testi

Maqsadi:

– O'quvchilarning amaliy ishlarni tahlil etish va ulardagi kamchiliklarni aniqlay olish darajasini nisbatan tez o'lchash;

– ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlari ishtiroklari asosida yaratilgan amaliy ishlarni nazorat qilishning ta'limiy funksiyasini faollashtirish.

1. O'qituvchi birinchi amaliy ishni taqdim etadi.

2. O'quvchilar ularni tahlil etib, kamchiliklarni yozma tarzda qayd etishadi.

3. O'qituvchi ikkinchi amaliy ishni taqdim etishadi, o'quvchilar uni tahlil etishadi va xuddi shu tarzda to'rt-besh amaliy ish taqdim etiladi.

O'quvchi (ismi va familiyasi) – Men	Guruh	Etalon
1. 2. 3..... va boshqalar		

4. O'quvchilar o'z tahliliy ma'lumotlarni yozib bo'lishgach, javoblarining to'g'riligini kichik guruhlarda muhokama etishadi. Agar ular o'z javoblarini o'zgartirishsa, ular yangi javobni “guruh” ustuniga yozishadi. Ana shu shaklda barcha ishlar muhokama qilinadi.

5. Mashg'ulotning keyingi bosqichida javoblar etaloni taqdim etiladi. Talabalar etalon bilan “Men” o'z javoblarini taqqoslab

ko'rishadi va o'ziga no'ldan beshgacha birlikda ball qo'yishadi. Keyin etalondagi javoblar bilan "guruh" ustunidagi javoblarni taqqoslaydi va yana o'ziga no'ldan beshgacha birlikda ball qo'yadi.

6. Oxirida mustaqil tahliliy ma'lumot ("Men" ustunidagi) va guruhda ish ("guruh" ustuni) uchun qo'yilgan ballar hisoblab chiqiladi. Nazoratning mazkur metodi amaliy ish tahlili bo'yicha guruhdagi ta'limiy ishni faollashtirishga yordam beradi. Guruhda javoblarni tahlil qilishda alohida talabalarning javoblari korreksiyalanadi.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish uchun yozma ish variantlari

1-variant

1. Gerbariy haqida ma'lumot bering.
2. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish usulini bayon eting.
3. Mozaika yaratish texnologiyasini tushuntirib bering.

2-variant

1. Tabiat in'omlaridan gerbariy ishlash jarayoni haqida ma'lumot bering.
2. Mozaika ishlashda tabiat in'omlaridan foydalanish usullarini bayon eting.
3. "Ko'zmunchoq daraxti" kompozitsiyasining yaratilishini tushuntirib bering.

3-variant

1. Mozaika haqida ma'lumot bering.
2. Gerbariydan kompozitsiya yaratish usulini bayon eting.
3. Tuxum po'stidan mozaika ishlash yo'lini tushuntirib bering.

DIZAYN TA'LIMIGA OID ATAMALARNING QISQACHA IZOHLI LUG'ATI

Dizayner – rassom konstruktor.

Kompozitsiya (lotincha “sompjatio” soʻzidan olingan boʻlib, “oʻylab chiqaraman”, “tuzataman”, “yarataman” maʼnosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning oʻzaro muvofiqligi.

Dizayn – inglizcha “design” soʻzidan – chizma, rasm, loyiha maʼnosini bildiradi.

Ijod – mehnat tufayli voqelik materialidan yangi reallik hosil qilish. Ijodda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, isteʼdodi namoyon boʻladi.

Tafakkur – bevosita bilish jarayoni boʻlib hisoblanadi. Insoniyat barcha faoliyatini, ham amaliy, ham aqliy faoliyatini tafakkur yordamida amalga oshiradi.

Zehn – insonning qiziquvchanligida, intilishida namoyon boʻladi. Qiziquvchanlik esa ijodiy faoliyatning rivojlantiruvchi omilidir.

Tasavvur – narsa va hodisalar, holatlarni, voqelik obrazlarni eslash, shuningdek ijodiy xayol surish jarayonidir.

Fantaziya – psixik obraz, xayol mevasi, tasavvurlar va obrazlarning alohida kuchli, yaqqolligi va gʻayri oddiyligi bilan karakterlanuvchi xayol, hayotda inson tomonidan idrok etilmagan tasavvur va xayoliy holatlarning vujudga kelishidan iborat psixik holat hisoblanadi.

Ilhom – insonning barcha kuchlari ijod obyektida batamom toʻplanganligini, hissiy, ruhiy, koʻtarinkilikni bildiradi, natijada mehnat gʻoyat sermahsul boʻladi.

Hunar – 1) maʼlum darajada mahorat talab etuvchi qoʻl mehnati yordamida kichik buyumlar ishlab chiqarish; 2) maʼlum turdagi yoki buyumlarni tayyorlash sanʼatini egallash, tegishli kasb-korning mavjudligi.

Mahorat – bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o‘qitish san‘atidan iborat.

Manzara – tasviriy san‘at janrlaridan biri. Unda tabiat, shuningdek, industrial, ya’ni sanoat korxonalari va uskunalariga oid ko‘rinishlar tasvirlanadi.

Mozaika – rangtasvirning bir turi bo‘lib, qattiq materiallar hisoblangan koshin, rangli shisha, marmar, tosh, yog‘och, metallar parchalarini tekis yuzasiga maxsus qorishmalar yordamida yopishtirib yaratiladigan tasvirlash texnikasi. Bunday asar ko‘pincha devorga, shiftga uy poliga ishlanadi.

Kashfiyot – izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi.

Usul – bu yuqori estetik darajadagi san‘at asarlarida mavjud bo‘lib, u o‘zining ko‘rinishi va ishlanish yo‘llarining yagonaligi, takrorlanmasligi bilan ajralmasdan turadi.

Plastilin – haykaltaroshlikda ishlatiladigan maxsus qorishma. U moy, loy kabi moddalardan tashkil etgan bo‘lib, xamirsimon bo‘ladi. Undan amaliy san‘atning barcha turlarida keng foydalaniladi.

Ritm – kompozitsiyadagi bir unsurni bir necha marta davriy takrorlanishidir.

Tulum – inson gavdasi, hayvon, qush, baliq kabilarning maxsus materiallar yordamida o‘ziga o‘xshatib tayyorlangan nusxasi hisoblanadi.

Kasb – ish tajribasi hamda maxsus tayyorgarlik natijasida hosil qilingan amaliy malaka va oldindan maxsus nazariy bilimlar sohibi bo‘lgan insonning mehnat faoliyati (mashg‘uloti) turi; odatda, u insonning yashash manbai hisoblanadi.

ELEMENTLARNING RAMZIY MA'NOLARI

Yashil rang – Ona tabiat islom ramzi.

Moviy rang – osmon, koinot, tinchlik, yomon koʻzdan asrash ramzi.

Qizil rang – gʻalaba, olov, iliqlik, xursandlik, shodlik.

Sariq rang – muqaddaslik, yorugʻlik, quyosh, kenglik.

Qora rang – motam, cheksizlik, mavhumlik, qoʻrquv, tushkunlik, noaniqlik.

Zangori rang – oliy eʼtiqod.

Oq rang – poklik ozodlik, yorugʻlik, baxt, omad.

Taqa – yomon koʻzdan asrash.

Oyna – koʻngil, soflik, aks.

Yoy – hukmronlik, mustaqillik.

Nuqta – hayotning boshlanishi, Tangrining yagonaligi, hayotning tugaganligi va boshqa ramzlar.

Toʻgʻri chiziq – hayotdagi toʻgʻri yoʻl, hayotning ravonligi.

Toʻlqin chiziq – hayotning notekisligi, oying oʻn beshi yorugʻ, oʻn beshi qorongʻuligi.

Olti qirrali yulduz – hayotning boshlanishi va oxiri.

Tik turgan holatdagi teng tomonli uchburchak – hayotning boshlanishi. Teskari turgan holatdagi teng tomonli uchburchak – hayotning oxiri.

Teng yonli uchburchak – yaxlit boʻlingan boʻlak, ayriliq, olam.

Toʻgʻri toʻrt burchak – dunyoning toʻrt tomoni .

Romb – ishonch, ayol, yaʼni ona yer, serfarzandlik.

Aylana – olam, mukammallik, baxt hayot, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish ramzi, abadiylik, yaʼni olam doimiydir, lekin inson umri oʻtkinchidir,

Besh qirrali yulduz – hayotning qisqaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh ustuni.

Yarim aylana – baxt.

Yangi oy – Islom dinining ifodasi. Musulmonlik.

Quyosh – hayot, yorugʻlik, iliqlik.

Bulut, olov – gʻoliblik, ulugʻvorlik.

Qo'shuv belgisi – dunyoning to'rt tomoni, ya'ni shimol, janub, sharq va g'arb. Tug'ulish va o'lishni anglatadi.

Kvadrat – dunyoning, olamning cheksizligi, quyosh farzandi, abadiylik, yorug'lik, mustahkamlik, borliq, yer-suv, olov va havodan iborat ekanligi, mukammallik, tenglik, go'zallik.

Charxpalak – omad, abadiy harakat, o'sish, ko'tarilish. Sakkiz qirrali yulduz – mustahkamlik, «Ikki dunyoing obod bo'lsin» degani.

Beshburchak – tabiat.

Chinnigul – hayot ramzi.

Uzum – to'kin-sochinlik.

Kurtak – to'kinchilik, bahor, uyg'onish, navro'z.

Bog'lam – baxt boylanishi.

Barg – bahorgi uyg'onish.

Qalampir – har xil yomonliklardan va yomon ko'zlardan asrash.

Zikr guli (gulsafsar) – osoyishtalik va umr uzoqlik.

Anor – ezgulik, to'qchilik.

Oygul – baxt iqbol, go'zallik.

Jingalak – to'kin-sochinlik, boyluk.

Olma – muhabbat.

Novda – boyluk, farovonlik.

Yaproq – bahorgi uyg'onish, navro'z.

Atirgul – go'zallik ramzi.

Isiriq – yomon ko'zdan asrash.

Lola – bahor belgisi.

Shobarg – bahorgi uyg'onish ramzi.

To'liqinsimon gul poyasi – boyluk va farovonlik ramzi.

Sher – mardlik, jasorat, kuchlilik, hokimlik.

Tulki – makkorlik, ayyorlik.

Chumoli – donolik, hokisorlik.

Bulbul – sadoqat.

Xumo – baxt qushi.

Boyqush – baxtsizlik, vayronalik.

Baliq – xushyorlik, halol luqma.

Sichqon – uy hayvonlarining ko'payish ramzi.

Echki va qo'chqor – jasurlik, mardlik, pokizalik.

Hotam – saxiylik.

Oq kabutar – tinchlik.

Ohu – go‘zallik.

Tuxum – birlik.

Dev – makkor, g‘azabkor, buzg‘unchi maxluq bo‘lib, ezgulikka qarshi kurashuvchi, yomonlik, yovuzlik ramzi.

Quyon – ziyraklik.

BO‘YOQ, TUSH, YELIM VA TURLI ASHYOLARNING ISHLATILISHI

Bo‘yoq tarkibidagi moddalarni tayyor holga keltirishda asosan pigment va bog‘lovchi elementlardan foydalaniladi. Ularning tarkibiga qarab turli xil bo‘yoq turlariga ajraladi. Suv bo‘yoq, guash, tempera va moybo‘yoq.

Akvarel (suvbo‘yoq) bo‘yog‘i oddiy suvda eruvchan moddalardan, o‘simlik yelimlaridan, gummiarobik, olcha, olxo‘ri, uzum, bodom va boshqa qo‘shilib yaxshilab yumshatiladi va uning yaxshilab qaynatib keyin qotiriladi.

Guash bo‘yog‘i o‘simlik yelimidan tayyorlanadi va unga qo‘shimcha kraxmal, dekstrin va sifatini yaxshilash uchun boshqa elementlardan foydalaniladi. Guashda oq bo‘yog‘i ko‘p ishlatiladi. Chunki bu bo‘yoq boshqa bo‘yoqlardan yorqinligi yo‘qligi bilan ajralib turadi, guash (matoviy) likka xos bo‘yoqdir.

Tempera bo‘yog‘i turli xil emulsiyalarda, suvda aralashadi. Yelim yoki moy bo‘yog‘idan tayyorlanadi.

Moybo‘yoq – tabiiy o‘simlik moylaridan tayyorlanadi: lyanom, yong‘oq, kungaboqar, emal, sinkativov va boshqalar unga qo‘shib aralashtiriladi.

Tabiatda eng asosiy rang uchta – sariq, qizil va havorang. Sariqqa – havorangni qo‘shib aralashtirilsa barg rang hosil bo‘ladi. Agarda sariqqa – qizil rangni qo‘shilsa binafsha rang paydo bo‘ladi. Shu tariqa shu asosiy uchta ranglarni bir-biriga ma‘lum miqdorda qo‘shish orqali tabiatdagi barcha ranglarni hosil qilish imkoniyati bor.

Suv bo'yoq. Uning boshqa bo'yoqlardan ajralib turadigan xususiyati yorqinligi, uni qog'ozga yupqa qatlamda ishlanishi, ranglarni bir-biriga ustma-ust qo'yganda ham yorqinlik xususiyatini yo'qotishi kerak emas. Qog'ozdagi bo'yalgan ranglarni quyoshga qaratib qo'yib tekshirib ko'rish mumkin. Suv bo'yoq sanoatda turli-tuman ko'rinishda ishlab chiqariladi: to'rtburchakli plita shaklida qattiq holatda. Chunki buyumlarda yarim qattiq holda, tubik idishlarda suyuq holda bo'ladi. Foydalanish uchun eng qulayi tubik holidagisi, hamda plitkali idishdagisidir. Ayrim hollarda unga guash bo'yog'i qo'shib ishlatish mumkin.

Guashbo'yog'i suv bo'yog'idan yaltiroqmasligi bilan ajralib turadi. Baribir suv bo'yoq, guashda ham suvda yaxshi eruvchanlik xususiyati bor. Guash quyuq qaymoqni eslatadi. Sotuvda asosan shisha va yelim idishlarda ishlab chiqariladi. Guashni qattiq idishlarga solib asrasa ham vaqt o'tishi bilan qurib qolish xavfi bor. Guashni tubik holida saqlash qulayroq.

Tempera bo'yog'i bilan ishlash juda qulay, lekin guashga qaraganda "kazein yelimi" temperasi juda tez qotib qolish xususiyatiga ega. Tempera bo'yog'i bilan ishlansa 1-2 soat ichida quriydi. Kazein yelimi temperasi suv bo'yoq va guashga o'xshab suvda yaxshi erimaydi.

Tush savdoda ikki xil holda uchraydi; qattiq taxtacha yoki plitkasimon va suyuq shisha yoki plastmass idishlarda sotiladi. Tushni ham suvga aralashtiriladi: qattiq taxtacha yoki plitka sifat tushlarni qaynatilgan suvga qo'shib yaxshilab aralashtiriladi. Uni suyuq va quyuq holida ishlatish mumkin. Qog'oz, karton va boshqa narsalarga turli darajada har xil tus berishda foydalansa bo'ladi. Qurigandan so'ng u tez yorilib ketishi mumkin. Choy, kofe yoki suv bo'yoq bilan yopilgan fonga tushda ishlansa bo'ladi. Tush ustidan qaytadan yozishni maslahat bermaymiz.


Bronza asosan plitka sifatida sotiladi, bundan tashqari bankada guash sifatida va kukun (poroshok) holida uchraydi. Bronza kukuniga yelim qo'shib ishlatiladi. O'simlik yelimini ishlatish juda maqsadga muvofiq bo'ladi. Ish jarayonida bronzaning o'zida yorqin rang berish imkoniyati yo'qligi tufayli bronza ishlatiladigan joylarni yorqin sariq bo'yoq bilan bo'yaladi.

Moybo‘yoq bilan yozilgan bezakli ishlar asosan ochiq havoda qo‘llanadi. Moybo‘yoq bo‘yog‘idan foydalanishda maxsus suyultirgich ishlatiladi. Agar bunday suyultirgich bo‘lmasa olif yordamida suyultiriladi. Bundan tashqari skipidor yoki kerosinda ham moybo‘yoqni suyultirish mumkin. Bo‘yoq tez qurishi uchun unga satsativ qo‘shiladi.

Yelim. Qog‘oz, karton, faner va boshqa ashyolarni yelimlashda turli yelimlardan foydalaniladi: yog‘och yelimi, jelatin, baliq yelimi, dekstri, PVA va boshqa yelimlar.

Qalamning ikki xili uchraydi: yumshoq va qattiq. Qattiq qalam quyidagicha ataladi: T, 2T, 3T, 4T va boshqalar yoki N, 2N, 3N, 4N va boshqalar (raqamlar qalamning qanchalik qattiqligi darajasini belgilaydi). Yumshoq qalamlar: M; 2M, 3M, 4M va boshqalar. V; 2V, 3V, 4V va boshqalar (raqamlar qalamning yumshoqlik darajasini belgilaydi). Ular orasida TV yoki NV o‘rtacha yorug‘lik darajasidagi qalamlar hisoblanadi.

O‘chirg‘ich ikki xil bo‘ladi: yumshoq va qattiq. Yumshoq o‘chirg‘ich qalamlar uchun ishlatilsa, qattiq o‘chirg‘ichda tush yoki kraskalarni o‘chirishda foydalaniladi.



Cho‘tkalar dumaloq, yapaloq, uchli va to‘mtiq bo‘ladi. Ular quyidagi raqamlar ostida sanoatda ishlab chiqariladi. Dumalog‘i №1 dan №24 gacha; yapalog‘i №1 dan №12 gacha. “Shitkiy” mo‘yqalamlari moybo‘yoq, tempera va guash bo‘yoqlaridan rangtasvir ishlarida foydalansa bo‘ladi. “Flets” – turli bo‘yoqlar bilan asosan katta maydonlarni bo‘yaladi. Fletsning afzalligi shundaki,

u turli mo'ynalardan tayyorlanadi: "shitinniy", "beleg", "xarkov", "borsukvoy", "rejekalenkovoy" turlari bo'ladi. Fletsning tuklari uzun bo'ladi. Oddiy cho'tkalarga nisbatan uning tuklari zich joylashgan bo'ladi. Mo'yqalamni ishlatib bo'lgandan so'ng uni issiq suvda sovun bilan yaxshilab yuviladi. Agar mo'yqalam bilan moy bo'yoqda ishlatilgan bo'lsa, avvallambor uni kerosin bilan yaxshilab yuviladi va issiq suvda sovun bilan tozalanadi. Shuni inobatga olish lozimki, cho'tkada qoldirilgan bo'yoq asta-sekin yig'ilib borib cho'tkani ishdan chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bulatov S.S, Salimov S.S, Muxtorov A.T. Sherdor madrasasi bezaklarining sirli olami. – T.: Talqin, 2007.
2. Bulatov.S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. – T., 1991.
3. Bulatov S.S. Narodnoye dekorativno-prikladnoye iskusstvo Uzbekistana v esteticheskom vospitanii shkolnikov. Dissertatsiya v vide nauchnogo doklada na soiskaniyeuchenoystepenidoktoraped. nauk. – M.: 1993.
4. Sulaymonov A.P. Sharq miniatyura san’ati. – T., 2005.
4. Sotiboldiyev Z.Sh. Dizayn asoslari. – T.: Iktisod-moliya 2008
5. Tolipov O‘Q., Sh.S.Sharipov, I.N.Islomov. O‘quvchilar dizaynerlik ijodkorligi. – T.: Fan, 2006.
6. Yaminova.S. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda ssenariyli o‘qitish usulidan foydalanish. Ped. fan. nomzodi ...diss. – T., 1997.
7. Shabaratov.P. Lakli miniatyura. Kompozitsiya. – T.: Yangi asr avlodi, 2007 .
8. Qodirov B.R. Iste’dodli bolalar va ularni tanlash metodikasi. – T., 1992.
10. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – T., 2008.
12. Habibulo Solih. Ramziy bezaklar ma‘nosi. – T.: O‘zbekiston, 2003.
- 13 Ergashev. I. Yoshlarning ijtimoiy faolligi. – T.: Akademiya, 2008.
14. Karimova.N.G. Tabiat qo‘ynida inkluziv mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha amaliy qo‘llanma. T.: 2010.
15. Abdullayev.R.M. Bog‘bon va sohibkorlar uchun qo‘llanma T.: 2010
16. Mavlanova. M. Landshaft to‘garagi uchun qo‘llanma -- T.: Adabiyot uchqunlari, 2014.

Mening dunyom. [www. Landshaft dizayni](http://www.Landshaft.dizayni)

Mozilla Firefox. www.arxiv.uz

Internet Kitob@mail.ru

Read more at: <https://minikar.ru/uz/eto-interesno/chtotakoe-origami-istoriya-origami/>

TABIAT IN'OMLARIDAN ISHLANGAN AMALIY SAN'AT

ASARLARI


































































SANOAT NAMUNASIGA
PATENT
 ПАТЕНТ НА ПРОМЫШЛЕННЫЙ ОБРАЗЕЦ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
 АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ
 РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ SAP 01771

Ushbu patent O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asosan quyidagi sanoat namunasiga berildi:

Настоящий патент выдан на основании Закона Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах», на следующий промышленный образец:

Дворный декоратив безак
Настенное декоративное украшение

Talabnoma kelib tushgan sana:
 Дата поступления заявки:

25.04.2018

Talabnoma raqami:
 Номер заявки:

SAP 2018 0063

Ustuvorlik sanasi
 Дата приоритета:

25.04.2018

Patent egasi (egalari):
 Патентообладатель(и):

Раджапова Зухра Тиркашевна, UZ

Sanoat namunasi muallif(lar):
 Автор(ы) промышленного образца:

Раджапова Зухра Тиркашевна, UZ

Patent O'zbekiston Respublikasining barcha hududida 25.04.2018 yildan patentni kuchda saqlab turish uchun boj o'z vaqtida to'langanagina 10 yil mubayyida amal qiladi.
 O'zbekiston Respublikasi sanoat namunalari davlat reestrda 22.11.2018 yilda Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Патент действует на всей территории Республики Узбекистан в течение 10 лет с 25.04.2018 г. при условии своевременной уплаты пошлины за поддержание в действии.
 Зарегистрирован в государственном реестре промышленных образцов Республики Узбекистан, в г. Ташкенте 22.11.2018 г.

Bosh direktor
Генеральный директор



A. Fayzullov



INTELLEKTUAL
 MULK AGENTLIGI

SANOAT NAMUNASIGA
PATENT
 ПАТЕНТ НА ПРОМЫШЛЕННЫЙ ОБРАЗЕЦ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
 АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ
 РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ SAP 01796

Ushbu patent O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga asosan quyidagi sanoat namunasiga berildi:

Настоящий патент выдан на основании Закона Республики Узбекистан «Об изобретениях, полезных моделях и промышленных образцах», на следующий промышленный образец:

Stol ustiga qўyiladigan bezak
 Настольное декоративное украшение

Talabnoma kelib tushgan sana:
 Дата поступления заявки:

25.04.2018

Talabnoma raqami:
 Номер заявки:

SAP 2018 0064

Ustvorilik sanasi
 Дата приоритета:

25.04.2018

Patent egasi (egarlari):
 Патентообладатель(и):

Ражапова Зухра Тиркашевна, UZ

Sanoat namunasi muallif(lar):
 Автор(ы) промышленного образца:

Ражапова Зухра Тиркашевна, UZ

Patent O'zbekiston Respublikasining barcha hududida 25.04.2018 yildan patentni kuchda saqlab turish uchun boj o'z vaqtida to'langandagina 10 yil maboytida amal qiladi.
 O'zbekiston Respublikasi sanoat namunalari davlat reestrinda 29.12.2018 yilda Toshkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Патент действует на всей территории Республики Узбекистан в течение 10 лет с 25.04.2018 г. при условии своевременной уплаты пошлины за поддержание в действии.
 Зарегистрирован в государственном реестре промышленных образцов Республики Узбекистан, в г. Ташкенте 29.12.2018 г.

Bosh direktor
 Генеральный директор



A. Fayzullaev



INTELLEKTUAL
 MULK AGENTLIGI



MUNDARIJA

Soʻz boshi..... 3

**I BOB. MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM MUASSASALARIDA
O'QUVCHILARNI DIZAYN SAN'ATIGA O'RGATISHNING
NAZARIY ASOSLARI**

1.1. Maktabdan tashqari ta'lim muassalarida o'quvchilarni dizayn san'atiga o'rgatishning maqsad va vazifalari..... 6

1.2. O'quvchilarni tabiat in'omlaridan kompozitsiyalar yaratishga o'rgatish mazmuni..... 7

1.3. To'garak mashg'ulotlarining iqtidorli bolalar bilan ishlash imkoniyatlari..... 10

**II BOB. TALABALARNI DIZAYN SAN'ATIGA O'RGATISH
METODIKASI**

1-mashg'ulot. Dizayn san'ati haqida umumiy ma'lumot..... 13

2-mashg'ulot. Kompozitsiya qonunlari 17

3-mashg'ulot. Meva va poliz ekinlarining urug'laridan planshet tayyorlash, gullar kompozitsiyasini tuzish, bo'yash va loklash..... 20

4-mashg'ulot. Origami usulida "Oqqushlar" kompozitsiyasini yaratish..... 22

5-mashg'ulot. Chig'anoqlardan gullar kompozitsiyasi yaratish..... 26

6-mashg'ulot. Talabaning ijodi ishi 30

7-mashg'ulot Kvilling texnikasi yordamida gullar yasash..... 38

8-mashg'ulot. Miniatyura haqida umumiy ma'lumot. Miniatyura elementlari. Tabiat in'omlariga miniatyura ishlash, bo'yash va loklash..... 49

9-mashg'ulot. Suvqovoqdan ko'za va qushlar kompozitsiyasini tuzish..... 52

10-mashg'ulot. Karving kompozitsiyasini yaratish metodikasi..... 55

11-mashg'ulot. Landshaft dizayni-go'zallik yaratish san'ati sifatida 66

12-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan gullar kompozitsiyasini ishlash.....	74
13-mashg'ulot. Talabaning ijodiy ishi	75
14-mashg'ulot. Instolatsiyalar haqida ma'lumot. Instolatsiyalar yaratish texnologiyasi	78
15-mashg'ulot.Yashil atirgul kompozitsiyasi. Yashil atirgul kompozitsiyasi yaratish texnologiyasi.....	81
16-mashg'ulot: Simlardan kompozitsiya tuzish	82
17-mashg'ulot. Tabiiy iplardan kompozitsiyalar tuzish.....	84
18-mashg'ulot. Somon vositasida kompozitsiya tuzish	87
19-mashg'ulot. Pape-mashe usulida buyum yasash texnologiyasi	89
20-mashg'ulot. Talabining ijodiy ishi	92
21-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan gerbariy ishlash.....	95
22-mashg'ulot. Tabiat in'omlaridan mozaika yaratish	97
23-mashg'ulot. Daraxt shoxlari va tomirlaridan kompozitsiya yaratish.....	99
24-mashg'ulot. Talabining ijodiy ishi	101
DIZAYN TA'LIMIGA OID ATAMALARNING QISQACHA	
IZOHLI LUG'ATI	104
ELEMENTLARNING RAMZIY MA'NOLARI.....	106
BO'YOQ, TUSH, YELIM VA TURLI ASHYOLARNING ISHLATILISHI.....	108
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	112
TABIAT IN'OMLARIDAN ISHLANGAN AMALIY SAN'AT ASARLARI.....	114

Z. T. RADJAPOVA

ILM-FAN VA TABIAT MARKAZI
TABIAT IN'OMLARI DIZAYNI

(o'quv qo'llanma)

Toshkent –
“Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi” – 2022

Muharrir	D.Vahidova
Tex. muharrir	A.Moydinov
Musavvir	A.Shushunov
Musahhiha	L.Ibragimov
Sahifalovchi	Sh.Sirojiddinov

Nashriyot litsenziyasi AI № № 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907
10.08.2020.

00.00.2022-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$, “Times New Roman” garniturasida.
Shartli bosma tabog'i 00,00 Nashr bosma tabog'i 000. Adadi 000 nusxa.
Buyurtma raqami № 000. Bahosi shartnoma asosida.

“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”
bosmaxonasida chop etildi.
100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 7-uy.
Tel.: +998999209035 e-mail: nashr2019@inbox.ru

